

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Shodmonova Munira Burxonovna

**ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITUVCHILARINING
KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

Monografiya

**“Nodirabegim” nashriyoti
Toshkent – 2021**

KBK: 74.268.0

Sh 74

UO‘K: 37.02:811.512.133

ISBN 978-9943-7314-3-1

Shodmonova Munira Burxonovna

Ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalari [Matn] : monografiya / M.B. Shodmonova.
- Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 144 b.

Ushbu monografiya ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalari, shuningdek, o‘qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘qitish samaradorligini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslari hamda ona tili mazmuni va adabiyot namunalari o‘rganishning nazariy va amaliy tadqiqiga bag‘ishlangan.

Monografiya metodist olimlar, oliy o‘quv yurtining bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari, tadqiqotchilar hamda ona tili va adabiyot o‘qituvchilariga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

S.X. Muhamedova – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

G.A. Asilova – pedagogika fanlari doktori, professor

N.E.Yo‘ldosheva – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan (2021-yil 20-apreldagi 6-sonli bayonnoma).

© **M.B. Shodmonova.**

© **“Nodirabegim” nashriyoti, 2021.**

KIRISH

Jahon ta'limida barcha fanlar qatori ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. 1998-yil YuNESKO tomonidan Gamburgda o'tkazilgan Butunjahon konferensiyasida kattalar ta'limi XXI asrda «eshiklarni ochuvchi kalit» deb e'tirof etildi. Buyuk Britaniyada pedagog xodimlar malakasini oshirish maxsus o'quv dasturlariga tayanib trening shaklida, Germaniyada sirtqi, masofadan o'qitish tarzida, Litva va Latviyada amaliy seminar, kongresslar, masofadan o'qitishni ham o'z ichiga olgan maxsus trening kurslar tashkil etilgan.

Jahonda malaka oshirishning psixologik-andragogik omillarini rivojlantirish, o'qituvchilarda yangi bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirishga doir ilmiy nazariy ishlar olib borilmoqda. Ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirishda nutqiy kompetentlilik va ijodkorlikka ustuvorlik berish orqali o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga zaruriyat mavjud. Mazkur zaruratdan kelib chiqib, ona tili va adabiyot o'qituvchilarining malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablar hamda o'quv mazmuni buyurtmachilar ehtiyoji asosida takomillashtirilmoqda.

Respublikamizda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishning huquqiy-me'yoriy asoslari, moddiy-texnika bazasi, yangi ta'lim talablari xorijiy tajribalar asosida yaratildi. O'n bir yillik o'rta ta'limning joriy etilishi o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida ishlarni yangicha tashkil etishni talab qilmoqda. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da «uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ...yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ...umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish¹» yo'nalishi ustuvor vazifa etib belgilangan. Natijada ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiladigan texnologiyalarni

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

takomillashtirish va malaka oshirish jarayonida qo‘llash imkoniyatlari kengayadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947 Farmoni [6], 2017-yil 26-sentyabrdagi «Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3289 [10], 2017-yil

6-apreldagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining Davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 187-qarorlari [14] hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash zarurati mavjud.

Shuningdek, yurtboshimiz alohida qayd etgan: «Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir» [16; 45-b.]. Zotan, «Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas‘uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz...» [22; 130-b.].

O‘qituvchlar malakasini oshirish jarayonlarida tinglovchilarning kasbiy tayyorgarligini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalangan holda ularda zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish o‘ta muhimdir. Hozirda malaka oshirishning sifati bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur‘atda joriy etilishiga bog‘liq bo‘lmoqda.

Shunga muvofiq ta‘lim sohasi xodimlariga zarur shart-sharoitlar yaratish, ta‘lim mazmuni va sifatini takomillashtirish borasida qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta‘kidlaganlaridek, «...amalga oshirilayotgan islohotlarning zamirida, odamlar dunyoqarashining o‘zgarishida, buyuk davlat barpo etishdek oliyjanob orzumizning ro‘yobga chiqishida zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi» [21; 328-b.].

Yuqorida tilga olingan dasturlar hamda yangi ta‘lim standartlari talablarini bajarish jarayonida ta‘lim mazmuni yangilandi, milliy

ta'lim tizimi shakllandi. O'qituvchi professional kasb egasi sifatida endi oldingiday darsda mutloq hokim emas, o'quvchining katta yoshli hamkoriga aylandi. Bu esa, barcha sohalar isloh qilinayotgan bugungi kunda, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga ham yangiliklar kiritish, uni rivojlantirish hamda ta'lim jarayoniga o'zgacha yondashishni taqozo etmoqda. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayoni ham bundan mustasno emas.

Ma'lumki, ona tili o'qitishning maqsadi – o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'z g'alar fikrini anglaydigan — muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat bo'lsa, adabiyot o'qitishning bosh maqsadi – milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish; o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat [14]. Bu vazifalar ona tili va adabiyot o'qituvchisiga boshqa fan o'qituvchilari kabi yuksak iqtidor, ulkan salohiyat va mahoratga ega bo'lish talabini qo'yadi. O'quvchini bilim olishga qiziqtirish, barkamol shaxsga aylantirish uchun o'qituvchi o'z sohasining bilimdoni bo'lishi hamda zamon talablariga mos ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan qurollanishi zarur.

Ona tili va adabiy ta'lim mazmuni, sifati va samaradorligi bevosita ona tili va adabiyot o'qituvchilarining ham kasbiy, ham ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk tayyorlanganligiga bog'liq. Shu bois ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantiruvchi texnologiyalarni takomillashtirish va uni malaka oshirish tizimi amaliyotida qo'llash dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

I BOB. MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITUVCHILARI KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

1.1. Kasbiy tayyorgarlik va uni rivojlantirish tushunchalari talqini

Bugungi kunda kelib, fan va texnikaning jadal rivojlanishi natijasida yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash sohasida yangi sifat o‘zgarishlarini vujudga keltirish zaruriyati paydo bo‘ldi. Bu hol malaka oshirish ta’limini modernizatsiyalash, o‘qituvchilarning intellektual salohiyatni takomillashtirish masalasini yanada dolzarblashtirmoqda. Uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sanalmish malaka oshirish hududiy markazlari faoliyatini o‘rganish malaka oshirish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qancha vazifalar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Ijtimoiy hayotning turli sohalarida, xususan, xalq ta’limi tizimida faoliyat yuritayotgan ona tili va adabiyot mutaxassislari kasbiy bilimlarini mudom oshirib borishlari, sohadagi o‘zgarishlarni tez ilg‘ashlari, ular bilan yaqindan tanishish asosida bilimlarini boyitib borish davr talabidir. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, «Toki hayot davom etar ekan, ta’lim ham, tarbiya ham zamon o‘rtaga qo‘yayotgan yangi-yangi talablarga ko‘ra mustaqil ravishda o‘zgarib-yangilanib boraveradi» [18; 45-b.].

Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari kurs tinglovchilariga ona tili va adabiyot darslarini o‘tishda qo‘l keladigan bilimlarni beribgina qolmay, mustaqil izlanishga yo‘naltirilgan metodik yordam ko‘rsatish ham joizligi tobora ayonlashib bormoqda. Ona tili va adabiyot o‘qituvchisini metodik tayyorlash texnologiyasi jiddiy takomillashtirishga muhtoj. Ya’ni ta’lim tizimi, birinchi navbatda, zamon talablariga mos holda yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot o‘qituvchilari malakasini oshirishning hozirgi holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, malaka oshirishda o‘qituvchi saviyasi aniq hisobga olinmaydi, balki guruhdagi barcha tinglovchilarga o‘rtacha

umumlashgan holda yondashiladi. Kursdagi mashg'ulotlar o'qituvchiga ma'lum bilimlarini takrorlash va qisman yangi bilimlar berishdangina iborat. O'qituvchilar har 5 yilda kamida bir marta [9] malaka oshirishadi. Avvalgi kursda olgan bilimlarning besh yildan keyingina boyitilishi esa ta'lim beruvchini ham, ta'lim oluvchini ham qiynab qo'yadi. Chunki o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlamagan bo'ladi, ba'zi hollarda esa ular o'zlashtiriladigan zarur axborotlarga ega bo'lmaydilar. Bu muammoni hal qilish uchun ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonida ularning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirish darkor.

Zamonaviy sharoitda malaka oshirish sohaga doir yutuqlar va innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, shu asosda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirib, yangilashnigina nazarda tutmaydi. Ijtimoiy taraqqiyot, ta'lim islohoti o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni yangi metodologik asosda tashkil etish, eng avvalo, o'qituvchilarda takomillashishga *ichki ehtiyoj*, ya'ni kasbiy va ma'naviy qiziqishni *tashqi ta'sir* imkoniyatlari bilan o'zaro uyg'unlashtirish, insonning o'z-o'zini anglashi asosida tashkil etishni lozim, deb biladi [112; 5-b.].

Uzluksiz ta'lim tizimida yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash kabi serqirra vazifani faqat malakali o'qituvchi muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin. Pedagog qiyofasida barkamol shaxs va malakali mutaxassisga xos bo'lgan barcha sifatlar o'z aksini topa olishi zarur. Mazkur sifatning namoyon bo'lishi muayyan o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasiga egaligini ko'rsatadi [92; 26-b.].

Soha mutaxassislari fikriga ko'ra, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi o'z shaxsida mavjud imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish demakdir. Jumladan, J.Tolipova [123; 93-b.] tayyorgarlik inson faoliyatining shakli bo'lib, u umumiy faoliyat tizimining tarkibiga kirishi, ilmiy-metodik tayyorgarlik kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlab, «u talabalarning ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik tayyorgarligi, ijodiy va ijtimoiy faolligi, g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy yetukligi bilan uzviy bog'langan» degan fikrni ilgari suradi. Pedagog olim N.Muslimov [101; 40-45-b.] ijodkorlik kasbiy faoliyatni loyihalashga bo'lgan obyektiv ehtiyojdir, deb hisoblaydi. Olimning ta'kidlashicha,

o'qituvchi kasbiy tayyorgarlik jarayonini individual loyihalash kasbiy-pedagogik ta'limning yetakchi mezonini bo'lib qolgan. Professor o'z tadqiqotida o'qituvchi kasbiy shakllanishi natijasini anglatuvchi yangi tushuncha – «kasbiy-pedagogik o'ziga xoslik»ning yuzaga kelishi hamda rivojlanishi to'g'risida so'z yuritib, «rivojlanish» va «shakllanish» tushunchalari ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, e'tibor jarayonga emas, balki natijaga qaratilishini alohida ta'kidlaydi. Bizningcha, bu tushunchalar o'z mohiyati va ma'nosiga ko'ra biri ikkinchisini taqozo etuvchi kategoriyalardir.

O'qituvchi shaxsi unda mavjud qobiliyatga bog'liq tarzda rivojlanadi. M.G.Davletshin «Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi» nomli qo'llanmasida [52] o'qituvchi egallashi lozim bo'lgan **didaktik** (fanga qiziqtirish, aniq va oson anglatish, mustaqil fikrlashga o'rgatish); **akademik** (matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va shu kabi fanlarni bilish); **perseptiv** (o'quvchi ichki dunyosi, ruhiy holati kabi nozik jihatlarni tushunish); **nutq** (kechinmalarni nutq, yuz ifodasi (mimika) va pantomimika yordamida aniq ifodalash); **tashkilotchilik** (o'z ishini to'g'ri tashkil qilish va o'quvchilarni jiplashtirish); **avtoritar** (o'quvchilarga hissiy-irodaviy ta'sir o'tkazib, ular orasida obro' orttira bilish); **kommunikativ** (bolalarga to'g'ri yondashish, ular bilan pedagogik maqsadga mos muloqotga kirishish, me'yorni unutmaslik); **pedagogik mulohaza** (o'quvchini ta'limiy va tarbiyaviy shakllantirish borasidagi urinishlari natijasini bashorat qila olish); **diqqatni taqsimlay olish** (bir vaqtning o'zida diqqatni bir qancha faoliyatga qarata olish) kabi sakkiz xil qobiliyatini sanab o'tgan.

Tadqiqotchi N.V.Kuzmina [87; 16-b.] fikricha esa, pedagogik qobiliyat *prognostik* (bilimlarni o'zlashtirish); *proyektivlik* (faoliyatni rejalashtira olish); *tashkilotchilik* va *kommunikativlik* singari to'rt qismdan tarkib topgan.

Kasbiy malaka tushunchasi xususida soha mutaxassislari orasida tafovutli qarashlar mavjud. X.Abdukarimov [26; 46-b.] kasbiy malaka kasbiy-axloqiy; tashkilotchilik; tahlil va ijodkorlik malakasi ko'rinishida namoyon bo'ladi desa, G.Boymurodova [48] buning xatoligini, «malaka» tushunchasi ish-faoliyat yoki xatti-harakat mohiyatini bildirishini, bevosita shaxs xatti-harakatining ifodalanish darajasini ko'rsatishini, pedagogik atamalar tizimida «kasbiy-axloqiy

malaka» oʻrniga kasbiy axloqning yuqori darajasi boʻlgan «kasbiy madaniyat» yoki «kasbiy yetuklik» tushunchalari qoʻllanishini taʼkidlagan.

Biz bunday talqinlar bir yoqlama, degan fikrdamiz. Zotan, X.Abdukarimovning qarashlari kasbiy layoqatni toʻlaqonli aks ettirishga oiddir. Biror faoliyatni muntazam tashkil etish shaxsda muayyan koʻnikmalarni hosil qiladi. Koʻnikmalar faoliyatni izchil davom ettirish jarayonida malakalarga aylanadi. Shakllangan malaka esa shaxs faoliyatining tezkor, sifatli hamda samarali boʻlishini taʼminlaydi. Ishda samaradorlikka erishish kishini qanchalik qiziqтира, kasbiy faoliyatida shunchalik yuqori malakali boʻladi. Shu bois kasbiy malakaga ega boʻlish, nafaqat, ijtimoiy, balki shaxsiy ahamiyatga ham egadir. Avvalo, maxsus bilim, soʻng uzoq vaqt uzluksiz takrorlanadigan mashqlar orqali egallanadigan tajriba va koʻnikmalarni aql-idrok chigʻirigʻidan oʻtkazib, jamlashtirish *malaka* hisoblanadi.

Maʼlumki, taʼlim olish, shu jumladan, malaka oshirish, har bir soha mutaxassisi uchun tabiiy va ijtimoiy ehtiyojdir. Ehtiyojning paydo boʻlishi uchun inson boshqalardan orqada qolayotganini his etganda, ularga yetib olishga oʻzida kuch va imkoniyat topa bilishi zarur. Metodist olim Q.Yoʻldoshev bunga erishish uchun oldin «oʻqituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini ... aniqlash yuzasidan diagnostik maqsadlarda soʻrov oʻtkazish hamda ularni tahlil etish» [83; 13-b.] zarur, deb hisoblaydi.

Pedagogik atamalar lugʻati [53; 58-b.]da «Kasbiy tayyorgarlik – taʼlim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayon» deya taʼriflanadi.

Bizningcha, *kasbiy tayyorgarlik – taʼlim beruvchining muayyan pedagogik maqsadni amalga oshirishgacha boʻlgan mavjud ilmiy-metodik bilimlari, koʻnikmalarini amaliyotga tatbiq etishini nazarda tutadigan pedagogik jarayon*. Xususan, ona tili va adabiyot oʻqituvchilarining kasbiy tayyorgarligi uning filologik bilimlarga egaligi, badiiy ijodkorligi, nutqiy mahoratini namoyon etish shakli boʻlib, mashgʻulotni pedagogik jihatdan yuqori saviyada, belgilangan meʼyoriy talablar doirasida tashkil eta bilishidir.

Shu o'rinda «malaka oshirish» va «rivojlantirish» tushunchalari mohiyatiga alohida to'xtalib o'tish joiz. «Malaka – biror bir kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba, mahorat» [44; 533-b.]. Malaka oshirish – uzluksiz ta'lim tizimi turlaridan biri bo'lib, barcha sohada ishlovchi mutaxassislarning o'z kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishini nazarda tutadigan tushunchadir.

«Rivojlantirish» ko'proq miqdoriy xarakterga ega termin bo'lib, individning shaxsga xos yangi xususiyatlarni umri mobaynida muntazam egallab borish jarayonini aks ettiradi. Nutq boyishi, bilim ko'payishi, axloqiy normalarni o'zlashtira borish, o'zgarar munosabatlari bilan hisoblashishga odatlanish kabilar rivojlanishning belgilaridir. Fikrimizcha, ta'lim-tarbiya jarayonida miqdoriy jihatlarga qaraganda sifat ko'rsatkichlari ahamiyatliroqdir. Rivojlanish natijasida erishilgan ma'naviy sifatning qat'iylashib, shaxs xarakteriga aylanishi va uning ma'naviy qiyofasini belgilashi **shakllanish** tushunchasining mohiyatini aks ettiradi.

Inson tabiatida mavjud takomillashish, **rivojlanish**ga bo'lgan mayl oqar suvning xususiyatlariga ega. Suvga oqishni o'rgatish shart emas, uni boshqarish, oldi to'sib qo'yilishiga yo'l qo'ymaslik kifoya [83; 68-b.]. Zotan, insonga xos **rivojlanish** darajasi hamisha muhit bilan mutanosib tarzda kechadi. Shu bois ona tili va adabiyot o'qituvchisi ta'lim oluvchilar fikrlashining tashqi muhit bilan aloqasini aniqlashi va muvofiqlashtirishi, uning yo'nalishlarini boshqara bilishi kerak. Bunday tutum malaka oshirish tizimida ham samarali natija beradi.

«Rivojlanish» hamda «shakllanish» tushunchalariga qaytib, masalaning quyidagi qirralariga e'tibor qaratish kerak. Avvalo, lug'aviy ma'nosiga ko'ra, «*rivojlanish*» arab tilida bir holatdan ikkinchi yuqori holatga o'tish, o'sish, yuksalish, taraqqiyot, ravnaq [32; 584-b.; 33; 382-b.]ni; «*shakllanmoq*» aniq bir mazmun, yo'nalish kasb etmoq [33; 392]ni, «*shakllantirish*» insonda nasliy omil, muhit, yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya va shaxsiy faollik yordamida bilim, ko'nikma, malaka va fazilatlarini tarkib toptirish natijasini [53; 142-b.]ni anglatadi. Ko'rinadiki, *rivojlanish* inson tug'ilganidan umrining so'ngigacha davom etadigan uzluksiz jarayon, *shakllanish* esa tashqi va ichki omillar ta'sirida ma'lum faoliyatga yo'naltirilgan maqsadli

jarayon ekan. Bundan kelib chiqqan holda, ona tili va adabiyot o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligini ham shaxs umumiy rivojlanishining tarkibiy qismi va jarayoni doirasida ko'rib chiqishni lozim topdik.

Psixolog olim A.M.Jabborov [58; 167-b.] ijtimoiy fan o'qituvchilarida kirishimlilik va o'zini nazorat qilish o'qitiladigan predmet taqozosiga ko'ra yuqoriroq darajada bo'lishi, kasbiy tayyorgarlik pedagogik masalalar yechimigagina emas, balki o'qituvchi shaxsining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

Zotan, kasbiy faoliyat va maktabdagi ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi o'qituvchi mahorati bilan birga uning quyidagi fazilatlarga egaligiga bog'liq:

- kuchli tafakkur, teran ong, serqirra intellektual salohiyat egasi bo'lish, o'z mutaxassisligini sevish;
- e'tiqod, iymon, axloqi va odamlarga mehri bilan yoshlarga o'rnak bo'lish;
- o'z sohasini yaxshi ko'rishi, iste'dodga egaligi, tuyg'ularini boshqara olishi, o'zgalarni tushunishi va bolajon bo'lishi;
- tashqi ko'rinish, kiyinish, so'zlashuvda pedagogik odob va madaniyatdan og'ishmaslik;
- auditoriyani to'la nazorat qilish, bir xil mehr ko'rsatish va kuchli pedagogik mahoratli bo'lishi;
- nutqi boy, kinoya va kibr-havosiz so'zlashi;
- obro' orttira olish, ilmiy-ma'rifiy saviyasi va pedagogik mahorati bilan shogirdlariga o'rnak bo'lishi zarur.

Bugungi jamiyatda «...axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi so'nggi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, aholining kitobxonlik ko'nikmasini yanada yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini Internet tarmoqlariga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilish ishlariga alohida e'tibor qaratish» [162] zarurati ham mavjud. Ushbu vazifalar esa kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muassasalarida ham amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Jamiyatda butun kuch va e'tibor barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilayotgan bunday sharoitda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining ona tili adabiyot fani

asoslarini puxta o'zlashtirishlariga erishish ularda ma'naviyatli shaxsga xos mustaqil fikrlash va ezgu estetik his-tuyg'ularni shakllantiradi.

1.2. Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ilmiy-pedagogik muammo sifatida

Har bir inson qanday fikrlashi, qaysi sohani tanlashi yo til va adabiyotga qiziqishi bor-yo'qligidan qat'iy nazar, fikrlarni bayon etishni ona tili orqali, shaxsidagi ezgu ma'naviy sifatlarni adabiyot ta'sirida tarkib toptiradi. Shu sababli ham «...badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o'rni va ta'siri beqiyosdir», – degan fikr [17; 7-b.] ayni haqiqatdir. Ana shu beqiyos ta'sirni yuzaga keltiradigan o'qituvchilar malakasini qay yo'sinda samaraliroq tarzda oshirish yuzasidan olimlar ko'plab izlanishlar olib borishgan.

MDH olimlari Y.Polat, A.Andreyev, N.Naydenova, G.Levkin, I.Varganova, N.Valyushina, R.Pimonov, N.Gavrilov, I.Zadorojnyaya, S.Berejnaya, M.A.Malisheva, S.Bogdanova va xorij olimlari A.Amadco, I.Allen, J.Seaman, D.Keegan, H.Kappel, B.Lehmann, J.Loeper, B.Holmberg, M.Dougiamas, P.Taylorlar masofadan o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning nazariyasi va amaliyoti masalalari, uning didaktik va metodik asoslari, shuningdek, pedagog xodimlar malakasini oshirish tizimida masofadan o'qitish texnologiyalarini qo'llash muammolari, o'quv mazmunining variativligi masalalarini tadqiq etishgan.

V.V.Guzeyev, M.V.Klarin, Y.S.Polat, V.A.Slasteninlar 1980-yillarning oxirlariga kelib passiv va faol, balki interfaol modellarini ham ajratib ko'rsatishadi.

Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash masalalari L.Harvey, J.Goldberg, Bryan R.Cole, Ronald J.Fitzgerald, Jeffrey J.Burgard tomonidan tadqiq etilgan. A.Saltzman tomonidan ta'lim muassasalari rahbarlari kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

MDH davlatlaridan O.Osipova, V.Paramzina, Y.Polat, A.Shabanov, K.Sharifzyanova va xorijiy davlatlarda Z.Berge, J.Daniel va boshqalar tomonidan masofaviy o'qitish, pedagog kadrlarning

malakasini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

Shu bilan birga uzluksiz ta'limda pedagog kadrlar malakasini oshirishning nazariy, psixologik-pedagogik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, kasbiy tayyorgarlik tizimi, ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish masalalari, o'qituvchining mahorati, shaxsiy sifatlari MDHning V.Gorshkova, I.Podlasiy, A.Solojin kabi olimlari tomonidan o'rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan.

O'qituvchi kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish zamonaviy pedagogika fanida alohida e'tiborda turgan ilmiy muammodir. Shu bois bu yo'nalishda dunyo tarbiyashunoslik ilmida turlicha qarashlar bayon etilgan. Jumladan, L.M.Mitina va O.V.Kuzmenkova [97; 31-b.] singari rus olimlari o'qituvchilar kasbiy rivojlanishining pedagogik salohiyatdan tashqari, shaxsning ish faoliyatida o'z ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilishiday muhim omillari ham mavjudligini qayd etadilar. Ijodiy imkoniyatni namoyon qilish uchun esa shaxs fikrlash tarzi hamda ma'naviy dunyosini ezgu sifatlar bilan uzluksiz boyita olish xususiyatiga egaligi asosiy omil sanaladi. Mualliflar kasbiy o'zlikni anglash darajasining o'sishi kasbiy shakllanishga qulay sharoit yaratishi mumkinligini asoslab berishadi. O'qituvchining o'z ijodiy imkoniyatlarini kasbiy faoliyatiga tatbiq qila olishi uning mutaxassis sifatidagi rivojlanishi natijasi tarzida qabul qilinadi.

O'qituvchi faoliyatida muhim o'rin tutuvchi o'zini anglash tuyg'usi quyidagi bosqichlarda shakllanadi: *o'z shaxsiga e'tibor; o'ziga ishonch; o'zgalarga xayrixoh munosabat; o'z aybini ko'ra bilish* va *o'zini tutish*. Shu tarzda bino bo'lgan shaxsiy komillik o'qituvchini kasbiy kamolot, malaka sari yetaklaydi.

Shuningdek, rossiyalik olimlar masofadan o'qitish ham o'qituvchilar kasbiy ta'limini rivojlantirish shakllaridan biri bo'lib, bu jarayonda kompyuterlar va telekommunikatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'qitishning eng yaxshi an'anaviy va innovatsion usul, vosita va shakllaridan uyg'unlikda foydalanishi [99; 90-b.] kerakligini ta'kidlashadi.

D.Faber [155; 797-b.] esa ta'lim shaklining samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan 248ta ilmiy tadqiqot natijalarini tahlil etib, bu ishlar kompetentlikni o'zgartirish borasidagi talabga to'la javob berolmaydi va binobarin, masofadan o'qitish, ya'ni ta'lim

jarayonining sinf xonasidan ekranga ko'chirilishi interfaol texnologiyalarni qo'llashning samaradorligga to'la asos bo'la olmaydi, – degan xulosaga kelgan.

D.Karnevel [156; 60-b] ham masofadan o'qitish muammolariga bag'ishlangan «Teleta'lim – 99» anjumani ishlari natijalarini umumlashtirib o'qitishning an'anaviy va onlayn usullari elementlarini birlashtirish ta'lim oluvchilarni o'qitish sifatini oshirishga imkon berishini, ya'ni sof an'anaviy yoki sof onlayn usulda o'qitishga qaraganda aynan «aralash» ta'limning samarali ekanligini ta'kidlaydi.

Latviya Respublikasi [160] uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etish va amalga oshirish tartibi 2010-yil 24-martda Davlat Standartlashtirish Assotsiatsiyasining umumiy yig'ilishida tasdiqlangan. Uzluksiz malaka oshirish shakllari quyidagicha:

- assotsiatsiya tomonidan tashkil etiladigan amaliy seminar, yozgi amaliy seminar-treninglar va boshqa tadbirlar;

- ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlar, kongresslar;

- maxsus tashkil etilgan trening kurslar (masofadan o'qish va masofaviy kurslarni ham o'z ichiga oladi);

- rahbar va pedagog xodimlar har-yili kamida 30 (10 soat rasmiy; 20 soat norasmiy) soatlik uzluksiz malaka oshirish kursidan o'tgan bo'lishi zarur.

Ta'lim tizimi xodimlari assotsiatsiya a'zosi hisoblanadi va ular har-yili 31 yanvarga qadar faoliyati bo'yicha o'z hisobotlarini assotsiatsiyaga taqdim etishlari zarur.

Litva Respublikasi [160] fan va ta'lim vazirligi tomonidan norasmiy ta'lim turlarini taklif etuvchi 90ta litsenziyalik ta'lim muassasasi ro'yxatga olingan. Iqtisodiyot vazirligi tomonidan katta yoshdagilar va boshqa toifalar uchun o'z xizmatlarini taklif etgan 700ta muassasa ro'yxati mavjud. Shundan 63tasi davlat boshqaruvidagi kompaniyalar, 288tasi aksionerlik kompaniyalari, 271tasi yakka tartibdagi va 46 tasi chet el kompaniyalaridir.

Shuningdek, universitetlar qoshida kattalar malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'limlar ham faoliyat olib boradi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish uchun taklif qilinayotgan kurslar asosan pedagogika, psixologiya, maxsus va qo'shimcha ta'lim sohalarini qamrab oladi.

Buyuk Britaniya [160] ta'lim tizimi mutaxassis xodimlari uchun malaka oshirish ikki yo'nalishda olib boriladi: 1. Universitetda maxsus o'quv dasturlari asosida; 2. Maktabda trening mashg'ulotlari asosida. Angliyada ko'pchilik o'qituvchilar "Mutaxassis o'qituvchi" maqomiga ega. O'qituvchilik faoliyatini olib bormoqchi bo'lgan talaba Ingliz tili va matematikadan sinovdan o'tib, "Ta'lim berish uchun umumiy darajadagi" guvohnoma (diplom) olishlari zarur. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayanch o'quv rejadagi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlarni o'qitishga tayyorlanadi. Shuningdek, fan dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha ko'nikmaga ham ega bo'lishlari mumkin. Malaka oshirishdan o'tgan o'qituvchilarning barchasi davlat tomonidan qabul qilingan malaka talablariga javob berishi zarur. Malaka talablari Davlat Kotibiyati tomonidan ishlab chiqiladi va o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi. Oxirgisi 2015-yilda amaliyotga joriy etilgan.

Maktabda malaka oshirish trening dasturlari 2 turda amalga oshiriladi: to'lov asosida va maosh to'lanadigan shaklda. Angliyada davlat maktablarida uzluksiz malaka oshirish tizimi joriy etilgan. Malaka oshirish uzluksiz tarzda aksariyat maktablarda, davlat tomonidan qabul qilingan malaka talablari asosida o'qituvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil etiladi.

Malayziyada [160] ta'lim tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarni malakasini oshirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- 1) individual malaka oshirish – rahbar xodimlarning ta'limda yetakchilik va boshqaruv malakalarini rivojlantirish;
- 2) tashkiliy ishlar – ta'lim muassasasida sog'lom muhitni yaratish, hamkorlik dasturlarini takomillashtirish bo'yicha malaka oshirish;
- 3) master-trenerlarning malakasini oshirish;
- 4) ilmiy tadqiqot – ta'limda yetakchilik va boshqaruv yo'nalishida ilmiy ishlar olib borish malakalarini rivojlantirish;
- 5) ta'limni boshqaruvda axborot texnologiyalaridan foydalanish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish malakalarini yaxshilash;
- 6) ta'limda yetakchilik va boshqaruv bo'yicha bilimlarini shakllantirish va rivojlantirish.

Barcha yo'nalishlar bo'yicha davlat va malaka talablari Malayziya ta'lim vazirligi «O'qituvchilar ta'limi bo'limi» va Aminuddin Baki Instituti tomonidan ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan.

Rahbar xodimlar malakasini oshirish kursi 14 hafta. Bundan tashqari fan yo‘nalishlarida qisqa muddatli kurslar ham mavjud. Masalan: matematika va tabiiy fanlar yo‘nalishidagi malaka oshirish kurslari quyidagilarni o‘z ichiga oladi; mutaxassis o‘qituvchilar kursi – 1 yil, malaka oshirish kursi ehtiyojdan kelib chiqqan holda 14 haftagacha davom etadi.

Har bir yo‘nalishda tinglovchi kamida 133 soatlik kursni tugatishi zarur. Ushbu soatning 88 soati mutaxassislik blokiga ajratilgan va u 3ta modulni o‘z ichiga oladi: 1-48 soat – mutaxassilik fani; 2-16 soat – amaliy kurs; 3-24 soat – ta’limning asoslari yoki pedagogika.

Malayziyada malaka oshirish ta’lim dasturlari va o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan o‘qitish metodlarining samaradorligining tahliliy natijalari asosida tashkil etiladi. Bu malakatdagi 2011-yilda tashkil etilgan Davlat ta’limi baholash tizimi tomonidan o‘tkazilgan nazorat va sinov natijalari va xulosalariga ko‘ra amalga oshiriladi.

Hozirgi davrda o‘qituvchilar malakasini oshirish, ularga ko‘rsatiladigan metodik xizmatni yangicha tashkil qilish ta’lim tizimining amaliy ehtiyojini ta’minlovchi asosiy vositaga aylangan.

Al-Buxoriy [34], Abu Nasr Forobiy [130], Abu Rayhon Beruniy [66], Abu Ali ibn Sino [66], Yusuf Xos Hojib [143], Muslihiddin Sa’diy [66], Abdurahmon Jomiy [66], Alisher Navoiy [66], Jaloliddin Davoniy [66], Abdulla Avloniy [24] singari mutafakkirlarning asarlarida qadim davrlarda ham o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy sifatlariga qattiq talab qo‘yilgani aks etgan.

Zamonaviy o‘zbek pedagogika ilmida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ularning kasbiy mahoratlari yuqori darajada bo‘lishini ta’minlash borasidagi muammolar yechimi M.N.Nishanov [104], K.Z.Zaripov [63, 64], J.G‘.Yo‘ldoshev [70 – 77], R.Z.Zaynutdinov [62], A.X.Aminov [36], S.F.Rajabova [111], D.M.Sayfurov [114] hamda Sh.Q.Mardonov [89 – 91] kabi olimlar ishlarida berilgan. Malaka oshirish institutlaridagi kurslarda pedagoglar malakasini oshirishning o‘ziga xos jihatlarini esa A.Akmalov [31], T.Ummatqulov [128], R.Xalimmetova [131 – 133], X.Ya.Sharifbayeva [134], R.T.Yuldashev [139], M.A.Yuldashev [137], A.R.Aripdjanova [38], T.T.Shoymardonov [138], A.D.Asqarov [39], A.Y.Ibraymov [68] singari olim va tadqiqotchilar tekshirishgan. O‘qituvchi ma’naviyati masalalari E.Yusupov, F.Ismoilov [142],

J.Tulenov [126] asarlarida; zamonaviy o'qituvchi psixologiyasi va pedagogik faoliyatining motivatsiyasi muammolari L.M.Mitina [98], M.G.Davletshin [51], A.M.Jabborov [56, 57], D.N.Arziqulov [37] tadqiqotlarida yoritilgan.

V.P.Bespalko [45], M.Klarin [84], N.Sayidahmedov [112, 113], N.Azizxo'jayeva [29, 30], O'.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva [124], A.Aliyev [35], X.Abdukarimov [25, 26], A.A.Verbititskiy, T.A.Platonov [48], O.Q.Haydarova [152], N.V.Kuzmina [85, 86], S.M.Markova [92] yanglig' olimlarning ilmiy ishlarida esa ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyadan foydalanish, pedtexnologiyaning mohiyati, tamoyillari, o'qitish jarayonini loyihalashtirish, ta'lim maqsadlarini belgilash va maqsadning natijalanganligini o'rganish kabi masalalar yoritilgan.

N.A.Muslimov [100 – 103], B.S.Nuridinov [105] kasb ta'limi, J.O.Tolipova [121 – 123] biologiya, Z.A.Artiqboyeva [38] matematika, F.M.Tojiyeva [120] tasviriy san'at, M.T.Jumaniyozova [58] tarix fani, T.L.Hurvaliyeva [153] amaliyotchi-psixologlar va A.R.Meliboyev [95] ekologik ta'lim berish bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilari malakasini oshirish, kasbiy mahoratini shakllantirishning nazariy, tashkiliy, pedagogik va metodik qirralarini tekshirishgan.

R.Keldiyorov [83] o'qituvchining shaxsiy va ma'naviy fazilatlarini, G.Boymurodova [47] esa boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy-shaxsiy tayyorgarligini o'rgangan. Q.Yo'ldoshev [82], B.To'xliyev [127], S.Matchonov [93], M.Mirqosimova [96], Q.Husanboyeva [154], S.Yaminova [144], F.O.Egamberdiyeva [136], H.M.Suyunov [119], I.Rajabova [110], M.Sariboyeva [117] singari olimlar bevosita adabiyot o'qitish jarayonida o'qituvchining o'rni masalasini tahlilga tortib, bu jarayonni takomillashtirishga doir tavsiyalar berishgan.

Ona tili fanini o'qitish borasida umumta'lim maktablarida nutq hamda tafakkur o'stirish masalalariga A.G'ulomov, H.Ne'matov [150], M.Omilxonova [108], R.Safarova [118], A.Bobomurodova [46], M.Saidov [115], M.Qodirov [151], T.G'aniyev [148] kabi olimlarning ilmiy ishlarida to'xtalangan.

Malaka oshirish tizimi samardorligini oshirish yo'nalishida J.G'.Yo'ldoshev [71 – 78], K.Z.Zaripov [64], A.A.Akmalov [31],

A.X.Aminov [36], J.O.Tolipova [123], T.Ummatqulov [130], R.Xalimmetova [133 – 134], X.Ya.Sharifbayeva [136], R.T.Yuldashev [141], Sh.Q.Mardonov [90 – 92], O.Abduquddusov [28], N.N.Azizxo‘jayeva [29], F.M.Tojiyeva [122], M.A.Yuldashev [140], A.R.Aripdjanova [38], T.T.Shoymardonov [138], A.Asqarov [39], A.Ibraymov [68] va boshqa tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Pedagog xodimlar malakasini oshirish tizimini mazmunan yangilash, uni ilg‘or texnologiya va zamonaviy bilimlar bilan boyitish, o‘qituvchilar malakasini, kasbiy mahoratini oshirishning nazariy, tashkiliy-pedagogik jihatlari, bu jarayonni tashxis asosida tashkil etish kabi muammolar mazkur tadqiqotlarda tekshirilgan. Jumladan, B.Nuridinov [106; 96-b.] o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida o‘quv axborotlarini tahsil oluvchilarga yetkazishda monolog, dialog, polilog shakllaridan foydalanishga to‘xtalgan. Kasb ta‘limi o‘qituvchisida zarur bo‘lgan bilim, malaka va shaxsiy fazilatlar xususida fikr yuritgan.

Ma‘lumki, monologik shaklda berilayotgan axborot materiali muhokama qilinmaydi, ya‘ni ayni paytda ta‘lim jarayoni ishtirokchilari orasida qaytar aloqa – bog‘lanish ko‘zda tutilmaydi. Bizningcha, zamon talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish borasida olib borilayotgan sa‘y-harakatlar qatorida ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida ko‘proq *diologik* (ya‘ni malaka oshirish jarayonda ishtirok etayotgan o‘qituvchi bilan har bir tinglovchining o‘zaro fikr almashishi, ongli hamkorlik faoliyatini yuzaga keltirish, nazariya bilan amaliyotning aloqadorligini ta‘minlash, har bir shaxsning o‘z qarashini bayot etishiga imkon berish) va *polilogik* (o‘quv muammosini o‘qituvchi bilan tinglovchilar va barcha tinglovchilarning bir-birlari bilan o‘zaro muhokama etishi) shakllaridan foydalanish ishtirokchilarning ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi. Ta‘lim beruvchi muhokamaning tashkilotchisi, boshqaruvchisi va ekspert (baholovchisi)i rolini o‘taydi. Ayniqsa, polilog shakldan foydalanish muammoli xarakterdagi nazariy materialni tahlil qilishda, yangi g‘oyalarni ishlab chiqishda va muhim amaliy ahamiyatga ega masalalarni yechishda yaxshi samara beradi.

Tadqiqotchi M.N.Nishanov [105; 51-b.] pedagog xodimlarni ilmiy asoslangan joriy va istiqbol rejalarga muvofiq tabaqaviy yondashib o'qitish, kursgacha va kursdan keyingi tayyorgarlikda o'qituvchilarga amaliy, metodik yordam ko'rsatish, malaka oshirish ishlarini ilmiy jihatdan tashkil etish, har bir muammoning ilmiy va metodologik yechimini topishni bu sohada samaradorlikka erishishning asosiy yo'li sifatida ko'rsatadi.

Professor N.Sayidahmedov o'z tadqiqotida malaka oshirish tizimi tomonidan o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda gnostik, konstruktiv, loyihalash, tashkilotchilik va kommunikativ jihatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq ekanini ilgari surgan [114].

Taniqli olim J.Tolipova [123] ilmiy izlanishlarida biologiya o'qituvchisi ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini orttirish mazmuni va metodik tizimini ishlab chiqib, mazkur jarayonni tashkil etish, boshqarish va samaradorlikka erishish yo'llarini ilmiy-metodik jihatdan asoslab bergan.

O'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash masalasida ta'lim muassasalarining aniq ehtiyojlarini muntazam o'rganib borish zarur. Ayniqsa, keng miqyosda o'lchov va baholash mezonlarini ishlab chiqish, monitoring olib borish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muassasalari uchun hududiy rejalarni tuzish, ularni samarali amalga oshirish o'ta zarur yumushlar hisoblanadi.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslari uchun o'quv-mavzu reja tuzish va dastur ishlab chiqishda tinglovchilarda pedagogik, psixologik, metodik bilim hamda tegishli adabiyotlarni chuqur o'zlashtirish bilan birga, o'quvchilarga ta'lim berish, ularning aqliy salohiyatlarini o'stirish yo'llarini shakllantirish ham ko'zda tutilishi kerak. Ayniqsa, «buyurtmachilar ehtiyoji» bu borada amaliy faoliyatning yetakchi mezonini hisoblanadi.

Ushbu talablarga to'la rioya qilinishiga erishish uchun mavjud shart-sharoit tahlil qilinganda, malaka oshirish tizimiga nisbatan tizimli yondashuv zarurligi ayonlashadi. K.Z.Zaripov [65; 81-b.] o'z ilmiy tadqiqotida mazkur tizimga kiruvchi tarkibiy qismlarning eng muhim xususiyatlari, ular bajaradigan vazifalarni aniq belgilab berishga uringan.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimining tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) o'qituvchilar malakasini oshirishning maqsad va vazifalari;
- 2) malaka oshirish mazmuni;
- 3) tinglovchilar nufuzi;
- 4) malaka oshirish tizimining moddiy-texnika negizi (binolar, ularning jihozlari, o'quv qurollari, vositalari, shart-sharoitlari);
- 5) tizimning mablag' bilan ta'minlanishi;
- 6) malaka oshirishni tashkil etuvchi shaxslar (kabinet mudirlari, metodistlar, professor-o'qituvchilar);
- 7) malaka oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, uni tashkil etish va boshqarish;
- 8) tizimni takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar.

Tizimdagi har bir komponent vazifa, mazmun va mohiyatiga ko'ra o'zaro munosabatga kirishib, umumiy jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Respublika uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan tashkilotchi olim J.G'.Yo'ldoshev malaka oshirish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi shartlarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaydi [73; 62-b.]:

– malaka oshirish tizimining xalqchilligini ta'minlash, insonparvarlashtirish;

– asosiy va qo'shimcha ta'lim o'rtasida o'zaro vorislikni, uning tafovut va xususiyatlarini hisobga olish;

– uyushtirilgan va mustaqil ta'lim o'zaro bog'lanishining uzviyligi;

– pedagoglarning real ehtiyojlarini o'rganish va ular talablarini qondirish;

– o'qituvchi malakasini uzluksiz oshirishning ijtimoiy asoslanganligi va uning subyektiv imkoniyatlarini o'zaro bog'lashga erishish;

– kasbiy faoliyatning turli bosqichlarida o'qituvchilar malakasini oshirishni tabaqalashtirish va shaxsiylashtirish, o'qitish mazmuni, shakllari, usullari, muddatlari, malaka oshirish sur'atlarini belgilashda variativlikni ta'minlash;

– malaka va attestatsiya natijasining moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bilan bog'liqligi;

- malaka oshirishni tashkil etishning statsionar uzluksiz va masofiy shakllarini birga qo‘shib olib borish;
- malaka oshirishda bosqichma-bosqichlik tamoyiliga amal qilish.

Ko‘rinib turibdiki, malaka oshirish tizimida tinglovchilarning shaxsiy mas’ulligini oshirish bosh va asosiy masaladir.

Ixtisoslik fanlarining nazariy asoslarini chuqur o‘zlashtirgan, yuqori darajadagi kasbiy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lgan, yuksak ma‘naviy-axloqiy sifatlarni o‘zida mujassam etgan, yangilangan Davlat ta‘lim standartlari va modernizatsiya qilingan, optimallashtirilgan, uzviylashtirilgan o‘quv dasturlari va darsliklar bilan tanishib, ularni ta‘lim jarayoniga o‘z vaqtida tatbiq etadigan o‘qituvchilar milliy ta‘lim tizimimiz rivojlanishining asoschilari hisoblanadi. Zero, o‘z vaqtida targ‘ib etilmagan yangilik eskilikka aylanadi. Malaka oshirish tizimida zamonaviy ta‘limning o‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchilar hamkorligiga asoslanishi, o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olish imkoniga ega bo‘lishini nazarda tutish muhim sanaladi. Bunday natijaga ta‘lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ega bo‘lish mumkin.

Ta‘lim jarayonini yangicha – texnologik yondashuv asosida tashkil etish uchun esa, avvalo, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini hisobga olish, malaka oshirish tizimini takomillashtirish, izchillikka alohida e‘tibor qaratish zarur. Shuningdek, *«...bo‘lg‘usi o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatiga didaktik jihatdan qayta ishlov bera olishi va uni tahlil qila bilishi; ... natijalarni boshqara olishi va ularga baho bera bilishi; mavjud pedagogik hodisalarni, shuningdek, professional ta‘limning ijobiy xorij tajribasini tahlil qila olishi darkor. Psixologik-pedagogik fanlar tarkibi va mazmuniga bo‘lajak pedagogning innovatsion imkoniyatlarini kengaytiruvchi tadqiqotchilik pedagogik faoliyatining metodologik bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish vazifalari singdirilgan bo‘lmog‘i lozim»* [136; 4-b.].

Pedagog kadrlar malakasini oshirish samimiy, norasmiy, o‘zaro ishonch va hamkorlikka asoslanishi, tinglovchi va ta‘lim beruvchi umumiy javobgar bo‘lishi, qiziqishlar uyg‘un kechishi; malaka oshiruvchilar e‘tibori guruhlarda ishlash, rolli o‘yinlar, debat, loyihali,

modulli ta'lim, ta'lim beruvchi yoki ishtirokchining o'zini-o'zi baholashi va shu kabilarga qaratilishi lozim.

Aynan malaka oshirish tufayli o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligi yuksaladi, o'z ishiga boshqacha nazar bilan yondashib, yangiliklar qilishga, o'qitish samaradorligini oshirishga intiladi. Shu kabi kasbiy tayyorgarligi yuqori bo'lgan ona tili va adabiyot o'qituvchisi darsni yangicha yondashuv asosida tashkil etish uchun o'quv maqsadini aniq belgilashi va darsdan ko'zlangan natijaning kafolatlanishiga erishishi kerakligini biladi. Bunday yaxshi natijaga erishish uchun «*Malaka oshirish kurslarida tinglovchiga o'zining faoliyatiga o'xshash, ya'ni men birovni o'qitaman, u meni eshitadi va men jarayonni boshqaraman, munosabati hukm surgan sharoitlar vujudga keltirilsa, u malaka oshirish jarayonining passiv tinglovchisi bo'lib qoladi va har gal yangilikka duch kelganida shu yangilik oldida noqulaylik his qiladi. Aksincha, malaka oshirish kursida tinglovchini faollikka undovchi, uning har bir fikrini qadrlovchi sharoit yaratilsa va unga tajribalarni tahlil qilish, keragini ommalashtirish imkoniyatlari berilsa, u faol va yangilikni tanqidiy o'rganish asosida qabul qiluvchi ishtirokchiga aylanadi*» [156].

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining yana bir dolzarb muammosi uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan, ko'p-yillik ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilarning raqobatbardoshligini orttirish sanaladi [121; 31-37-b.]. Buning uchun umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy pedagogik ta'lim bilan xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi o'rtasidagi uzviylik-uzluksizlikni ta'minlashga e'tibor qaratish zarur.

Kadrlar malakasini oshirishda o'qituvchining pedagogik faoliyati samaradorligini oshirish oldidagi vazifalarni aniqlashtirib olish zarur. Bular: tiklash, to'ldirish, yangilash va bashorat qilish funksiyalaridan iboratdir [31; 21-b.].

Tiklovchi funksiya o'qituvchi tomonidan oliy o'quv yurtlarida o'zlashtirilgan, biroq keyinchalik qisman unutilgan yoki faoliyat davomida foydalanilmagan nazariy va amaliy ahamiyatga ega zarur axborotlarni o'qituvchining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishiga moslab tiklashni ko'zda tutadi.

To'ldiruvchi funksiya o'qituvchi faoliyatida asqotadigan, biroq obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra oliy o'quv yurtlarida o'rganilmay qolgan yangi axborotlar tizimini shakllantirishni anglatadi.

Yangilovchi funksiya xususiy metodika, ilg'or tajriba yutuqlari asosida vujudga kelgan barcha yangi axborotlarni o'rgatilish orqali tinglovchidagi bilim va ko'nikmalar yangilanadi.

Bashoratlovchi funksiya fanga tegishli hodisa va uning asosiy jarayonlarini modellashtirish, qonun va xususiyatlarni tahlil qilish, hodisalarning kechish muddati va miqdorini oldindan aytish imkonini beradigan axborotlarni to'plash asosida o'z faoliyatini tashkil etishni ko'zda tutadi.

Malaka oshirish tizimi ushbu jarayonning mustahkam va tizimli tashkiliy-pedagogik asoslarga ega bo'lishini taqozo etadi. O'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha istiqbol reja tuzish va shu asosda muassasa faoliyatini yangi yo'nalishda tashkil etish, tayaniladigan o'quv dasturlarini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar va ilg'or pedagogik tajribalar hamda tinglovchilarning talab, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yangilash, malaka oshirish muassasalari professor-o'qituvchilarining malakasini oshirishni ta'minlash, o'quv jarayonini muayyan texnologiyalar yordamida tashkil etish, samarali didaktik usullar vositasida tinglovchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish kabilar shu jumlagi kiradi.

A.Gulboyevning olib brogan izlanishi natijasida [50; 45-b.] pedagogik tashxisning mazmuni, turlari va o'qituvchilar malaka oshirish tizimidagi o'rni, o'qituvchining o'z faoliyatini tashxislash shakllari va metodikalari o'qituvchilarning o'z faoliyatini tashxislashlari asosida malaka oshirish jarayonini tabaqalashtirish, o'qituvchi faoliyatidagi qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf qilishda pedagogik tashxisning o'rni, o'qituvchilar malakasini oshirish sifati va me'yorlarini aniqlash metodikasi xususida fikrlar bayon etilgan.

Pedagogik tashxis bir qadar tor, ya'ni o'qituvchilar malakasini oshirish jarayoniga nisbatan olinadigan bo'lsa, *bu jarayonni individuallashtirish, ya'ni aniq bir pedagog ehtiyojiga moslashtirish, undagi pedagogik mahoratning zamon talabiga javob berishi, uning*

ma'lum o'lchovlarini belgilab, malaka oshirish jarayonini xato va kamchiliklardan xalos qilish, kurs tinglovchilari tarkibini belgilashda bir xil bilim, mahoratga ega bo'lganlar uchun ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl va metodlarini tanlashga erishish instrumenti sifatida qarash mumkin.

Pedagogik tashxisga xos xususiyat – malaka oshirish jarayonining har bir bosqichi va bo'g'ini hamda tinglovchilarning o'ziga xos xususiyatlari, individual farqlarini aniqlashdan iborat. Bunda har bir aniq jarayon uchun xos xususiyatlar, ularning mezonlarini aniqlash alohida yoki bir guruh kishilar uchun umumiy bo'lishi ham mumkin.

T.Shoyardonov [138] izlanishlarida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ularning kasbiy faoliyati monitoringini olib borishning elektron metodik tizimi ishlab chiqilib, nazariy asoslangan hamda amaliyotga tatbiq etilgan.

A.Aripdjanova [38] ishida ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kreativ salohiyatini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi takomillashtirilgan.

A.Asqarov [39] tadqiqotida xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan bo'lsa, A.Ibraymov [68] ishi umumta'lim maktablari fizika o'qituvchilari masofaviy malaka oshirishlarining ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Yuqorida tilga olingan ishlarning birortasida ham ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini malaka oshirish jarayonida rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish muammosi alohida tadqiq etilmagan.

Ona tili fanini o'qitish bo'yicha Sh.Yusupova [144], N.Qosimova [149], A.Bobomurodova [47] singari metodist olimlarning tadqiqotlarida ona tili ta'limini yo'lga qo'yishning metod va usullari, bu jarayonida so'z ma'nodoshlari ustida ishlashning metodik zaruriyati, so'z ma'nodoshlari ustida ishlashdan ko'zlanadigan so'nggi natija o'quvchini matn yaratishga o'rgatish ekanligi, ona tilidan tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari va unga qo'yiladigan asosiy talablar, «Fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya», «Leksikologiya», «Morfologiya», «Sintaksis» bo'limida tashkil etiladigan didaktik o'yinlar o'z aksini topgan.

Q.Yo‘ldoshev [83], B.To‘xliev [129], S.Matchonov [94], M.Mirqosimova [97], Q.Husanboyeva [157], S.Yaminova [147] va boshqa metodist olimlarning tadqiqotlarida adabiyot darslarini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, ularga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, adabiyot darslarida o‘quvchilar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va uni faollashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, dars samaradorligini oshirish, adabiyot darslarining ma‘naviy, ma‘rifiy, tarbiyaviy, estetik jihatlari, badiiy asarni tahlil qilishda adabiyot darslarining o‘rni va ahamiyati, bunda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil etishning yo‘l va usullari haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan. Mazkur tadqiqotlar nazariy jihatdangina emas, amaliy jihatdan ham o‘qituvchilarimiz uchun dasturilamal bo‘la oladi.

Olim R.Keldiyorovning tadqiqotida [84] adabiy ta‘lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchining roli hamda uning kasbiy mahorati muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida urg‘u berilgan holda mazkur muammoning nazariy va ilmiy-metodik jihatdan asoslanishi ta‘minlangan. Ishda 120 nafar o‘qituvchidan faqat 12 nafarining bugungi kun talabidagi kasbiy faoliyat ko‘nikmalariga egaliklari, 35% o‘qituvchi esa hozirgi davr talablari darajasida ish olib borolmasligi aytib o‘tilgan.

Ona tili va adabiyot o‘qituvchisi faoliyatining muhim qirrasida badiiy ijrochilik, nutqiy mahorat, badiiy o‘qish mahorati, tahlil qilish mahorati alohida ajratib ko‘rsatiladi. Tadqiqotchi adabiyot darslarining muvaffaqiyati o‘qituvchining tayyorgarligi, bilim saviyasigagina emas, uning dars jarayonini tashkil qilishga ijodiy munosabatda bo‘lishga ham bog‘liqligi ta‘kidlanadi. Ushbu tadqiqotning bizning ishimizdan asosiy farqli tomoni shundaki, unda adabiy ta‘lim samaradorligini oshiruvchi omillardan biri bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy, ma‘naviy va kasbiy sifatleri tadqiq etilgan. Ammo ona tili va adabiyot o‘qituvchisi uchun zarur bo‘lgan bu sifatlarni rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlikni oshirish uchun malaka oshirish tizimida qanday ishlarni amalga oshirish kerakligi haqida fikrlar bildirilmagan.

Malumki, malaka oshirish jarayoni androgogik yondashuvni talab etadi. Andragogika – katta yoshdagilarni o‘qitish san‘ati. Bu – katta yoshdagilarning o‘qish, o‘rganish jarayonidagi o‘ziga xosliklari,

kasbiy ehtiyoj va kiziqishlari, ta'lim berishga tayyorligi, bilim, ko'nikma, malaka darajasi, dunyoqarashlari, hayotiy tajribalarini hisobga olgan holda ularning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning ilmiy, nazariy, metodik masalalarini o'rganuvchi fan. Unda tinglovchilar – shu ta'lim jarayonining iste'molchilari hisoblanadi. Ular kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida ta'lim olayotgan katta yoshdagi mutaxassislardir. Ta'lim berish jarayonida tinglovchi bilan hamkorlikda faoliyat olib borilganida androgogikaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ular kasbiy tayyorgarliklarini rivojlantirishning turli yo'llari va usullaridan foydalanish zarur.

Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining malakasini oshirish mavjud o'quv-mavzu reja va dasturlar asosida amalga oshirilsa-da, ta'lim mazmuni bevosita ta'lim beruvchida ham, ta'lim oluvchida ham qobiliyat, kuzatish, ijodkorlik, mustaqil ta'lim olish, notiqlik, obyektiv voqelikka munosabat bildirish, taqqoslash, qiyoslash va natijalarni to'g'ri tahlil etish kabi omillar bo'lishini talab etadi.

Shuningdek, malaka oshirish tizimi ona tili va adabiyot o'qituvchisida badiiy asarni o'rganish, adabiyot tarixi va nazariyasidan bilim berish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash, ularda nutq madaniyatini tarkib toptirish, sharhlab o'qitish, tahlil, hayotiy voqealarga daxldorlik va asoslanganlik kabi masalalarni hal etishning muqobil, maqbul usullarini tanlash va qo'llash mahoratini shakllantirishi zarur.

O'qituvchining asarni ifodali o'qishi muhim ahamiyat kasb etishi M.Mirqosimovanning ilmiy tadqiqotida ham alohida ta'kidlanadi [97; 59-b.].

Ona tili va adabiyot o'qituvchisiga qo'yilgan talablar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida adabiyot o'qitish holatiga ham o'zgacha nazar tashlash ehtiyojini uyg'otadi. Metodist olim Q.Yo'ldoshevning tadqiqotida umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot o'qitish tamoyillari, adabiyot o'qitishni tubdan yangilash zaruriyatini keltirib chiqargan ijtimoiy, ilmiy va pedagogik omillar batafsil ko'rsatib berilgan. Olim adabiy ta'limni amalga oshirish jarayonining ilmiy-nazariy, estetik, pedagogik va amaliy-metodik asoslarini tizim holiga keltirgan va ulardan amaliyotda foydalanish yo'llarini ko'rsatgan. Albatta, har bir fan, xususan, ona tili va adabiyot fanining mazmuni

ham zamonaviy talablar asosida boyitilib, yangilanib, takomillashtirib borilishi, «*maktab adabiyotini tamomila yangicha yo‘nalishga solib yuborish imkoniyatini beradigan omillardan yana biri maktab o‘qituvchilari*» [83; 81-b.] ekanligi mudom yodda tutilishi lozim.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘qituvchilari faoliyatini kuzatish asnosida o‘quvchilarning mavzularni samarali o‘zlashtirishlarida savol-topshiriqlar ahamiyati katta ekanligi ma‘lum bo‘ldi [121]. Ma‘lum mavzular yuzasidan berilgan savol-topshiriqlar nazariy va metodik jihatdan chuqur tahlil etilganida savolga javob berishdan ko‘ra savol tuzish murakkabligi, u savol beruvchidan kuchli tafakkur, ulkan iqtidor va salohiyat, tashabbuskorlik, jur‘atlilik, chuqur nazariy bilim talab qilishini e‘tirof etish zarur.

Q.P.Husanboyevaning obyektimizga oid ishida [157] adabiy ta‘limda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish yo‘llari nazariy jihatdan asoslanib, bugunning zaruriy talabiga aylangan – ma‘naviy barkamol insonni shakllantirishda mustaqil fikrlashning o‘rni va ahamiyatini belgilashga yo‘naltirilgan. Tadqiqotda muammo yechimini topishga urinish jarayonida turli metod va vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqligi ta‘kidlanib, bu o‘rinda o‘qituvchiga katta mas‘uliyat yuklanishi aytiladi. Tadqiqotda o‘qitish samaradorligiga erishishda o‘qituvchining o‘rni katta ekani ko‘rsatilib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga nisbatan zamonaviy yondashuvning mohiyati ochib berilgan.

Ish jarayonida inson aqliy faoliyatining nechog‘li mustaqilligini kuzatish hamda uni rivojlantirish maktab va o‘qituvchining asosiy vazifasi ekanligi, buning uchun pedagogdan ta‘lim jarayonining har bir bosqichida har bir o‘quvchining shaxsi, intellektual imkoniyatlari, intilish va qiziqishlarini bilish talab qilinishi, bola adabiy qahramonlarni o‘zgacha qabul qilish kabi individual xususiyatlarga ega bo‘lishini bilish adabiyot o‘qituvchisi ish faoliyatida katta ahamiyat kasb etishi ta‘kidlangan [157; 24-b.]. Bizningcha ham shunday, chunki o‘qituvchi badiiy asar matni ustida ishlash metodini belgilashda aynan yuqoridagi jihatlarga tayanishi zarur.

Ijodiy va texnologik yondashuv asosida ona tili va adabiyot darsi samaradorligiga erishish uchun amalga oshiriladigan harakatlarning bosh ijrochisi o‘qituvchi bo‘lgach, ularda, albatta, ona tili va adabiyot

darslarini tashkil etishda noan'anaviy shakl, metod, vositalardan foydalanish ko'nikma va malakasini hosil qilish zarur. Zero, ona tili va adabiy ta'lim samaradorligi asosan ona tili va adabiyot o'qituvchisining nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallaganligiga bog'liqdir. Buning uchun ona tili va adabiyot o'qituvchisining malakasini oshirish uzluksiz tus olishi lozim.

Prof. B.To'xliyev [129] adabiyot darslarida o'qituvchi shaxsining mavqei alohida o'rin tutishi, aynan mana shu shaxs darsning maqsad va vazifalarini, adabiy materialni tanlash, qaysi mavzularni o'tishda qanday metod va shakllardan foydalanishni belgilashi, dars jarayonining tashkil etilishini boshqarib borishini ko'rsatib o'tadi. Biz ham ona tili va adabiyot o'qituvchisi o'rganilayotgan asar muallifi bilan o'quvchi orasida bog'lovchi, badiiy matn g'oyasini idrok etish yo'lini ko'rsatuvchi adabiyotshunos ham ekanligini ta'kidlaymiz. Ularga bu borada malaka oshirish jarayonida beriladigan ta'limning didaktik va tashkiliy jihatdan to'g'ri uyushtirilishi kasbiy mahorat samaradorligini ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

Tadqiqot mavzusiga oid turdosh muammolar bo'yicha olib borilgan keng tarmoqli ilmiy ishlar bilan tanishish, hududiy markazlar faoliyatini bevosita o'rganish, malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning mavjud holatini atroflicha tahlil etish natijasida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Ona tili va adabiyot fanlari o'quvchilarni savodxon qilish, ularni o'rganilayotgan asar g'oyasi asosida tarbiyalash, bolalarga tayyor xulosalarni singdirishga qaratilmasligi, balki ona tili va badiiy adabiyot vositasida mustaqil fikrli, har bir sohada o'z qarashlariga ega g'ururli va savodli shaxslarni shakllantirishdan iborat. Bu sharoitda o'qituvchidan katta kasbiy mahorat talab etiladi. Malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarliklarini rivojlantirish, bu jarayonning umumiy mohiyatini aks ettiruvchi texnologiyalarni tizimlashtirish lozim.

2. Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimidagi ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablarini to'la o'zlashtirishlari o'qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka egaligidan darak beradi. Malaka oshirish kursiga kelgan ona tili va adabiyot o'qituvchilariga yangi pedagogik

texnologiyalarni chuqur o'rgatish, ularda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, ularni takomillashtirib, malakaga aylanishini ta'minlash darkor. Shunda o'qituvchilar faoliyati samarali kechadi.

3. Malaka oshirish muassasalarida tashkil etiladigan o'quv-tarbiya jarayonining takomillashtirilishiga qaratilayotgan ijtimoiy e'tibordan ona tili va adabiyot o'qituvchilarining ham kasbiy tayyorgarliklarini rivojlantirish maqsadida foydalanish zarur.

Malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarliklarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun quyidagi shartlarga rioya etish kerak:

- Malaka oshirish instituti faoliyatini tashkil etishdan ko'zlangan umumiy maqsad negizida xususiy maqsadlarning to'g'ri belgilanishi;

- o'quv hamda tarbiya jarayonlarining uzviyligi va o'zaro aloqadorligiga erishish;

- malaka oshirishni yo'lga qo'yishda mavjud obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarni inobatga olish;

- ona tili va adabiyot o'qituvchilari shaxsida namoyon bo'lishi zarur sanalgan sifatlar bilan birga kasbiy tayyorgarlik ko'lami va ularning mohiyatini aniqlash;

- tayanch tushunchalarni nazariy jihatdan sharhlash;

- malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini tizimlashtirish.

Malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarliklarini rivojlantirish kelgusida ular tomonidan tashkil etiladigan pedagogik jarayon samaradorligini kafolatlaydi. Unda ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligining mavjud holatini o'rganish, tahlil etish, kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarining asoslarini ishlab chiqish, ularning samaradorligini tajriba-sinov ishlari vositasida aniqlash kabi vazifalar hal etiladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini pedagogik-psixologik, metodik xususiyatlarni hisobga olgan holda belgilab berish maqsadga muvofiq.

2. Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining o'z ustida muntazam ishlashlari va kasbiy malakalarini ijtimoiy-pedagogik, metodik talablarga muvofiq doimiy ravishda oshirib borishlarida malaka oshirish tizimi alohida o'rin tutadi.

3. Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida professor-o'qituvchilar tinglovchilarda kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish; o'quv-tarbiya jarayonini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda tashkil etish va mazkur jarayonning sifati va samaradorligini muntazam nazorat qilishga e'tibor qaratishi zarur.

4. Tinglovchilarda kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim jarayonida ona tili va adabiyot fanlaridan mashg'ulot olib boradigan o'qituvchilarning o'quv maqsadlariga erishishlarini ta'minlash uchun pedagogik hamkorlikka keng yo'l ochish zarur. Bunda umumiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi vazifalarni hal qilish ustuvor ahamiyatga ega. Bunday umumiy vazifalar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) tinglovchilarning ijodkorligi, notiqligi, mantiqiy tafakkuri, ma'naviy bilimdonligi, dunyoqarashi, qobiliyatlari, shaxs sifatida shakllanishining o'ziga xosligini tashxislash;

b) Professor-o'qituvchilarni tinglovchilar kasbiy tayyorgarligining rivojlanishi va shaxsga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga qaratilgan o'z faoliyatlarini tahlil qilib, takomillashtirib borishga odatlantirish kabilar.

5. Professor-o'qituvchilarni tinglovchi-o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion texnologiyalar bilan qurollantirish maqsadida muayyan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Ular:

a) professor-o'qituvchilarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarini tahlil qilish asosida ularda tinglovchilar kasbiy mahoratini oshirishga doir bilimlar qay darajada shakllanganligini aniqlash;

b) professor-o'qituvchilarning tinglovchilarda kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan ta'lim vositalarini o'z faoliyatlarida tanlay va qo'llay olishlari;

d) professor-o'qituvchilar aniq dalillar, manbalar, bilimlar va huquqiy me'yorlarga tayangan holda tinglovchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish sohasidagi faoliyatlarini takomillashtirish yo'llarini ko'rsata olishlari kabilar.

6. Tinglovchilarda kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

a) professor-o'qituvchilar mashg'ulotlar mavzulari va o'quv materiallari mazmunini boyitishlari, ularni ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishga yo'naltirishlari;

b) shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida tinglovchilarning muvaffaqiyatlarga erishishlari uchun qulay vaziyatlar yarata olishlari, o'quv materiallarini o'zlashtirishlarida ularga ko'maklashishlari, qo'llab-quvvatlashlari;

v) ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonida professor-o'qituvchilar o'quv materiallarini tinglovchilarning shaxsiy-ijtimoiy tajribalari, dunyoqarashlari, mavjud bilimlari bilan uyg'unlashtirgan holda taqdim eta olishlari lozim.

II BOB. MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITUVCHILARI KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

2.1. Ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni

Milliy ta’lim tizimidagi mavjud kamchiliklar, kelajak avlod tarbiyasida bo‘shliqlar paydo qilayotgan qusurlar ona tili va adabiyot o‘qituvchisi faoliyatiga ham bevosita bog‘liq. Muallimlar kasbiy tayyorgarlik darajasining pastligi ona tili va adabiyot fanini o‘qitishdagi eng og‘riqli nuqta hisoblanadi. Fan o‘qituvchilarining ko‘pchiligida nimani qanday o‘qitish kerakligi to‘g‘risida yetarli tushuncha mavjud emas. Bu ularning darsni to‘g‘ri tashkil qila olmasliklariga olib keladi. Ona tili va adabiyot o‘qituvchilari o‘z fanlari o‘qitilishining o‘ziga xos jihatlarini intuitiv tarzda bilishadi. Ular bu jarayonni ilmiy asoslarda to‘liq o‘rganishmagan. Shuning uchun ham fanlarni o‘qitishga qo‘yilgan maqsad amalga oshmay, kutilayotgan natija yuzaga chiqmay qolayotir.

Aslida ona tili va adabiyot o‘qitish ilmi alohida yo‘nalish sifatida paydo bo‘lmasidan ilgariroq muallimining pedagogik, ruhiy, kasbiy tayyorlik darajasiga juda jiddiy e’tibor berilgan. Bobolarimiz farzandiga dars o‘tadigan domlani obdon surishtirib, so‘ng qaror qabul qilishgan. O‘sha damdayoq ona tilining savod o‘rgatish bilan bog‘liq, adabiyotning millat ma’naviyati, demakki, buguni va kelajagini tarbiyalashdek vazifasi ayon bo‘lgan. Bugunga kelib, bu e’tibor birmuncha susaygani ayrim ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining aynan o‘qitish metodikasidan bexabarligi, o‘quvchini darsga qiziqtirish, ortidan ergashtirish malakasiga ega emasligida namoyon bo‘lyapti.

Mazkur masalada ona tili va adabiyot o‘quv fanlarining har biri o‘z maqsad va vazifasiga egaligini inobatga olib, bir-biriga bog‘liq, ammo alohida yo‘nalish sifatida yoritishga harakat qildik.

Hayotda bo‘layotgan o‘zgarishlar, narsa va hodisalarning mohiyati til orqali ifodalanadi va *anglanadi*. Ma’lumki, keyingi-yillarda ona tilini o‘qitishda o‘quvchilarni faollashtirish hamda ular

tafakkurini rivojlantirish masalalariga nazariy jihatdan e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, uning amaliyotga tatbiqi, xususan, maktab ona tili darslaridagi samarasi sezilarli bo'lmayotir. Ayniqsa, maktabni bitirib, jamiyatimizning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan kadrlarning ko'pchiligi yozuvida ko'zga tashlanayotgan imloviy xatolar, muloqotdagi kamchiliklarni mazkur muammoning oqibati deb qarash lozim bo'ladi. Buning uchun esa o'qituvchi ijodiy tafakkurni o'stirish uchun darslikdagi grammatik mashqlar hamda grammatik qoidalar bilan cheklanib qolmasdan, ta'lim oluvchilarni haqiqiy nutqiy va mantiqiy fikrlash faoliyati bilan shug'ullanishga o'rgatmog'i, asosiy e'tiborni matn tuzishga, shuningdek, matn ustida ishlashga qaratib, uning turli ijodiy usullarini o'ylab topmog'i zarur. Ana shundagina o'quvchilar ona tili darslarida izlanadilar, mustaqil fikrlaydilar, ijod qilishga o'rganadilar. Dars o'tish jarayonida o'qituvchi ham, o'quvchi ham umumdidaktik va metodik tamoyillarga hozirgi zamon talabi nuqtai nazaridan qarashi lozim. Chunki o'quvchiga bir xil topshiriq, bir xil bilim berish uni toliqtiradi. O'quvchilarga o'rgatilishi lozim bo'lgan matnlar tarbiyaviy, ta'limiy, nazariy, ilmiy, falsafiy ahamiyatga ega bo'lmog'i lozim.

Adabiyot fanining har bir mashg'ulotida o'qituvchi o'rganilajak asar asosida o'quvchilar bilimni boyitibgina qolmay, ta'lim oluvchilarning badiiy zavqini uyg'otishi, ma'naviyatini shakllantirishi, shaxslik sifatlarini qaror toptirishi ham kerak. Adabiyot darsidan bosh maqsad barkamol o'quvchi shaxsini shakllantirishdan iboratdir. Shu bois har bir darsga astoydil, har tomonlama chuqur tayyorlanishi lozim. Aks holda o'qituvchi o'quvchilar ma'naviyatiga kerakli ta'sir o'tkaza olmaydi, natijada darsdan kutilgan tarbiyaviy va ta'limiy maqsad amalga oshmaydi.

Taassufki, ona tili va adabiyot o'qituvchilarining ko'pchiligi badiiy asar haqida dars o'tish deganda, faqat asar voqealarini hikoya qilib berishnigina tushunib, bayonchilik bilan cheklanib qolishadi. Mumtoz adabiyot yoki zamonaviy she'riyat namunasi ekanidan qat'iy nazar, har bir badiiy matn avvalo, o'qituvchi nazaridan o'tishi, idrok etilishi, so'ng o'quvchilarga taqdim etilishi zarur. Shu bilan birga, o'qituvchi darslikdagi material bilangina chegaralanmasligi, o'tilajak har bir mavzuga doir qo'shimcha adabiyotlardan xabardor bo'lishi, yangi ma'lumotlar bilan o'quvchilarni tanishtirib borishi maqsadga

muvoftiq bo'radi. Bularsiz adabiyot darslari samaradorligiga erishish imkonsiz yumushga aylanadi.

Kuztishlar natijasiga, afsuski, ayrim umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot darslari yaxshi ahvolda emasligiga guvoh bo'ldik. Maktab o'qituvchilari darslikdagi tahlil va savol-topshiriqlar bilangina kifoyalanishadi. Bu hol darsda o'quvchining ham passiv, ishtiyoqsiz qatnashishiga olib keladi. Badiiy matnni sharhlab o'qish, uning darslikda ko'zda tutilmagan ma'nolarini topish, ularda yashirin badiiy ma'noni kashf etish, tahlil qilish va hayotiy misollar asosida izohlash o'qituvchi zimmasidagi asosiy vazifa bo'lishiga qaramay, ular tomonidan bu vazifaning astoydil bajarilganini ko'rmadik. Shu bois o'quvchilarning ham tahliliy idroki sust, badiiy zavqi yo'q darajada. Badiiy matn bilan ishlash metodikasini o'rganmaguncha, ona tili va adabiyot o'qituvchisi adabiyot darslari samaradorligiga erisha olmaydi. Badiiy material ta'limiy-tarbiyaviy materialga aylanib, o'ziga xos «pedagogik transformatsiya»ga uchragandagina adabiyot o'qituvchisi o'z kasbiy tayyorgarligi rivojlanishi yo'lida urinayotgan, mustaqil malaka oshirish bilan shug'ullanayotgan bo'ladi. Zotan, bilim berishning ham o'ziga xos tarzi, boshqalarnikidan ajralib turishi kerak bo'lgan yo'sini mavjud. U o'quv jarayoni ishtirokchilarining yoshi, bilim saviyasi, ko'nikma va malakalari, moyilliklarini hisobga olgan holda amal qiladi. Aynan shunday dars o'tish yo'sinining alohidaligi tufayli bitta mavzu bir yoshdagi o'quvchilarga tamomila farqli tarzda tushuntiriladi va keskin farqli ta'limiy natijaga erishiladi. Bir adabiyot o'qituvchisi mavzuni qiziqarli, tushunarli, hayajonli o'tsa, ikkinchisi uni hissiz, zerikarli mashg'ulotga aylantirishi mumkin. Shu bois adabiyot o'qituvchisi mashg'ulotdan oldin qaysi sinfga qaysi mavzuni qanday usulda o'tishini, o'rganilajak asarning barcha qirralarini, mavzuning turdosh fanlarga aloqasi kabi jihatlarni hisobga olgan holda dars loyihasini tuzib olishi shart. Masalan, 8-sinfda Asqad Muxtorning «Chinor» romanidan parcha o'rganiladi, deylik. Unga oid bir necha dars shaklini keltirish mumkin:

1. Oldingi darsda o'rganilgan mavzu – adib umr yo'li, ijodi haqidagi ma'lumotlar so'ralib, uy vazifasi tekshiriladi. So'ng o'qituvchi roman haqida qisqacha ma'lumot berib, darslikdagi matn bilan tanishtiradi hamda birinchi qism uchun berilgan savol va

topshiriqlar bilan ishlanadi. Agar vaqt yetmasa, savol va topshiriqlar bilan ishlash uyga vazifa qilib beriladi.

2. Oldingi darsda romanning Ochil buva va nabirasi Azimjonlarning safari tasviri bilan tanishish uyga topshiriq qilib berilganligi bois uni to'la tahlil qilish uchun savol va topshiriqlar bilan ishlashga kirishiladi. O'tgan darsni so'rash mavzu to'liq tugagandan keyingi umumiy takrorlash va mustahkamlash mashg'ulotiga qoldiriladi.

3. Mashg'ulot avvalidan parcha tahliliga tutinib, darslikdagi hamda qo'shimcha tarzda o'qituvchining o'zi tuzgan savol va topshiriqlar asosida uni o'rganish, shuningdek, o'tilgan darsni yangi mavzuga bog'lash asnosida so'rab va mustahkamlab boriladi.

4. Asar mazmuni o'zlashtiriladi, badiiyati tahlilga tortiladi, Ochil buva, Azimjon, Sharofat aya, Akbarali, Bektemir, Hadya singari obrazlar xarakteri, ruhiy-ma'naviy olami, adibning portret yaratishdagi badiiy mahorati yaxlit tarzda ochib boriladi. Lekin faqat darslikdagi savol va topshiriqlar bilan cheklanib qolish nojoizdir.

5. O'quvchilar guruhlariga bo'linib, o'qituvchining topshirig'iga ko'ra uyda o'rganib kelishgan matnning o'zlariga berilgan qismini yoki undagi biror obraz yoxud ma'naviy muammoni tahlil etib, o'z mulohazalarini bayon etadilar, boshqa guruh fikrlariga munosabat bildiradilar, kerak o'rinda bahsga kirishadilar.

Ayni bir mavzu yuzasidan darsning yana bir qancha variantlarini keltirish mumkin. Biz keltirgan shakllar go'yo darsning «skeleti» bo'lib, ularga qolgan a'zolari ham «joylash» – «butlash» lozim. Bu ona tili va adabiyot o'qituvchisining bilimi, mahorati va, eng asosiysi, kasbiy tayyorgarligi darajasiga bog'liq. Shu qonuniyatni idrok etgan o'qituvchigina ayni mavzuni sinfdan-sinfga bir xil tarzda o'tib yurmasdan, har bir sinf xususiyatlarini hisobga olgan holda tamomila yangi va betakror mashg'ulotni o'tkazishga harakat qiladi.

Maktab amaliyotida adabiyot darslarini kuzatish asnosida, ikki-uch xil mashg'ulot shakli borligiga guvoh bo'ldik. Biror shoir ijodi o'rganilayotganda oldin o'tilgan mavzu takrorlanadi, ya'ni uy vazifasi tekshiriladi, shoir hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar-yilma-yil so'raladi, yodlashga berilgan she'r o'quvchilarga aytiriladi, yodlamaganlarga tanbeh beriladi. Bu jarayonlarga davomat ham qo'shib, o'ttiz daqiqaga yaqin vaqt ketib qoladi. Yangi mavzuni

o'tish vaqti kelib qolgani tufayli o'tilgan she'r ko'pincha tahlilga tortilmaydi, badiiyati ochilib, go'zalligi kashf qilinmaydi.

So'ng yangi mavzu – boshqa ijodkor hayoti va ijodiga navbat keladi. O'qituvchi bolalarga adibning hayoti va ijodini so'zlab bergach, o'rganilajak badiiy matn avval o'qituvchi tomonidan, so'ng o'quvchilar tomonidan ifodali o'qib beriladi. Ayrim o'qituvchilargina asarni tahlil qiladi. Ular ham badiiy tasvir vositalari, qo'llangan san'at usullarini topish bilan shug'ullanishadi. Bu asarning badiiy qiymatini ochmagani uchun ham o'quvchilarda kutilgan qiziqishni uyg'otmaydi.

Nasriy asarlarni o'rgatish ahvoli bundan-da g'arib: o'qituvchi asar mazmunini gapirib beradi yoki matnni o'quvchilarga o'qitadi. So'ng asar qahramonlarini yaxshi va yomonga ajratib, muhokama qiladi. Shu ishni qilgani uchun yaxshi yoki ayni ishni qilmagani uchun yomon, sizlar ularga o'xshamanglar qabilidagi nasihatimiz gaplar bilan asar ustidagi ish tugatiladi. Bu juda ko'p-yillik an'ana, afsuski, hozirga qadar juda ko'p umumiy o'rta ta'lim maktablarida saqlanib qolgan.

Zamonaviy ta'lim tizimimizda adabiyot o'qitish metodikasiga alohida ahamiyat berilayotganligining boisi ham mana shunday bir xil «qolip»lardan qutulishdir. Ona tili va adabiyot o'qituvchilari boshqaruvchilik maqomidan o'quvchining teng huquqli sherigiga aylanishmoqda. Bunga o'qituvchilar malaka oshirish kurslarida o'rgatiladi. Shu asosda adabiyot o'qituvchisi har bir darsda o'qituvchi va o'quvchilar, o'qituvchi va har bir o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi hamkorligiga erishishi lozim. Bu adabiyot darsi samaradorligini yuz foiz ta'minlaydi, chunki o'quvchilar jamoasida o'zaro psixologik ta'sir juda kuchlidir. Paydo bo'lgan kayfiyat bir o'quvchidan ikkinchisiga juda tez yuqadi. Bu esa o'qituvchiga juda qo'l keladi, agar foydalanishni bilsa. Dastlab bu qiyin yumush hisoblanadi, ammo darsdan-darsga o'qituvchida ham, o'quvchilarda ham ko'nikma shakllanib boradi. O'quvchilar yolg'iz tuygan hislaridan ko'ra boshqa tengdoshlari bilan boshdan kechirgan taassurotlarini chuqurroq yodda saqlab qolishadi, asosiy e'tiborni shunga berishadi.

Ona tili va adabiyot o'qituvchisining vazifasi bolalarda paydo bo'lgan badiiy zavqni vaqtida ilg'ab, rag'batlantirishdir. Ana shundagina o'quvchilar faoliyatni kutilgandek davom ettirishadi. Faqat ularni to'g'ri yo'naltirib turishni unutmazlik lozim. Masalan, «Chinor» romani obrazlaridan biri Akbarali taqdiri haqida sinf

o'quvchilarini guruhga bo'lib, fikr bildirishlarini so'rash. Bir guruh fikr bildirganda qolganlari uni kuzatib turadi, xato va yutug'ini o'zlariga qayd etishadi. Bu o'qituvchi ishini yengillatish, o'quvchilarning darsga qiziqishini orttirish bilan birga, darsning samaradorlik darajasini ko'tarib yuboradi. O'qituvchi ziyrak bo'lishi, qo'shimcha savol bilan o'quvchilar fikrini yo'naltirib turishi, qisqa va aniq gapirishni talab etishi kerak bo'ladi. O'qituvchi o'z o'quvchilarining fikr va tuyg'ularini bu tarzda boshqara olish uchun sinfdagi har bir o'quvchining imkoniyat hamda qobiliyatini yaxshi bilishi shart.

Har bir o'qituvchi murakkab ijodiy jarayon – darsning boshqaruvchisi, o'quvchilarning faollashtiruvchisi sanaladi. Ijtimoiy yangilanishlar bilan barobar o'zgarib turadigan ta'lim tizimi undan katta mehnat va alohida e'tibor talab qiladi. Hatto androgogika – kattalarni o'qitishda ham muntazam takomillashtirib turiladigan nazariy bilim va tezkor amaliy harakatga ehtiyoj mavjud.

Ibn Sino fikricha, ta'lim oluvchining bilimi asosida mantiqiy fikrlash, shaxsiy kuzatish va tajriba yotadi. Demak, ta'lim-tarbiya ixtiyoriy, erkin jarayon. Erkinlik o'z-o'zidan tafakkur mustaqilligini ta'minlaydi, fikr kishisini tarbiyalaydi, shaxsning ma'naviy kamolotiga sabab bo'ladi. Bilim olish bolalar ixtiyorida bo'lgani bois o'qituvchining har bir so'zi imo-ishora va yuz harakatlari bilan mos bo'lishi, fikrlari mantiqqa asoslanishi lozim.

Ma'lumki, inson katta bo'lgani sari hayotiy tajribalari ortadi, olgan bilimlari chuqurlashadi, tasavvur doirasi kengayadi. Shuning uchun kattalar ta'limida narsa-hodisalarning mayda detallariga kamroq to'xtalish kerak bo'ladi. Bunga qancha kam to'xtalinsa, umumlashtirishga, tushunchalarni tahlil qilishga shuncha tez o'tish zarur bo'ladi. Faqatgina androgog tinglovchilarda buning uchun zarur bo'lgan bilimlar yetarli ekaniga, o'rganilayotgan hodisaga xos mayda detallar avvalgi bosqichlarda o'zlashtirib olinganiga amin bo'lishi kerak. Ta'lim beruvchining vazifasi tinglovchiga alohida narsa yoki hodisada umumni ko'ra bilish va uni ongli ravishda o'zlashtirishga ko'maklashishdir.

Til va adabiyot ta'limi samaradorligiga erishishda yaxshi yozilgan metodik qo'llanmalar tarbiyalanuvchini ham, tarbiyachini ham mustaqil fikrlashga, biror adabiy hodisa yuzasidan mustaqil qaror

qabul qilishga, o'zining qarashlarini, xatti-harakatlarini o'zgalarniki bilan solishtirishga odatlantirishi bilan ahamiyatli. Shuningdek, ona tili va adabiyot o'qituvchisi ta'lim jarayonini amalga oshirishda uni zarur hissiyotlar bilan to'yintirishi ham o'ta muhim hisoblanadi. Hissiy holatlar hamisha bezovta bo'lish, hayajonga tushish, hayratlanish, o'zganing tuyg'ularini his eta olish, quvonch, nafrat singari tuyg'ular bilan bog'liq.

Diqqat, eslab qolish, anglash jarayonlariga shaxsning chuqur ichki bezovtaligi, hayajoni qo'shilganda fikr faollashadi, kerak bo'lgan intellektual marraning egallanishi ta'minlanadi. Metodist olim Q.Husanboyeva qayd etganidek: «Insonning his-tuyg'ulari ishtirokisiz haqiqatga intilish va erishish mumkin emas. Ayniqsa, adabiy ta'limda hamma narsaga erishish uchun his-tuyg'u birinchi o'rinda turadi. Gap faqat uni zarur shakl va miqyosda uyg'ota bilishda. Hissiy bezovtaliklar asosan hayrat orqali namoyon bo'ladi. Badiiy asarda ifodalangan hodisa, asar qahramonlarining tuyg'ulari, ulardagi g'ayrioddiylik, ruhiy kechinmalar ifodasining samimiyligidan hayratlanish o'quvchida turli hissiyotlarni uyg'otadi.

Adabiyot darslarida emotsional holatlarni vujudga keltirishda o'qituvchi nutqining hissiyotga yo'g'rilganligi, tiniqligi, badiiyligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat bu o'ta samimiy bo'lishi kerak. Busiz o'qituvchining nutqi foydali axborotgina bo'lib, o'quvchi faoliyatiga hissiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Shu bilan birga, darsning qiziqarliligini ta'minlashda bilishdan zavqlanish hissining o'rni ham katta. Hissiyot o'quvchini muammoning ichiga kirishga undaydi. Ko'ngil ochish hislari bilan bilim olishdagi hislarning farqi shunda» [157; 74-b.]. Bunda ikki tomonlama «zavqlanish» hissini tuyish ehtiyoji mavjud.

Malaka oshirish ta'limining ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida muntazam ijodiy faoliyat insonda o'zgaruvchan sharoitlarda o'zini yo'qotmaslik, muammoni aniq ko'ra olish, uni idrok etish, yangiliklardan cho'chimaslik, samarali fikr yurita olish, topqirlik, ixtirochilik, sezgirlik kabi sifatlarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda zamonaviy o'quv jarayonida reproduktiv usul bilan bir qatorda mahsuldor, ijodiy qidiruv usullarini ham qo'llash kerak. Ular o'quvchini mantiqiy fikr yuritish va muammolarni ilmiy asosda ijodiy

yechishga o'rgatadi, zarur bilimlarni mustaqil ijodiy qidirishga odatlantiradi, qiyinchiliklarni yengish ko'nikmasini hosil qiladi. O'quv-biluv kechimiga ijodiy yondashuv o'quv materialini tushunarli darajada bayon qilish va chuqur o'zlashtirish imkonini beradi; o'zlashtirilgan bilimlarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlaydi; bilim olishga qiziqish uyg'otadi, xullas, ijodkor shaxsni shakllantirishga yordam beradi.

Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirib borish mutaxassisdan muayyan darajadagi umumiy va maxsus tayyorgarlik, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy darajada rivojlantirib borishni talab etadi. O'z kasbini sevgan, o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga o'zida ichki va tashqi motiv uyg'otgan, innovatsion faoliyat yuritadigan pedagogning kasbiy faoliyati hamisha samarali bo'ladi. Ular metodika ilmidagi yangiliklarga qiziqadi. Aksincha *«zarur ilmiy saviyaga, yetarlicha professional hozirlikka ega bo'lmagan, kasbiy tayyorgarligi past bo'lgan kuchsiz o'qituvchilar uchun metodikaning ahamiyati yo'q. Bunday o'qituvchi «umuman» o'qitaveradi»* [83; 92-b.].

Yuqoridagilar asosida kuzatishlar jarayonida maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirish kurslarining vazifalari quyidagilardan iborat ekanligiga guvoh bo'ldik:

- maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini orttirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llash uchun ularda zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga erishish;
- maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilarida o'z faoliyatlarini tanqidiy tahlil qilish, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;
- pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, ta'lim oluvchilarning qobiliyat va qiziqishlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etishga ko'maklashish.

Malaka oshirish tizimi o'qituvchilar oldida burchli bo'lganiday, maktab pedagog xodimlari ham malaka oshirish kurslarida ma'lum axloqiy, ma'naviy va professional talablarga rioya qilishga majburlar. Bular: fikr tug'ilganda ruxsat so'rab so'zlash, intizomga qat'iy rioya

qilish (mashg'ulotlarga kech qolmaslik, jamoada o'zini tutish me'yorlariga amal qilish, o'zgalarni tinglay olish; fikrning aniqligiga ahamiyat berish, mashg'ulotlarda faol ishtirok etish, hamkorlikda faoliyat yuritish, ta'limga nisbatan jiddiy va ijodiy yondashish kabilardan iborat.

Ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirish kurslarida mashg'ulotlarni tashkil etishni quyidagi bosqichlar asosida amalga oshirilsa, ko'proq samara keltiradi:

1. Mavzu mohiyatini to'g'ri anglash.

2. Mavzu doirasida hal etilishi kerak bo'lgan o'quv muammolarini aniq ko'ra olish, ularning yechimlarini oldindan taxminiy bashoratlay olish.

3. Mashg'ulot mavzusiga tayangan holda saboqning umumiy va xususiy maqsadlarini aniq belgilay olish.

4. Tinglovchilarni maqsadli strategiya bo'yicha to'g'ri yo'naltirish.

5. Ular uchun kerakli vositalar hamda ma'lumotlar bazasini tavsiya qilish.

6. O'rganilgan muammo yechimining amaliy ahamiyatini tashxislash va baholash.

Tavsiya qilingan bosqichlar tinglovchilarni o'z faoliyatlarini yangi mavzular asosida tashkillashtirishga undaydi. Aynan shu vaziyat individual ta'lim olishning ijodiy muhitini yaratadi. Tinglovchi o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, individual ta'lim dasturi rejasini tuzadi. Ta'lim beruvchi esa yo'naltiradi. Belgilangan maqsad to'laligicha amalga oshishiga imkon yaratiladi. O'quv maqsadi aniq bo'lgan darsning yo'nalishi ham aniq bo'ladi. Psixologlarning fikricha, maqsadi aniq bo'lmagan insonning faoliyati ham aniq bo'lmaydi.

Ona tili va adabiyot o'qituvchisining boshqa fan o'qituvchisidan farqi, avvalo, badiiy ijrochilik, kuchli notiqlik, badiiy va mantiqiy tafakkur, his-tuyg'u hamda so'z imkoniyatidan o'rinli foydalana olishida namoyon bo'ladi. Uning o'z ustida mustaqil ishlashi malaka oshirishning muhim jihati hisoblanadi. Zero, u o'zbek tilida yaratilgan, shuningdek, xorijda nashr qilingan sohaga oid ilmiy, nazariy, pedagogik adabiyotlarni, ilmiy-metodik jurnallar maqolalarini, internet saytlaridan olingan ma'lumotlarni mehnat faoliyati davomida uzluksiz o'zlashtirib borishi, ularni qiyoslab o'rganishi kerak.

Shuningdek, fanni o'qitishga oid metodik adabiyotlar bilan tanishish, maktab metod birlashmasida ma'ruzalar qilish, tajriba-sinov, test va so'rovnomalar o'tkazish hamda natijalarini tahlil qilish, kasbiy muammolar yechimini topish yoki trening o'tkazish uchun multimediyadan foydalanish, maktablararo ilg'or tajribali ona tili va adabiyot o'qituvchilari ko'rik tanlovlarida, ilmiy anjumanlarda ishtirok etish imkoniyatidan to'liq foydalanish zarur.

Hozirgi kunda o'quvchilar ta'lim-tarbiyasidagi muammolar yuzasidan, o'qituvchilar ehtiyoji va xohishiga ko'ra tanlangan boshqa mavzular asosida amaliy seminarlar tashkil qilinishi juda foydali (1-ilovalar). Mazkur yo'nalishda tashkil etilgan seminarlar tinglovchilarning mustaqil bilim olishlari, erkin fikrlashlari uchun imkon yaratishiga xizmat qiladi. Tinglovchilar faoliyatini tashkil qilishda ularni bir jamoaga uyushtirish, boshqarish, nazorat qilish va baholash, materiallarni takomillashtirish, tahlil va tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi bosqichlar asosida olib borilishi zarur. Keltirilgan loyihalar tartibida ish ko'rish, shuningdek, ona tili va adabiyot darsliklari va dasturlarida berilgan ayrim mavzular bo'yicha (2-3-ilovalar) taqdimotlar o'tkazish fan o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida muayyan samaralarga olib kelar ekan.

Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini tashkil etishdagi obyektiv qonuniyatlarini yuqori darajadagi aniqlikda aks ettiradigan, muayyan o'quv sharoitida ta'lim maqsadlariga mos natijalarga erishishni kafolatlaydigan vositalar yig'masidir. Pedtexnologiya ta'lim natijasini kafolatlash, fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlarini qo'llash, o'quv jarayonini ilg'or ilmiy-pedagogik asoslarda tashkil etib, ta'lim oluvchi faoliyati natijasini oldindan bashoratlash va loyihalash imkonini beradi. Yangi axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanishga qulay bo'ladi. Pedagogik texnologiyaning ahamiyati shundaki, u o'quv jarayonini boshqarish imkoniyatiga ega.

Texnologiyalashtirilgan ta'lim jarayoni o'quvchi yoki tinglovchi faoliyatini rivojlantirishning yetakchi omili sanaladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra o'qitish texnologiyasining asosiy belgilari tizimlilik, ilmiylik, qayta tiklanuvchanlik, qo'shiluvchanlik, samaradorlik, sifat, asoslanganlik, yangilik, algoritmlashganlik, nusxa olish imkoni, yangi vaziyatlarga moslasha bilish kabilardan iborat. U

qonun va qonuniyatlar to'liq anglab yetilgan holda joriy etilsagina, talab qilingan natijaga erishish kafolatlanadi. Zotan, o'qitish texnologiyasi ilmiy asoslangan didaktik loyihani amalga oshiruvchi va birmuncha yuqori samaradorlikka, ishonchlilikka va kafolatga ega natijalarga erishish imkonini beruvchi pedagogik faoliyatdir.

O'qitish texnologiyasi ta'lim metodikasining rivojlantirilgan mukammal shakli bo'lib, o'quv jarayonini batafsil ifodalaydi. U maqsadga muvofiqlik, bashoratlash eng maqbul shakl, metod va o'qitish vositalarini tanlash, o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro ta'sirini tashkil etish, didaktik maqsadlarga erishishni kafolatlash asosida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash va ularning kamchiliklarini tuzatishni o'z ichiga oladi. Har qanday o'qitish metodikasining o'qitish texnologiyasini yaratish mumkin.

2.2. Filolog o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni va samarali texnologiyalar

Kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari malaka oshirish tizimi, o'quv jarayoni mazmuni va shakllariga muntazam ravishda jiddiy o'zgartirishlar kiritishni talab qiladi. Shuning uchun malaka oshirish tizimida o'qitish texnologiyalarini qo'llashda tinglovchilarning shaxsiy bilim hamda sifatlarini hisobga olish, texnologiyani to'g'ri tanlash va qo'llash, o'qitish texnologiyalarining didaktik prinsiplarga muvofiq kelishi va tinglovchilarning o'quv-biluv imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan bo'lish talablari qo'yiladi.

Malaka oshirish kurslarida ona tili va adabiyot o'qituvchilari faolligini oshirish, ularda ta'limni to'g'ri, samarali tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda hozirgi kunda tobora ommalashgan ta'limning **interfaol** («inter» – «o'zaro») **usulidan** foydalanilganda u ta'lim subyektlari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhining hamkorligi, qizg'in bahs-munozalari, o'zaro fikr almashishi asosida tashkil etiladi. O'quvchilarda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilar yakdilligiga erishish, «o'qituvchi – o'quvchi – o'quvchilar

guruhi»ning o‘zaro hurmat, tushunish va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Ona tili va adabiyot o‘qituvchilari interfaol ta’limning bahs-munozara, muammoli vaziyat, trening, rolli o‘yin, debat, intervyu, taqdimot (yoki himoya) va shu kabi metodlaridan boxabar bo‘lishlari maqsadga muvofiq. Shuningdek, o‘rganilayotgan asarning o‘ziga xos adabiy-badiiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish asosida o‘rganishda «SWOT», «T» chizmasi, «Tushunchalar tahlili», «Bumerang», «Blits so‘rov», «FSMU», «Muloqot» kabilar interfaol usullar saboqlarning samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

Ta’lim texnologiyalarining qo‘llanishi haqida mulohaza yuritish munosabati bilan aytmoqchimizki, ulardagi ayrim ko‘rsatmalar boshqa fanlardan farqli o‘laroq ona tili va adabiyot fani uchun o‘zgacha yondashishni talab etadi. Ya’ni, ayrim boshqa o‘quv fanlaridagi «fikringizning sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boring», «yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang» kabi talablar o‘rnida filolog o‘qituvchilar «tez va xatosiz yozish» talablarini qo‘yishlari ta’lim oluvchilar uchun samaradorlik omili bo‘ladi.

«SWOT» (**Strengths** – kuchli tomonlar, **Weaknesses** – kuchsiz tomonlar yoki zaiflik, **Opportunities** – imkoniyatlar, **Threats** - tashqi muhitda mavjud xavf-xatarlar) metodida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish, ishtirokchilarda muhim va nomuhim ma’lumotlarni ajratish malakasini shakllantirish talab etiladi. Bu metoddan *foydalanish uchun* kichik guruhlar tashkil etiladi. Guruhlarga mavzular berilib, ayni mavzudagi muammoning kuchli va kuchsiz hamda uni rivojlantiradigan ichki imkoniyatlar bilan birga unga to‘siq bo‘luvchi tashqi xavf-xatarlar aks ettiriladi. Masalan, adabiyot darslarida asar qahramoni yoki voqelik tahlil qilinganda ushbu metoddan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda obrazning kuchli tomonlari, xarakteridagi zaif jihatlarini tinglovchilar tahlil qilar ekan, qahramonning imkoniyatlari hamda uning ojizligiga ta’sir qiluvchi xavf-xatar va oqibatlarini o‘rganib chiqadilar. Asosan, bu metod quyidagi shaklda asar mohiyatini tahlil qilishda, uni strategik rejalashtirishda qo‘l keladi.

S – (Strengths – kuchli tomonlar)	W – (Weaknesses – kuchsiz tomonlar yoki zaiflik)
O – (Opportunities – imkoniyatlar)	T – (Threats – tashqi muhitda mavjud xavf-xatarlar)

Bu metodni qo'llashda bir dars oldin mazkur abbreviaturani tashkil etuvchi so'zlarning inglizcha shakli yozib ko'rsatiladi va yozdirib qo'yiladi. Ularning o'zbek tiliga tarjimai so'raladi. Agar umuman yoki qisman bilishmasa, shu metod qo'llanadigan keyingi darsga bu inglizcha to'rt so'zning ma'nosini bilib kelish topshirig'ini berish mumkin. Bu fanlararo aloqaning kichik bir ko'rinishi bo'ladi. Shu metod qo'llanishi ko'zlangan mashg'ulot avvalida inglizcha qisqartma so'zni (ya'ni metodning nomini) o'zbek tilida qanday ifodalash mumkinligi haqidagi murakkab bo'lmagan, ayni paytda ta'lim oluvchilarni ijodiy fikrlashga yo'llovchi muammoli savol qo'yish o'rinli bo'ladi.

Biz tajriba o'tkazganda nafaqat tinglovchilar, balki o'quvchilar, hatto oliy o'quv yurti talabalari qiyinchiliksiz, eng muhimi, ko'tarinki kayfiyat bilan inglizcha «SWOT»ni o'zbekcha «KZIX» (**k**uchli jihatlar, **z**aif tomonlar, **i**mkoniyatlar, **x**avf-xatarlar) tarzida ifodalash mumkinligini topa bildilar va shakliy ko'rinishini quyidagicha taklif qildilar:

K	Z
I	X

Bu narsa tajriba davrida mashg'ulot avvalidanoq ta'lim oluvchilarda ijodiy fikrlashga, izlanuvchanlikka moyillik uyg'otdi.

Ushbu metod asosida guruhlariga «Farhod va Shirin» dostonidagi Xusrav va Farhod obrazlariga tavsif berish, ularga xos jihatlarni tahlil qilish topshirig'i beriladi. Birinchi guruh berilgan tahlil qolipiga ko'ra Xusravni shunday tavsiflashi mumkin:

Kuchli tomoni: hukmdor sifatida katta qudratga egaligi.

Zaif tomoni: hamma narsani zo'rlik, boylik hal etadi deb o'ylashi.

Imkoniyati: kuch bilan Shiringa egalik qilishi mumkinligi.

Xavf-xatar: adolatsizligi, o'g'li Sheruyaning otani yuz-xotir qilmasligi, qo'l ostidagilarning noroziligi va boshqalar.

Ikkinchi guruhning Farhod haqidagi fikrlari:

Kuchli tomoni: jismoniy imkoniyatlari cheksizligi, ko‘p hunar egasi ekanligi, ma’naviy barkamolligi.

Zaif tomoni: ishonuvchanligi, sodda va beg‘uborligi.

Imkoniyati: jismoniy imkoniyatlari, egallagan hunarlari va muhoraba qilish salohiyati tufayli dushman qo‘shinini butunlay yo‘q qilishi mumkinligi.

Xavf-xatar: Ishonuvchanligi va soddaligidan yozuv kuchlarning foydalanishi mumkinligi.

Bu metodni o‘qituvchi ijodiy yondashib davom ettirgan holda yakunlashi kerak. Ya’ni aytilgan tavsiflardan hayotiy, badiiy umumlashma chiqarib, xulosaga kelish topshirig‘ini berishi mumkin. Masalan, Xusrav haqidagi fikrlardan insonga tegishli hokimiyat, kuch-qudrat, cheksiz boylik ma’naviy tubanligi bois uning zaif tomonining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin ekani kelib chiqadi. Aynan Xusravning hukmdorligi, cheksiz cherik va katta xazinaga egaligi uning ojizligi bo‘lmish hamma narsani zo‘rluk, boylik hal etadi deb o‘ylashiga olib kelgan.

Farhodga xos bo‘lgan ishonuvchanlik, soddalik bir qarashda doimo simpatiya uyg‘otuvchi xarakter xususiyat bo‘lib ko‘rinadi. Lekin ular qahramon tushib qolgan muhitga ko‘ra zaiflik atributlari tarzida namoyon bo‘ldi. Ta’lim oluvchilarga *shuni singdirish kerakki*, demak, *ijobiy yoki salbiy, go‘zal yoki xunuk ko‘ringan narsalarning haqiqiy bahosi ba’zan inson tushib qolgan muhit, bu muhitda kishi o‘zini qanday tutishi yoki unga yuzma-yuz kelgan insonlarning munosabatidan kelib chiqib, boshqacha qiymat, baho olishi mumkin*. Bunday ijodiy yechim, xulosa orqali o‘qituvchi shogirdlarini chigal, g‘oyat murakkab, hamisha jumboq kishilik turmushiga tayyorlaydi, ularga turli hayotiy vaziyatlar, turfa sajiyali insonlar bilan yuzlashganda eng to‘g‘ri yo‘l yoki qarorni tanlay bilish muhimligini singdiradi.

«**T-chizmasi**» metodi muammoni qo‘yish va hal qilishning bir qator jihatlarini ta’riflash va yechishga imkon beradi. Ishtirokchilar kichik guruhlariga bo‘linishadi hamda quyida tavsiya etilgan «T-chizmasi» asosida asar qahramonlar (obrazlar)ining tasviri yoki tavsifini ochib berish barobarida ulargagina xos bo‘lgan u yoki bu xususiyatlarni ajratadilar.

Mumtoz she'riyatdagi Ma'shuqa va oshiq obrazlarini bu metod bo'yicha o'rganish, taxminan, shunday ifoda etilishi mumkin:

Ma'shuqa

Tashqi ko'rinishi ifodalari	Xarakter xususiyatlari
Go'zal Labi g'uncha Sochi sunbul Beli xipcha Nigohi o't Sarv qomat v.b.	Sho'x Iltifotsiz Zulmkor Sitamgar Qahrli Mag'rur v.b.

Oshiq

Tashqi ko'rinishi ifodalari	Xarakter xususiyatlari
Holi zabun Zorlanuvchi Qaddi dol Ko'z yoshi qon Rangi sariq Jismi zaif v.b.	Sabrli Yozg'irmaydi Xokisor Vafodor Ishqda barqaror Vaslga umidvor v.b.

Har bir ta'rif yoki tavsifga g'azallardagi baytlardan misol keltirilishi hamda fikrni mantiqli dalillar bilan isbotlash yuqori baho (ball) uchun asos bo'lishi kerak.

Metodga xos xususiyatlar ta'riflangan adabiyotlarga ko'ra jarayon shu o'rinda yakunlanadi. Lekin har qanday metod qaysi fanda, qanday dars materialiga tatbiq qilinayotganiga ko'ra o'zgacha qo'llanishi tabiiy. O'qituvchi metodni ijodiy davom ettirgan holda ikki chizmadagi o'zaro bog'lanishi mumkin bo'lgan jihatlarni aniqlash topshirig'ini berish mumkin. Xususan, o'quvchilar bu ikki obraz chizmasini sinchiklab o'rganib, ular o'zaro tazodiy munosabatlarda bog'lanishini aniqlashlari kerak.

Avvalo, bir guruh tomonidan ikki obrazning birinchi jihati bo'lgan tashqi ko'rinishlaridagi o'zaro bog'lanish aniqlanadi.

Oshiq va Ma'shuqaning tashqi ko'rinishlariga ko'ra o'zaro tazodiy bog'lanishi

Ma'shuqaning tashqi ko'rinishi ifodalari	Oshiqning tashqi ko'rinishi ifodalari
Go'zal	Holi zabun
Nigohi o't	Ko'z yoshi qon
Sarv qomat	Qaddi dol
Qizil yuzli	Rangi sariq
Jismoniy barkamol	Jismi zaif
v.b.	v.b.

Bu tazodiy (o'zaro zidlangan) munosabatlarga g'azallarda avvalo alohida-alohida kelgan, so'ng bir bayt doirasida parallel tasvirlangan misollar keltirilishi so'raladi. Bunda o'quvchilarga darslikdan, qo'shimcha material – devon, bayozlar, to'plamlardan foydalanishga ruxsat beriladi. Chunki barcha obrazlarga yoddan misol aytish o'quvchilar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Boshqa guruh ma'shuqa va oshiq o'rtasidagi tazodiy munosabatni ularning xarakter xususiyatiga ko'ra ushbu «T chizma» metodi bo'yicha qiyoslashga kirishadi.

Oshiq va Ma'shuqaning xarakter xususiyatlariga ko'ra o'zaro tazodiy bog'lanishi

Ma'shuqaning xarakter xususiyatlari	Oshiqning xarakter xususiyatlari
Sho'x	Xokisor
Beparvo	Tinimsiz yorga intiluvchi
Shodon	Qayg'uga botgan
Bevafo	Vafodor
Sitamgar	Ishqda barqaror
v.b.	v.b.

O'qituvchi yo'naltiruvchi savollar vositasida tazodiy voqelik aslida ikki subyekt (yoki obyekt)ni bir-biridan itaruvchi, bog'lanish, aloqadorlikni bartaraf etuvchi munosabat sanalishi, lekin bu badiiy

voqelikda esa ularni o‘zaro bog‘lovchi, poetik voqelikni yuzaga keltiruvchi vosita ekanligi haqidagi xulosaga o‘quvchilarning o‘zlari kelishi adabiyot muallimining mahoratini ko‘rsatadi.

«**Tushunchalar tahlili**» mavjud bilimlar, o‘quvchilar uchun o‘tilgan mavzularni yodga olish, biror bir mavzu bo‘yicha ta’lim beruvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish, shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilarni baholay olishga yo‘naltirilgan.

Ta’lim oluvchilarning o‘tilgan mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirib olganlik darajalarini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, bilim darajalarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek, o‘z bilimlarini bir tizimga solishga o‘rgatadi.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi;

- o‘quvchilar guruhlariga ajratiladi;
- ishtirokchilar mashg‘ulotni o‘tkazishga qo‘yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a‘zolariga tarqatiladi;
- ishtirokchilar tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan bilimlari asosida izoh yozadilar;
- o‘qituvchi tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalarni o‘qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to‘g‘ri izohni belgilaydi yoki proektor orqali uzatilib, ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan taqdimot orqali (imkoni bo‘lsa) tanishtiriladi;
- har bir o‘quvchi to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo‘ladilar, o‘z-o‘zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek, bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

Masalan, 9-sinfda Furqat ijodi bilan mumtoz adabiyotga oid mavzular tugaydi. Bu yirik bo‘limga ajratilgan oxirgi soatda mazkur metodni qo‘llash yaxshi samara beradi. Quyida mashg‘ulotda foydalaniladigan tarqatma materialni misol tariqasida keltiramiz. O‘quvchilarga ushbu xarita beriladi. Ular 10 daqiqa ichida tushunchalarini yozadilar.

Tushunchalar	Mazmuni
Mumtoz adabiyot	
Mumtoz she'riyat janrlari	
G'azal	
Ruboiy	
Tuyuq	
Masnaviy	
She'riyat bosh obrazlari	
Vazn	
Navoiy «Xamsa»si	
Tazod	
Tashbeh	
Talmih	
Badiiy mahorat	

Shuni ta'kidlash kerakki, tushunchalarga og'zaki yoki yozma berilgan qisqa izoh bilan kifoyalanib qolmaslik lozim. Sababi, bu tushunchalar ortida ularni to'ldiradigan, mohiyatini keng ochib beradigan boshqa tushunchalar borki, ular albatta eslanishi, tahlilni kengaytirishi lozim.

Shuningdek, quyi sinf o'quvchilari uchun yosh xususiyatlarini inobatga olib aynan bir mavzu doirasida sodda tushunchalarni keltirish zarurati bo'ladi. Buni ham muammo sifatida ochiq qoldirmasdan, balki mashg'ulotning o'zida qaysi sinfdagi qaysi «tushunchalar» tahlil etilishi aniqlab olinsa va uning qanday bajarilishi bo'yicha aniq xulosalar berilsa, mashg'ulot samarasi yaqqol seziladi.

«**Bumerang**» **metodidan** dars va darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'quvchilar tomonidan o'rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'lish hamda o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olish, darslik va matn bilan ishlashda, amaliy mashg'ulotlar, seminar yoki laboratoriya mashg'ulotlari hamda suhbat-munozara shaklidagi darslarda foydalanish mumkin. Bu usuldan malaka oshirish kursi tinglovchilarini sohaga oid me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish, ularga qaror, farmon, farmoyishlar mohiyatini o'rgatishda foydalanish to'la samara keltiradi.

Mashg'ulotda tinglovchi mustaqil o'qishi, o'rganishi va o'zlashtirib olishi uchun mo'ljallangan tarqatma materiallar (qisqa matn, suratlar, ma'lumotlar)dan foydalanish kerak bo'ladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- ta'lim oluvchilar kichik guruhlariga ajratiladi;
- ular darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- guruhlariga mustaqil o'rganish uchun mavzu matnlari tarqatiladi;

- berilgan matnlar guruhlar tomonidan o'rganiladi;
- har bir guruh a'zolaridan tashkil topgan yangi guruh qaytadan shakllantiriladi;

- yangi guruh a'zolarining har biri guruh ichida navbati bilan o'rgangan matnlari asosida axborot almashadi, ya'ni bir-birlariga so'zlab beradilar va matnni o'zlashtirib olishlariga erishadilar;

- berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, ya'ni guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar;

- yangi guruh a'zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar;
- o'quvchilar tomonidan barcha matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida ta'lim beruvchi ishtirokchilarga savollar bilan murojaat etadi, og'zaki so'rov o'tkazadi;

- savollarga berilgan javoblar asosida guruhlarning to'plagan umumiy ballari aniqlanadi;

- har bir guruh a'zosi tomonidan guruh uchun berilgan matnning mazmunini hayotga bog'lagan holda bittadan savol tuziladi;

- guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi;

9-sinfda «Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asaridagi Andijon tasvirini «Bumerang» texnologiyasi asosida o'rganish uchun to'rtta kichik guruhlar tashkil qilinib har bir guruhga darslikdagi matndan ma'lum qismlarni mustaqil o'rganish topshiriladi.

1-guruhga: *«Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma'muraning kanorasida voqe' bo'lubtur. Sharqi Koshg'ar, g'arbi Samarqand, janubi Badoxshonning sarhadi tog'lar. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdo-girdi tog' voqe' bo'lubtur. G'arbi tarafikim, Samarqand va Xo'jand bo'lg'ay, tog' yo'qtur.*

Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin qish yog'iy kela olmas. Sayxun daryosikim, Xo'jand suyig'a mashhurdir, sharq va shimoli tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o'tub, g'arb sori oqar»

2-guruhga: *«yetti pora qasabasi bor; beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikkisi shimol jonibida. Janubiy tarafidag'i qasabalardan biri Andijondurkim, vasatta voqe' bo'lubtur, Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo'lmas».*

3-guruhga: *«Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ng mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe' bo'lubtur. To'qqiz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas. Qal'aning girdogirdi tosh yoki sangrezalik shohroh tushubtur. Qal'aning girdogirdi tamom mahallotdur. Bu mahalla bila Qal'ag'a fosila ushbu xandaq yoqosidag'i shohrohtur».*

4-guruhga: *«Ovi qushi dog'i ko'p bo'lur, qirg'ovuli behad semiz bo'lur. Andoq rivoyat qildilarkim, bir qirg'ovulni uskunasini to'rt kishi yeb tugata olmaydur. Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim amir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim, Hirida nash'u namo topibtur, bu til biladur. Elining orasida husn xayli bordur. Yusuf Xojakim musiqiyda mashhurdir, Andijoniydur. Havosining ufunati bor. Kuzlar el bezgak ko'p bo'lur»*

Qiyin so'zlar lug'ati beriladi.

Ta'lim oluvchilar matnlarni qunt bilan o'qishadi. So'ngra yangi guruhlar tashkil qilinadi. Guruh a'zolari o'zlari o'qigan matnlarni yangi sheriklariga tushuntirib berishadi. Matnlar ishtirokchilar tomonidan o'zlashtirilgach, guruh ichida mustahkamlanadi. So'ngra guruh a'zolari oldingi holatdagi guruhlariga qaytishadi. Yangi mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. Savolga to'liq javob olinsa 3 ball, to'liq bo'lmasa 2 ball, boshqa guruh to'ldirsa 1 ball beriladi. Har bir guruhga 5 tadan savol beriladi. Savollar quyidagicha bo'ladi:

1-guruh:

1. Farg'ona viloyati qayerda joylashgan?
2. U qaysi viloyatlar bilan chegaradosh?
3. Uning qaysi tarafida tog' yo'q?

4. Viloyatdan qaysi daryo o'qib o'tgan?

5. Unda nimalar serob?

2-guruh:

1. Farg'onaning nechta shaharchasi bor?

2. Andijon Sayxunning qaysi tarafida joylashgan?

3. Andijon Farg'ona viloyatining qayerida joylashgan?

4. Qovun mahalida qanday odat rasm bo'lgan?

5. Bobur Andijonning qaysi mevasini maqtagan?

3-guruh:

1. Andijon kattaligi jihatdan Movarounnahrda shaharlar orasida nechanchi o'rinda turgan?

2. Shaharga qancha suv kirgan?

3. Qal'aning aylanasida nimalar joylashgan?

4. Mahallalar bilan Qal'ani nima ajratib turgan?

5. Qirg'ovul haqida qanday rivoyat tarqalgan?

4-guruh:

1. Aholisi qaysi millatga mansub?

2. «Lafzi qalam bila rosttur» jumlasini nimani anglatadi?

3. Andijonliklarga xos qanday xususiyat e'tirof qilingan?

4. Andijonning ob-havosi haqida nimalarni bilib oldingiz?

5. Yusuf Xoja haqida nimalarni bilib oldingiz?

Yoki har bir guruhga 4 tadan savol quyidagi tartibda berilishi ham mumkin.

Birinchi guruhga beriladigan parcha yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Ushbu parchada nima tasvirlangan?

2. Geografiyadan olgan bilimlaringiz asosida «beshinchi iqlim»ni tushuntiring.

3. Mana, oldingizda xarita. Parchaga tayangan holda xaritadan tasvirlangan joy va uning chegarasini ko'rsatib bera olasizmi?

4. Farg'ona viloyatining geografik o'rnini mudofaa nuqtai nazardan qanday afzallikka ega ekan? Tabiiy sharoitiga ko'ra-chi?

Ikkinchi guruh uchun savol va topshiriqlar:

1. Ikkinchi lavhaning birinchi parcha bilan qanday o'xshash va farqli tomonlari borligini tushuntiring.

2. «Yetti pora qasabasi bor» jumlasini qanday tushundingiz? Qasaba bugungi kunda qaysi tushunchaga to'g'ri kelishini o'ylab ko'ring.

3. Andijonning «vasatta voqe' bo'l»ishi faqat geografik jihatdanmi yoki uning ijtimoiy-siyosiy sababi ham bormi?

4. Oxirgi uch jumladan andijonliklarning sajiyasiga xos qanday fazilatni angladingiz?

Uchinchi guruh uchun savol va topshiriqlar:

1. Movarounnahrdagi uch qo'rg'onni kattaligi va mavqeyiga ko'ra ketma-ket sanab bering. Nega aynan shunday ketma-ketlikni tanladingiz?

2. Ark so'zini qanday tushunasiz? Uning mamlakat poytaxti uchun ahamiyatini tarixdan olgan bilimlaringiz asosida izohlang.

3. Andijondagi eng ajabtovur holat nima ekanligini tushundingizmi? Buni qanday izohlash mumkinligi to'g'risida o'ylab ko'ring.

4. Qal'a bilan mahallalarning joylashish o'rnini xayolan tasavvur qiling va tasavvuringizda jonlangan lavhani tasvirlab bering.

To'rtinchi guruh uchun savol va topshiriqlar:

1. Ushbu parchani mantiqiy necha qismga bo'lish mumkinligi o'ylab ko'ring.

2. Qirg'ovuli semizligi haqidagi ma'lumot oldingi parchalardagi qaysi ma'lumotlarga mazmunan yaqin?

3. Andijon aholisi va uning tili haqida nimalarni bilib oldingiz? Ular qaysi millatga mansub? «Lafzi qalam bila rosttur» jumlasini nimaning anglatadi?

4. Andijonliklarga xos qaysi xususiyat e'tirofi hamda ob-havosidagi o'zgachalik bayon qilingan?

Diqqat qilinsa, savol va topshiriqlarning deyarli hammasi konseptual xarakterda. Ularga javob berish uchun o'quvchilar matnning diqqat bilan o'rganishlari, geografiya, tarix fanlaridan olgan bilimlarini ham tatbiq etishlari kerak bo'ladi. Chunki «O'rinli berilgan muayyan muammolik darajasiga ega har qanday savol va topshiriq bolani mustaqil fikrlashga chorlaydi» [141, 139-b.].

«Blits» so'rovi ta'lim oluvchilarda harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganilayotgan xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan keraklisini tanlab olish, shu bilan bir

qatorida, o'zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o'z asosli fikrini o'tkaza olish hamda o'z faoliyatini to'g'ri rejalashtirishni o'rgatishga qaratilgan.

Mashg'ulot bir necha bosqichda o'tkaziladi:

Yakka tartibda

1-qadam: materialni sinchiklab o'rganish va unda berilgan harakatlar ketma-ketligini to'g'ri belgilash;

– belgini qog'ozda ajratilgan «**yakka baho**» bo'limiga berilgan harakatlarning mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilash;

2-qadam: *guruh ishi (3 kishilik guruh asosida).*

– Kichik guruhdagilarning har biri o'z qog'ozidagi «**yakka baho**» bo'limida belgilangan javoblar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin 3 kishida uch xil bo'lgan ketma-ketlikni birgalashib (bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirib) kelishgan holda, tarqatilgan qog'ozdagi «**guruh bahosi**» bo'limiga muqobil raqamlarni belgilab chiqadilar;

– Guruhlar ishi yakunlanadi;

3-qadam: *javoblar va tahlillar:*

– harakatlar ketma-ketligi bo'yicha ta'lim beruvchi to'g'ri javoblarni beradi;

– berilgan javoblar ishtirokchilar tomonidan «**to'g'ri javob**» bo'limiga yoziladi;

– «**to'g'ri javob**» bo'limida berilgan raqamlar «**yakka baho**» hamda «**guruh bahosi**» bo'limidagi raqamlar solishtiriladi va kattasidan kichigi ayriladi. ayirmalar mos holda «**yakka xato**» va «**guruh xatosi**» bo'limlariga yoziladi;

4-qadam: umumlashtirish. Mashg'ulot yakuni

Blits-so'rov: «Xamsa»dagi dostonlar

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Dostonlarning nomlanishi	Yillar
					«Layli va Majnun»	
					«Saddi Iskandariy»	
					«Hayrat-ul abror»	
					«Farhod va Shirin»	
					«Sab'ai sayyor»	

2-3 ta to‘g‘ri javob – «qoniqarli»

4 ta to‘g‘ri javob – «yaxshi»

5 ta to‘g‘ri javob – «a‘lo»

Blits-so‘rovni ona tili darslarida «Olmosh» mavzusini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida biroz soddaroq shaklda quyidagicha qo‘llash mumkin:

Turlari	Kishilik olmoshlari	O‘zlik olmoshi	Ko‘rsatish olmoshlari	So‘roq olmoshlari	Belgilash olmoshlari	Bo‘lishsizlik olmoshlari	Gumon olmoshlari
Bu							
Nima							
Barcha							
Hech kim							
Kimdir							
Biz							
Allakim							
Mana							
Hamma							

Mazkur jadvalni to‘ldirishda olmosh turlari va uning so‘roqlari kesishgan katakka + belgisi qo‘yiladi. Bunda vaqt tejalgan holda o‘quvchilarning aniqlik va tezkorlik qobiliyatlari rivojlantiriladi.

«FSMU» **interfaol metodi** munozarali masalalarni hal etish, bahs-munozaralar o‘tkazish yoki o‘quv seminari yakunida o‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlari hamda o‘tilgan mavzulardagi muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida qo‘llaniladi. Bu texnologiya o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilish, erkin fikrlashga o‘rgatadi.

Undan foydalanishda ta‘lim beruvchi tinglovchilar bilan bahs mavzusini belgilab oladi va guruhlariga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va to‘ldirishi aytiladi. Bunda:

F – fikringizni bayon eting;

S – shunday fikrlashingiz sababini ayting;

M – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

Ushbu FSMU metodini qisqaroq yo‘sinda **F** – fikr; **S** – sabab; **M** – misol;

U – umumlashtirish tarzida izohlash ham mumkin.

O‘qituvchi kichik guruh a‘zolaridan o‘z fikrlarini jamoa o‘rtasida himoya qilishlarini so‘raydi.

Mashg‘ulot o‘qituvchi tomonidan muammo bo‘yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

Namuna:

Vazifa: Bobur ruboiylari yuzasidan fikrlaringizni bayon qiling.

F – Bobur ruboiylarining ko‘pchiligi hasbi hol xarakterida.

S – Vatandan bosh olib chiqib ketishga majbur bo‘lgan shoir o‘z ruboiylarida hayotda ko‘rgan ozorlarini, boshidan o‘tgan qiyinchiliklar hamda qalbdagi tuygan yurt sog‘inchini boshqa janrlarda bo‘lgan kabi ruboiylarida aks ettirgan.

M – To‘le‘ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,

Har ishni ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.

O‘z yerini qo‘yib, Hind sori yuzlandim,

Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Baxtim yo‘qligi jonimga balo bo‘ldi, deydi shoir. Chunki baxtsizlik uni vatanidan ayirdi. Demak, uning baxti – vatanda bo‘lishdir. Ikkinchi satrda nima ishni qilgan bo‘lsam, xato bo‘ldi, deydi u. Demak, Vatanni tashlab chiqishi – xato, uning uchun jonini bermagani va boshqa ellarga bosh olib ketishi – xato. O‘z yerni qo‘yib, Hindiston tomon ketishi taqdirida bor edi. Ana shu ayrilichni yuz qarolig‘ deb bilgan Bobur.

U – Bobur Vatanda yashash, undan ayrilmaslikni baxt deb bilgan. Umr bo‘yi o‘z yurtiga qaytishni orzu qilib yashagan.

Boshqa bir o‘quvchi (guruh) «Bobur yuksak mahoratga ega ruboiynavis» degan fikrni shu bosqichlarda asoslashi kerak bo‘ladi.

Vazifa: «Oq kema» – o‘lmas asar» mavzusi bo‘yicha fikrlaringizni bayon qiling.

F – «Oq kema» qissasi Chingiz Aytmatovning eng mashhur va o‘lmas asarlaridan biridir.

S – «Oq kema» asarida yaxshilik va yomonlik, mehr va shafqatsizlik, muhabbat va nafrat kabi asriy muammolar o‘zining yuksak badiiy ifodasini topganligi bois u umrboqiydir.

M – Mo‘min chol tabiatidagi soddalik, ezgulik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, kamtarlik O‘rozqul timsolidagi shafqatsizlik, takabburlik kabi illatlarga qarshi qo‘yilsa, bolakay qalbidagi soflik, mehribonlik xislatlari atrofdagi insonlarning, jumladan ota-onasining unga befarqligiga qarama-qarshi qo‘yiladi. Masalan, Bolakay shoshib turgan bo‘lsa ham o‘zining sevimli toshlarini erkalab, unga e‘tibor bilan qaraydi. Ammo bolakayning quvonchiga Seydahmad ham, O‘rozqul ham arzimas bir hodisa sifatida e‘tibor qaratishmaydi.

U – qaysiki asarda umuminsoniy qadriyatlar, ezgulik ulug‘lanar va u yuksak badiiy saviyada yaratilar ekan, u asarning umri boqiydir.

«Muloqot» metodining asosiy maqsadi tanlangan mavzu, muammo asosida ta‘lim oluvchilarning fikrlari hamda ushbu mavzuga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratish, muloqotga kirishish va muloqot qila olishga o‘rgatish.

Amalga oshirish tartibi:

1-bosqich. Ta‘lim beruvchi mashg‘ulotni muloqot mavzusini aniqlashdan boshlaydi. Masalan, O‘tkir Hoshimovning «Urushning so‘nggi qurboni» asari (6-sinf adabiyot darsligi)dagi onaning o‘limiga kim yoki nima sababchi?

A. Davr – 1-guruh

B. Shoikrom – 2-guruh

S. Kelin – 3- guruh

D. Onaning o‘zi – 4- guruh

Ular shu tartibda guruhlariga ajratiladi va tayyorgarlik ko‘rishlari uchun sharoit hamda imkoniyatga qarab aniq vaqt belgilanadi.

2-bosqich. Har bir kichik guruhdagi ishtirokchilar o‘z muammolari doirasida misollar, o‘z fikrlarini tasdiqlovchi asardan olingan so‘zlar – dalillarni tayyorlaydilar.

3-bosqich. Kichik guruhlar himoyaga tayyor bo‘lgach, o‘qituvchi himoya uchun so‘z beradi. Kichik guruh vakili jamoa nomidan so‘zga chiqib, ularga berilgan mavzu asosida tayyorlangan materiallar va

dalillar asosida himoya qilishga kirishadi. Uning soʻzi tugagach, guruhning xohlagan aʼzosi qoʻshimcha qilishi mumkin.

4- bosqich. Guruhlar taqdimoti.

5-bosqich. Guruhlar oʻrtasida savol-javob. Ularga fikrlarini isbotlash va qolganlarni ham oʻz fikrlariga qoʻshilishlariga da'vat qilish uchun imkon beriladi. Androgog ijodiy muhit yaratgan holda bahs-munozarani samimiylik bilan boshqaradi.

6-bosqich. Fikrlarni umumlashtirish, xulosalash.

Soʻnggi-yillarda pedagogika va metodika yoʻnalishida olib borilgan tadqiqotlarda bilimlarning samarali oʻzlashtirilishida **muammoli oʻqitish, modulli, rivojlantiruvchi, oʻyinli, hamkorlik taʼlimi** kabi ilgʻor texnologik usullarga katta eʼtibor berilmoqda. Ulardan ona tili va adabiyot oʻqituvchisining kasbiy malakasini rivojlantirishda qanday foydalanish mumkin? Masalan, muammoli oʻqitish zamonaviy taʼlim mohiyatini aks ettiruvchi ilgʻor metod hisoblanadi. Undan taʼlim oluvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash va maʼlum xulosalarga kelish kabi koʻnikma va malakalarni shakllantirish maqsadida foydalaniladi.

Malaka oshirish jarayonida ona tili va adabiyot oʻqituvchilariga darslarni tashkil etish mummolariga oid topshiriqlar va masalalar berish orqali ularda bilish faolligi va ijodiy tafakkur shakllantiriladi. Malaka oshirish jarayonida muammoli oʻqitishning muammoli vaziyatlarni hosil qilish va hal etish metodidan foydalanish ona tili va adabiyot oʻqituvchilarida darslarni samarali tashkil etish, shakl, metod, vosita va yoʻllarini toʻgʻri tanlashga yordam beradi. Mazkur metod tinglovchilarga muammoning bir necha xil variantdagi yechimini ilgari surish, ularning amaliy qiymatini baholash, ilgari surilgan muqobil variantlar orasidan eng mosini tanlash imkonini yaratadi.

Ona tili va adabiyot oʻqituvchilari faoliyati uchun ahamiyatli boʻlgan ayrim muammolarni hal qilishda mazkur metoddan samarali foydalanish mumkin. Mashgʻulotni oʻtkazish muayyan muammoli vaziyatni belgilab olishdan boshlanadi, bunda muammoning dolzarbligi va oʻziga xosligi nazarda tutiladi. Bir mavzuga oid qator muammolar olinib, undan eng dolzarblari ajratiladi. Tinglovchilar dars davomida yakka, juftlikda yoki kichik guruhda faoliyat olib borishlari

tushuntiriladi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish metodidan foydalangan holda o‘tkaziladigan ayrim mashg‘ulotlar namunasini quyidagi misollarda ko‘rish mumkin.

7-sinfda A.Qahorning «Dahshat» hikoyasini tahlil qilishda «Asar qahramoni Unsinni qabristonda qumg‘on qaynatib dodxonikidan ketishga nima majbur qildi?» muammosi qo‘yilsa, ushbu muammoni keltirib chiqaruvchi sabablar – o‘zi yashayotgan nobop sharoitga ko‘nikmaslik, erkin yashash istagi, kundoshlik alami, yoshlik qilgani, ota-ona sog‘inchi, yangi va yaxshi hayotga intilish va hokazo mulohazalar bayon etilsa, muammoni hal etish yo‘llari: irodali, erksevar insonni yengib bo‘lmasligi, Olim dodxo kabi zulmkor insonlardan qutulish, axloqsizlikni bartaraf etish, hayot sinovlariga «jim o‘tirmasdan» kurashish kerakligi kabilar nazarda tutiladi.

8-sinfda Said Ahmadning «Ufq» romanidan berilgan «Qochoq» parchasi matnini tahlil qilishda quyidagi muammoli vaziyatni hal etish nazarda tutiladi:

Muammo turi	Muammoning kelib chiqish sababi	Muammoning yechimi
Tursunboyning urushdan qochib kelishiga qanday sabablar bor?	Tursunboyning xudbinligi. Farzandga berilgan ortiqcha mehrning qahrga aylanganligi. Qo‘rquv va vijdon azobining barcha tuyg‘ulardan ustun bo‘lganligi. O‘g‘ilning ortiqcha erkalatilgani.	Farzanddan mehr olish uchun unga keragicha mehr hamda to‘g‘ri tarbiya berish kerak.

6-sinf ona tili darsligida berilgan «Shakl yasovchi qo‘shimchalar» mavzusini o‘qitishda quyidagi muammoni aniqlash texnologiyasidan foydalanish tavsiya qilinadi:

Muammo turi	Muammoning kelib chiqish sababi	Muammoning yechimi
Otlarda egalik va fe'llarda shaxs-son shaklini qanday ajratish mumkin	Chunki har ikkala shakllar ham bir xil ko‘rinishda. M.: kitobim, bordim.	Egalik shakllari otlarga bog‘lanib narsa-buyumning egasini bildiradi. Shaxs-son shakli fe'llarga qo‘shilib, ish-harakatning bajaruvchisini bildiradi

Muammoli ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u o'quvchini qo'yilgan muammo yechimini topish uchun ilmiy-ijodiy tafakkur yuritish, jadal va mantiqli fikrlash, so'z va atamalar, asar g'oyasi hamda ma'nosini o'zaro qiyoslash, o'zi uchun eng to'g'ri yechimni tanlash imkoniyatlarini beradi. Bu texnologiya o'quvchini izchil va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradi. O'rganuvchi subyektning o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanishiga olib keladi, xususiy intellektual iste'dod qirralarini ochishga xizmat qiladi. Muammoli ta'limda individ ruhiyati, uning o'zlashtirish qobiliyati, bilim darajasi, ijodkorlik va omilkorlik fazilatlari yuzaga chiqadi. Mantiqiy fikrlash, xato qilmaslik kabi zaruriyatlarning paydo bo'lishi o'quvchini izlanish va kashf qilishga yo'naltiradi. Uni shaxs sifatida o'zligini anglashga, o'z bilimi va iqtidorini o'zgalarga namoyish qilish istagini tug'diradi.

Texnologiyaning afzalliklari. Ishtirokchilar hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Muammoni aniqlash ko'nikmalari shakllanadi. Diqqatni, idrok qilishni, mantiqiy fikrlashni, muammolar ichidan dolzarbini ajratib olishni o'rganadi.

Kamchiliklari. Vaqt ko'p sarflanadi. Barcha ishtirokchilarning fikrlari to'liq inobatga olinmasligi mumkin. O'zaro bir to'xtamga kelish uchun ortiqcha mulohazalar qayd etilishi kuzatiladi va hokazo.

Muammoli vaziyatlarni yaratish metodi orqali o'quvchilar turli hayotiy muammolarga tez va to'g'ri yechim topishga odatlantiriladi. Masalan, she'riy asarlar misolida 7-sinf adabiyot darsligidagi Cho'lponning «Binafsha» she'rini tahlil qilishda o'quvchilarni asar matnidan kelib chiqib, she'rdagi binafsha timsoli qanday ma'noni anglatayotgani to'g'risida, u haqiqatan ham bahor guli – binafshami, muammosi qo'yilsa, ushbu muammoning yechimi sifatida o'quvchilarning aksariyati she'rda shoirning ichki kechinmalari ko'klam ko'katiga qaratilgan degan javob berishi, shubhasiz. Shuningdek, «Sevgingga, qayg'ungga tutilgan» misralari orqali xo'rlangan qiz javobi ham ular e'tiborida bo'lishi tabiiy. Ammo o'qituvchi bu jarayonda o'quvchilar diqqatini «Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri» misralariga qaratib, haqoratlangan yurt, ezilgan millat ma'nolarini o'zida jam etgan binafsha timsoli ko'chim orqali she'rga joziba baxsh etayotganiga ham e'tibor tortishi muammoli ta'limning kishini o'ylatadigan jihatlariga egaligini ko'rsatadi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi bo'yicha amalga oshiriladigan o'quv-tashkiliy ishlar quyidagi ketma-ketlikda bajarilgani ma'qul:

- ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratish;
- mavzuga doir muammolarni guruh ishtirokchilariga taqsimlash;
- tanlangan mavzudagi asosiy muammoni ajratib olish;
- shu muammoning kelib chiqish sabablarini o'zaro o'rganish va bir to'xtamga kelish;
- muammoni yechish yo'llarini ishlab chiqish;
- bajarilgan ishni guruhda ko'rib chiqib, taqdimot qilish uchun tayyorlash;
- guruhlar taqdimotini o'tkazish;
- yondosh guruhlarining bajargan ishlarini tahlil qilish va munosabat bildirish;
- muammoli ta'lim texnologiyasi bo'yicha umumiy xulosa chiqarish.

Ona tili adabiyot o'quv dasturidagi turli mavzular bo'yicha dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullarini oldindan ko'zda tutishga ham e'tibor qaratish zarur.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- o'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi;
- bir masalaga doir turli nuqtai nazarlarni bayon qiladi;
- hal etish uchun yetarli bo'lmagan, ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etadi.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;
- o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda topadi;
- o'quvchilarning o'zlari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:

- muammoni turli nuqtai nazardan o'rganish, tahlil qilish;
- solishtirish, umumlashtirish;
- faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;

– o‘quvchilarning o‘zlari aniq savollar qo‘yishi va boshqalar.

Bunday mashg‘ulotda tinglovchilar quyidagi vazifalarni bajarishlari tavsiya qilinadi:

Tinglovchilar o‘z mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘zlari tanlagan mavzuda darsni eng maqsadga muvofiq muammoli o‘qitish turlaridan foydalanib o‘tkazish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlaydilar va uning asosida guruh ishtirokida shu mashg‘ulotni qisqa bayon qilib beradilar va tegishli muhokama o‘tkaziladi. Bunda tinglovchilarning quyidagi masalalar bo‘yicha bilim, ko‘nikma malakalarini yanada mustahkamlash nazarda tutiladi:

– O‘quv fani va darslar mavzusini o‘rgatishda ular bilan bog‘liq muammoli masalalarni belgilash, ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish. O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish. Zarur o‘quv vositalarini tayyorlash.

– Muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni ko‘rsatish, topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish.

– O‘quvchilarning muammoni hal etishda yo‘l qo‘yayotgan xatolarini, ularning sababi va xususiyatlarini ko‘rsatish. O‘quvchilarning noto‘g‘ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to‘g‘ri yo‘lni topishlariga ko‘maklashish va boshqalar.

Muammoli vaziyatlar hayotiy yoki maxsus tayyorlangan hodisalar misolida tinglovchilar e‘tiboriga havola etilishi o‘zini oqlaydi. Chunki o‘z kasbiy faoliyatida duch keladigan psixologik-pedagogik hodisalarga tegishli muammolar yechimini topishdan har bir tinglovchi manfaatdordir.

Malaka oshirish kurslarida pedagogik texnologiyaning **modulli ta’lim** turidan ona tili va adabiyot o‘qituvchilarilarning mustaqil ta’lim olishlarini yo‘lga qo‘yish, malaka oshirishga qadar ma’lum o‘quv materiallari bilan ta’minlash hamda kursdan keyin ularning faoliyati yuzasidan monitoringini tashkil etish maqsadida foydalanish maqsadga muvofiq.

Modulli ta’limni tashkil etish yuzasidan J.G‘.Yo‘ldoshev va S.Hasanov [78; 547-b.] singari olimlar bildirgan fikrlar katta ahamiyatga ega. Ma’lumki, modullar kichik modul, modullar to‘plami, birlamchi modul va modul darajasi kabi tushunchalarni o‘z

ichiga oladi. Kichik modul – pedagogik texnologiya tarkibidagi eng kichik birlik va bu modulni tashkil qiluvchi boshqa kichik modullarga ajratish mumkin emas.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning modullari quyidagi darajalarga bo‘linadi;

- bir mashg‘ulotni o‘tkazishga mo‘ljallangan modullar;
- o‘quv fanining bir bo‘limi, bir qismi yoki hammasining tarkibiy bo‘laklarini va o‘qitish texnologiyasini tashkil etuvchi modullar (ular bloklar deb ham nomlanadi);
- DTSning tarkibiy bo‘laklarini va ularning bajarilishini ta‘minlash texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar;
- o‘quv reja va dasturlarning tarkibiy bo‘laklarini va ularni bajarilishini ta‘minlash texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar;
- ta‘lim vositalarini tashkil qiluvchi modullar;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar jarayonida qo‘llaniladigan usullarni tashkil qiluvchi modullar.

Modul o‘zgarmas, qotib qolgan narsa emas, balki modulda belgilangan maqsadni o‘zgartirmagan holda uni to‘liq amalga oshirishni ta‘minlovchi, o‘zaro farq qiluvchi turli yo‘llar, usullar, vositalar qo‘llanilishi mumkinligini inobatga olib, «Adabiyot fanidan darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish va loyihalashtirish» mavzusida berilgan dars modulini quyidagi ko‘rinishda aks ettirdik (2.1-rasmga qarang):

Shu bilan birga modulli ta‘lim tinglovchilarni masofadan o‘qitish imkonini ham beradi. Bunda ona tili va adabiyot o‘qituvchilariga o‘quv materiallari kompyuterli aloqa tarmog‘i orqali alohida modullar ko‘rinishida yetkaziladi. O‘qituvchilar materiallarni to‘la o‘rganib chiqishgach, o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni mustaqil baholash va yanada mustahkamlashga xizmat qiluvchi topshiriq (mashq)lar yuboriladi. Adabiyot yo‘nalishida tashkil etilgan yangi saytlar haqida ham ma‘lumotlar berib boriladi.

Adabiyot fanidan darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish va loyihalashtirish mavzusidagi dars moduli				
Kichik modul	Modulning didaktik maqsadi	Tinglovchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan material yuzasidan topshiriqlar	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar	Baho
1	2	3	4	5
1-KM	Tinglovchilarning mavzuga doir bilimlarini savol-javoblar asosida aniqlash	Savollar: 1. Adabiyot darslari uchun ishlanmalar yaratishda nimalarga e'tibor qaratasiz? 1. Darsning texnologik xaritasida asosan nimalarni aks ettirasiz? 1. Darsni loyiha-lash ko'nikmasiga egamisiz?	Savollarni diqqat bilan o'qib, har bir savolga Siz uchun ahamiyatli bo'lgan 3ta asosiy fikrni yozing.	
2-KM	Darsning maqsadi, turi, metodi, usuli, jihozlani-shi, vositalar, o'quv jarayonini tashkil etish, dars jarayoni, dars rejasi, kutiladigan natija: «Loyihalash» haqida tushunchaga ega bo'lish.	Dars maqsadini qo'yishda nimalarga e'tibor qaratish zarur? Metod, usul va vositalarning dars jarayonidagi ahamiyati nimada? O'quv jarayonini tashkil etish va dars jarayonida farqlar bo'ladimi? Adabiyot darsidan qanday natija kutasiz? Loyihalash nima? Uning qanday shakllarini bilasiz?	1. Qo'lingizdagi texnologik xarita bilan namunasi bilan o'zingiz darsda ishlab chiqadigan texnologik xaritani qiyoslang. 2. O'ng qo'ldagi hamkasbingiz bilan juftlikda dars samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan 7tasini ajratib ko'rsating.	
3-KM	Tinglovchilarning bilim darajasi, ma'lumotlarga e'tibor qaratish va muhimlarini saralash imkoniyatlarini kengaytirish	Darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish va loyihalashtirish bo'yicha berilgan nazariy ma'lumotni o'qib, qisqacha lug'at shakllantiring	Mustaqil ishlang.	

4- KM	Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, darslarga ijodiy yondashishga undash.	Nasriy asarlar vositasida. Dramatik asarlar asosida. She'riy asarlar yordamida. Dostonlar orqali va h.k.	Adabiyot fanidan aniq bir mavzuda dars modulini guruhingiz bilan ishlab chiqing.
5- KM	Yangi mavzu bo'yicha berilgan bilimlarni aniq-lash va mustah-kamlash	Masalan, loyihalash, texnologik xarita, darsning maqsadi, metod, usul, kutiladigan natija va h.k.	Daftaringizga dars jarayonida yodda qolgan 2ta atamani ayting. Sizdan avvalgilar aytgan fikrni takrorlamang.
6- KM	Modulni yakunlash. Modul dasturi bo'yicha tinglovchilar fikrini bilish.	Uyga vazifa: O'z faoliyatingizda xatoga yo'l qo'ygani bo'lsangiz, modul dasturi yordamida takroran ishlang. O'tilgan mavzu yuzasidan darsning texnologik xaritasini ishlang.	Modul dasturi haqida o'z fikringizni bayon eting.

2.1-rasm. «Adabiyot fanidan darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish va loyihalashtirish» mavzusidagi dars moduli

Hamkorlik ta'limi pedagog va tinglovchilarning ta'limiy faoliyat jarayonida birgalikda faoliyat ko'rsatishi, rivojlanishi, bir-birini chuqur anglash, o'zaro hissiy yaqinlik, faoliyat bosqichlari va ularda erishilgan natijalarni hamkorlikda tahlil qilishini ko'zda tutib, ilg'or, rivojlantiruvchi g'oyalari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Hamkorlik ta'limi quyidagi maqsadli yo'nalishlarga asoslanadi:

- pedagogik maqsadlarga muvofiq holda ta'limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish;
- tinglovchiga insonparvarlik g'oyalari asosida individual yondashish;
- ta'lim jarayonida kasbiy va ma'naviy birlikning qaror topishiga erishish.

Hamkorlik ta'limining asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini birgalikda bajarish hamda birgalikda ta'lim olish. Bunday ta'lim texnologiyasida tinglovchining topshiriqlarni sherigi bilan hamkorlikda to'g'ri bajarishi hamda guruhning har bir a'zosida ta'limiy faollikni yuzaga keltirishiga ham e'tibor qaratish lozim. Eng muhimi, hamkorlik pedagogikasi o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham erk beradi. Har biri o'z xatti-harakatining oqibati haqida o'zi o'ylaydigan bo'ladi. Biz tajriba-sinov ishlarimizda hamkorlik ta'limidan uch bosqich asosida foydalandik:

1-bosqich – malaka oshirish kurslari pedagoglari ta'lim jarayonini tashkil etishga tayyorgarlik ko'radilar, bunda ishtirokchilar oldindan o'rganiladi, sodir bo'lish imkoni mavjud muammoli vaziyatlarga mos muqobil usullar e'tiborga olinadi, jihozlar va joy tayyorlanadi.

2-bosqich – ta'lim jarayonini amalga oshirish (ya'ni guruh ishini tashkil etish, muammoni hal etish yo'llarini guruh ishtirokida ishlab chiqib, ma'qullarini tanlash).

3-bosqich – ta'lim jarayoni va uning yakunlarini tahlil etish, xulosaga kelish.

Malaka oshirish haqida so'z borganda hamisha tilga olinuvchi **trening** atamasi ona tili va adabiyot o'qituvchilarining darslarni tashkil etish borasidagi quyidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirishda o'ziga xos ahamiyatga ega:

- zarur o'quv-metodik hujjatlar (ish rejasi, hisobot)ni yuritish;
- o'quvchilarda shaxslik fazilatlarini qaror toptirish;
- o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash;
- o'quvchilarga asardagi qahramonlar obrazi orqali ezgu xulq va fazilatlarni singdirish;
- dars jarayonida uchraydigan muammoli vaziyatlarni bartaraf etish choralarini o'ylash;
- ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish bo'yicha pedagogik, metodik ko'rsatmalarni o'zlashtirish;
- ta'lim subyektlari, jamoa a'zolari va boshqalar bilan yuzaga keladigan kutilmagan vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini topish;
- o'quvchilarning qiziqish, layoqat va qobiliyatlarini inobatga olish asosida ularni muayyan kasb yoki hunarlarga to'g'ri yo'naltirish;
- samarali ta'lim metodlari va ilg'or pedagogik texnologiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish;

– shaxslararo munosabatlarni hamda ona tili va adabiyot darslarini samarali tashkil etishga, ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga yordam beruvchi treninglar tashkil etish.

Malaka oshirish jarayonida keng qo‘llanilayotgan ta‘lim samaradorligini ta‘minlovchi yana bir usul **bahs-munozaraning** amaliyotda ko‘p qo‘llanishi kuzatilmoqda. Zotan, aynan bahs-munozaralar ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining o‘zaro tajriba almashishlarini ta‘minlaydi, nazariy bilimlarini boyitib, sohada qo‘lga kiritilgan yutuq va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan yaqindan tanishtiradi.

Bahs-munozara usuli samaradorligini oshirish uchun uni kichik guruhlarda tashkil etish lozim. Bu har bir tinglovchining faol ishtirokiga imkon beradi. Tinglovchiga ona tili va adabiyot darslarini tashkil etishda e‘tibor qaratishi zarur bo‘lgan jihatlarni chuqur anglash, dars samaradorligini kafolatlovchi metodlar bilan tanishish, pedagogika va metodika yo‘nalishlarida so‘nggi-yillarda yaratilgan yangi adabiyotlarni o‘rganish imkoni yaratiladi. Bahs-munozaralarning muayyan mavzuda tashkil etilishi tinglovchilar faoliyatini aniq maqsadga yo‘naltiradi. Bunday mashg‘ulotni tashkil qilishda boshlovchi (trener yoki androgog–pedagog, faol tinglovchi yoki taklif etilgan mutaxassis) bahs-munozara uchun mavzuga doir savollar tuzib, mashg‘ulotning taxminiy loyihasini ishlab chiqadi, tinglovchilar bildiradigan fikrlarni oldindan chamalab, tezis tayyorlaydi. Bu bahs-munozaralarning tartibli kechishi, mavzudan chetga chiqmaslik, bildirilayotgan fikrlar orasidan muhimlarini ajratib olish va ular asosida yagona xulosaga kelishni ta‘minlaydi.

Bahs-munozaralarning samarali kechishini ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining ta‘lim jarayoni va uni maqsadga muvofiq tashkil etish usullari borasida muayyan nazariy bilim va amaliy tajribaga ega bo‘lishlarini ham ta‘minlaydi. Zero, bahs-munozarani tashkil etuvchi subyekt muammoning yechimini topish yo‘llari haqida hech qanday ma‘lumot, ko‘rsatma yoki maslahat bermaydi. Yechimni topish butkul tinglovchilar zimmasida bo‘lib, ular shu maqsadda mustaqil faoliyat yuritadilar. Boshlovchi zarur o‘rinlardagina rag‘batlantirishi, tinglovchilarni faollikka da‘vat etishi yoki navbatdagi savolni o‘rtaga tashlashi mumkin. Ana shu xususiyatiga ko‘ra bahs-munozarani

muayyan muammoning nazariy yechimini topishga yo'naltirilgan kichik tadqiqotga qiyoslash mumkin.

Texnik vositalarning takomillashuvi ular xizmatidan foydalanish ko'lamining kengayishiga zamin yaratdi. Bugun ta'lim jarayonida turli axborot texnologiyalari va zamonaviy texnik qurilmalardan foydalanish odat tusini oldi. **Videotahlil** biror mashg'ulot mazmuniga tegishli muayyan hodisalarni tasvir yordamida qayta o'rganish, vaziyatni batafsil tahlil qilish imkonini beradi. Muammoli ta'lim unsuri bo'lmish videotahlil tinglovchilarni shaxslararo munosabatlar mazmunini anglash, muammoli vaziyatlarni yechish, ona tili va adabiyot darslarini tashkil etish borasidagi ilg'or tajribalar bilan tanishtirishda yaxshi samara beradi. Videotahlil uchun o'quv ko'rsatuvlari, diafilmlar, ona tili va adabiyot o'qituvchilarining ish tajribalarini yorituvchi lavhalar tanlanadi. Videotahlil yordamida, shuningdek, trening, rolli o'yin va bahs-munozaralar mazmuni hamda natijalarini baholash mumkin. Malaka oshirish jarayonida videotahlilni ommaviy (kurs) yoki guruh ishtirokida qo'llagan ma'qul.

Malaka oshirish jarayonida ona tili va adabiyot o'qituvchilarini dolzarb pedagogik, metodik muammolar tekshirilgan tadqiqot natijalari, ona tili va adabiyot darslarini tashkil etish bo'yicha ilg'or tajribalar bilan tanishtirish, o'qituvchini o'rganish hamda rivojlanishini ta'minlashda **taqdimot (yoki himoya)** metodidan foydalanish maqsadga muvofiq. Tinglovchilarning kurs yakunidagi malaka ishlari himoyasini bunday taqdimot shaklida o'tkazishning yaxshi natija berishi tajriba-sinovda isbotlandi. Mazkur metod ona tili va adabiyot o'qituvchilarida o'z kasbiy faoliyatlarini tashkil etishga ijodiy yondashish hamda mustaqil bilim o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Taqdimot yoki himoya metodidan foydalanishda muammoning mohiyati, yechimi va unga bog'liq tavsiyalarni turli shakllardagi jadval, sxema, tasvir, rasm, belgilar va boshqa ko'rinishlarda ifodalash orqali yaqqol namoyish qilib, tushuntirish imkoniyatiga ega bo'linadi.

O'yin texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish demakdir. Ularni umumiy tarzda rolli va ishbilarmonlik o'yinlariga ajratish mumkin. O'yinning ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy malakalarini oshirishdagi imkoniyatlari hamda mohiyatini o'rganish jarayonida ishbilarmonlik o'yinlari u

qadar ta'sirchan emasligi ma'lum bo'ldi. Shu sababli kurslarda mashg'ulotlarni tashkil etishda asosan rolli o'yinlardan foydalanildi.

Rolli o'yinlar ona tili va adabiyot o'qituvchilariga darsni samarali tashkil etish ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga yordam beradi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari turli rollarni bajarish bilan pedagogik, psixologik, metodik muammolarni hal etish, ona tili va adabiyot o'qituvchilari uchun zarur nazariy bilimlarni to'la anglash, ilgari kam e'tibor berilgan muammolar yuzasidan fikrlash imkoniga ega bo'ladilar. Masalan, rolli o'yin ta'lim amaliyotida uchraydigan turli muammo yoki vaziyatlarni sahna ko'rinishlari, rolli harakatlar orqali yoritilishiga xizmat qiladi. Tinglovchilar o'ynayotgan rollari orqali pedagogik muammo yoki vaziyatlar mohiyatini chuqurroq anglashadi.


Rolli o'yinlardan samarali foydalanish uchun tinglovchilarni rolli o'yinlar mohiyati va shartlari bilan tanishtirish; rol taqsimlashda ular imkoniyati va kasbiy layoqatlarini inobatga olish; o'yin vaqtini oldindan belgilab, ishtirokchilarga ma'lum qilish; o'yinda butun guruh to'liq ishtirok etishini ta'minlash; ona tili va adabiyot o'qituvchisi uchun rolli o'yinlardan foydalanish ahamiyatini baholash va kutilayotgan natijani taxmin qilish talab etiladi. Rolli o'yinlar yordamida ta'lim jarayonini tashkil etishda mazmun va tashkiliy jihatdan puxta tayyorlanish, muammolarning mantiqiy va hayotiyligini ta'minlash, rollarni ishtirokchilar potensialiga ko'ra to'g'ri taqsimlash, rolli vaziyatlarni oldindan maqsadli tayyorlash kabilarga e'tibor berish kerak. Albatta, malaka oshirish tizimida rolli kasbiy o'yinlar usulidan juda ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur.

Malaka oshirishning o'z ustida mustaqil ishlash, og'zaki, amaliy, ko'rgazmali, muammoli-izlanish, tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosida tashkil qilinadigan tadbirlar (seminar, ilmiy-amaliy konferensiya, o'zaro tajriba almashish (stajirovka), maslahat, uchrashuv) kabi shakllari mavjudligini unutmaslik lozim. Biz umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari malakasini oshirish jarayonida «Filologiya yo'nalishidagi fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari va ta'lim samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan metod va usullar» mavzusida muntazam seminar darslari tashkil etdik va bu shakllar samaradorlik omillaridan bir ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Malaka oshirishda o'quv mashg'ulotlarining ma'ruza, kichik ma'ruza, seminar, o'quv-munozara, davra suhbat, munozara, savol-javob, maslahat hamda trening shaklida olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'ruza metodiga asoslanuvchi mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagicha ish ko'riladi: o'qituvchi o'z ma'ruzasini 15-20 daqiqalik bir necha muhim bo'limlarga bo'lib, har bo'limdan keyin kichik mashq yordamida ishtirokchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantiradi. Mavzuga oid ayrim muammolar xususida savollar beradi, bu borada fikr bildirish uchun tinglovchilarga imkon yaratadi. Bunday yondashuv tinglovchilarda qiziqish uyg'otib, mashg'ulot samarasini ta'minlaydi. Malaka oshirish kurslarida qo'llaniladigan ta'lim oluvchilarga individual yondashish tamoyili tinglovchilarni malaka oshirish jarayoniga tezkor moslashtiradi.

Ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonida yuqoridagi kabi ta'lim texnologiyalari va metodlaridan foydalanish ularning ta'lim mohiyati, maqsadi, tamoyillari va yo'nalishlariga oid nazariy bilimlarini mustahkamlash, kasbiy faoliyatini to'g'ri rejalashtirish, muayyan tadbirlar texnologik xaritasi yoki loyihasini ishlab chiqish bo'yicha kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. Ilmiy tahlil natijasida kelingan xulosalarga tayanib «Ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning didaktik modeli» ishlab chiqildi (2.2-rasmga qarang).

Ona tili va adabiyot o'qituvchisi ta'limni qanday usulda tashkil etishidan qat'iy nazar, notiqlik hamisha eng zarur kasbiy-shaxsiy jihat bo'lib qolaveradi. Nutq tempi tovushning tez yoki sekin maromidan iborat va unga tobe. O'qituvchi nutqi shiddatli ham, sust ham bo'lmasligi kerak. Agar tez gapirilsa, ayrim o'rinlar tinglovchilarga anglashilmay qolib, ularni charchatib qo'yishi mumkin. Sust gapirish esa uyqu keltiradi. Bundan tashqari, qat'iy ravishda adabiy til qonun-qoidalariga, adabiy til me'yorlariga amal qilish, nutqning namunali bo'lishini ta'minlovchi barcha vositalardan o'rinli foydalanish, nutqni nazorat qilish, so'z qo'llash, ovozning baland-pastligini o'zgartirib turish kabi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.



2.2-rasm. Ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning didaktik modeli

2.3. Ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining masofadan malakasini oshirish kursini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi

Globalashuv davrida ta’lim jarayoniga an’anaviy tushunchalar qatorida masofaviy ta’lim tushunchasining kirib kelishi ta’lim tizimi takomillashuvini, ya’ni texnika asrining asosiy maqsad va vazifalarini belgilab beruvchi kuchga aylanmoqda.

Bugungi ta’lim amaliyotida tobora keng yoyilib borayotgan *masofadan o‘qitish* o‘qituvchi bilan tinglovchi (o‘quvchi)ning ma’lum bir masofada turib, o‘quv jarayoniga tegishli maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar singari barcha unsurlarni saqlagan holda internet texnologiyasi yoki boshqa interaktiv usullar orqali birgalikda amalga oshiriladigan ta’limiy faoliyatidir.

Professor U.Begimqulov [42] masofaviy o‘qitish – eng yaxshi innovatsion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta’lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasi ekanligi, u ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalarida asosida o‘quv shart-sharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta’minlab, o‘quvchidan ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullanishni talab qiluvchi tizim ekanligini qayd etadi. Bunda o‘qitish jarayoni ta’lim oluvchining qaysi zamonda va qanday makonda ekanidan qat’i nazar yo‘lga qo‘yilishi bilan xarakterlanadi.

Professor N.Muslimov masofadan o‘qitishni talabalarning mustaqil bilim olish tamoyiliga va o‘rganiladigan asosiy o‘quv materiallarini ta’lim oluvchiga yetkazishni ta’minlovchi axborot texnologiyalari majmuiga tayanilgan holda amalga oshiriladigan yangi ta’lim jarayoni tuzilmasi sifatida ta’riflaydi [101].

Tadqiqotchi A.Asqarov [40; 15-b.] masofadan o‘qitishda axborot uzatishning zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari va maxsus virtual kurslar muhim shart hisoblanib, malaka oshirishning tegishli o‘quv dasturi bo‘yicha materiallarning asosiy qismi tinglovchilarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib masofadan taqdim etilishini qayd etadi.

A.Ibraymov [69; 12-b.] masofaviy malaka oshirishda laboratoriya ishlari, namoyish tajribalar, masalalar yechishni o‘qituvchilarga har ikkala uslubda, ya’ni ham tabiiy, ham virtual shakllarda

integratsiyalashgan holda parallel o'qitish samaradorlikka erishish yo'llaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Masofaviy ta'limning afzalligi xususida fikr yuritayotganda uning metodik, iqtisodiy, sotsial jihatdan qulayligini e'tirof etish lozim. Xususan, metodik tomondan dars jadvalining qulayligi, tinglovchi o'ziga ma'qul bo'lgan vaqtda o'quv jarayoniga qatnashishi mumkinligi; foydalanish manzillari, o'qish tempi, o'quv rejaning qulayligi; ma'lumotlar bazasining to'planishi, oldin o'qigan tinglovchilar tegishli ma'lumotlarni yig'ish va undan foydalanish imkoniyati; ko'rgazmali qulayliklari borligi, multimedia imkoniyatlaridan to'liq foydalanish mumkinligi; malakali o'qituvchilarni tanlab ta'lim jarayoniga jalb qilish kabi jihatlari mavjud.

Iqtisodiy jihatdan afzalliklariga cheksiz masofada ta'lim berish; ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi masofaning ahamiyatsizligi; ish jarayoniga xalaqit bermasligi; ta'lim oluvchilar sonini istagancha oshirib borish mumkinligi; kamchiqimligi kabilarni kiritish mumkin.

Sotsial yutuqlariga ijtimoiy guruhlariga ajratishning yo'qligi: markazdan uzoqda, kam o'zlashtirilgan mintaqalar aholisi, jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar, erkin ko'chib yurishi cheklangan shaxslar va boshqalar qatnashishi mumkinligi kabilarni qayd etish mumkin.

Masofaviy ta'lim o'quv jarayonida tinglovchi o'quv materiallarini va topshiriqlarni o'z kompyuteriga oladi, bajarilgan test va nazorat ishlarini o'qituvchiga Internet yoki elektron pochta orqali yuboradi. Bundan tashqari, tinglovchi o'z o'qituvchisi yoki usuliyotchisiga savollar bilan murojaat qilishi va ularga javob olishi mumkin.

Masofaviy ta'lim nafaqat tinglovchilarga masofadan turib ta'lim berishni, balki ularning olgan bilimlarini masofadan turib nazorat qilishni ham anglatadi. Bu o'rinda ta'lim olayotgan tinglovchilar va o'quvchilarning olgan bilimlarini masofadan turib nazorat qilish va baholash natijalarini olishni yo'lga qo'yish dolzarb muammolardan biridir. Bizning respublikamizda ham tinglovchilar bilimini nazorat qilishda test usulidan foydalanish samarali natijalar bermoqda. Ammo, tan olish kerakki, ona tili va adabiy ta'limda bunday usulda olib boriladigan nazorat soha imkoniyatlarini keng ochib bera olmaydi. Shu maqsadda testning tinglovchini ijodiy ishlashga undaydigan

nazorat va ochiq turlarini kiritish (testning ijobiy-intellektual imkoniyatlarini inkor etmagan holda, albatta) zarurati yuzaga keladi.

Ushbu malaka oshirish shaklini amalga oshirish jarayonida elektron holatdagi ta'lim va muloqot jarayonlariga ishonchsizlik; virtual muhit va texnik ta'minot bilan bog'liqligi; ta'lim jarayoni ishtirokchilarining kompyuter bilan to'liq ta'minlanmaganligi; o'quv materiallarini ishlab chiqish uchun yetarli darajada salohiyatga ega soha mutaxassislarining kamligi; kurs tinglovchilari uchun beriladigan topshiriqlarda mustaqil fikrlash doirasi kompyuterning texnik imkoniyatlari bilan chegaralanganligi; topshiriqlar nazoratini amalga oshirish «shablon»ga tushib qolganligi kabi muammolar ham mavjud.

Masofadan o'qitishda interfaol usullardagi kabi ta'lim jarayonining markazida tinglovchi turadi. Tinglovchilar bu jarayonda o'qituvchilar yoki tyutorlar bilan bilvosita muloqotda bo'ladilar. Ammo, ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchilarini masofadan o'qitishda o'qituvchi bilan tinglovchining orasida to'g'ridan-to'g'ri muloqotning yo'qligi ham ba'zi muammolarni keltirib chiqaradi. Uning ijobiy tomonlari bo'lishiga qaramasdan, uni ta'limning an'anaviy shakli bilan teng, deb hisoblash juda qiyin.

E.Leyrd fikricha, masofadan o'qitishdagi eng yirik muammo tinglovchida paydo bo'ladigan yolg'izlik hissi, o'zini kibernetik muhitning asiri yoki tutquni sifatida his etish hisoblanadi [160; 6-b.]. Xususan, estetik zavq hissi bilan oshno, badiiy tafakkur charxi bo'lgan so'z va muloqotga «tashna» ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonida bunday «tutqun»likdan xalos etish, metodik ko'makning «qalbga ta'sir eta oluvchi vositalari»dan foydalanish zarurati seziladi.

Tinglovchini yetuk mutaxassis qilib tayyorlashda muammoli o'qitishni tashkil etishda muloqotni telekonferensiya orqali amalga oshirish mumkin. Ammo bu bilan ham muammoni to'la hal etib bo'lmaydi. Ushbu muammoni hal etish uchun qo'shimcha o'quv materiallarni ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bular qatorida turli darajadagi muammoli topshiriqlar, muammoli vaziyat hosil qiluvchi ko'rsatmalar bo'lishi maqsadga muvofiq.

Masofaviy ta'limni tashkil etishda axborot texnologiyalarni o'zlashtirish yoki sohaga oid eng yangi yutuqlar hamda kursda o'qish jarayonida tinglovchi foydalanishi zarur bo'lgan o'quv materialining

mavjudligi to‘laqonli o‘quv jarayoni tashkil qilindi degan so‘z emas. Zero, tinglovchi bu o‘quv materialini chuqur o‘zlashtirish uchun uni ayrim muhim nazariy bo‘limlar, batafsil ishlab chiqilgan o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarini mazmunan va vaqt bo‘yicha yagona tizimga mujassamlashtirgan, maqbullashtirilgan va yo‘naltiruvchi tisdagi o‘quv dasturi, amaliy mashg‘ulot materiallari to‘plami, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar, ularni yechish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar, nazorat savollari, testlar va ularning javoblari, fan bo‘yicha eng ko‘p ishlatiladigan asosiy tushuncha va atamalarning izohli lug‘ati, u yoki bu masalalar chuqur yoritilgan adabiyotga havolalar ko‘rinishida tarkibiy bo‘laklarga ajratish, bu bo‘laklarning majmuini shakllantirish va shu tariqa o‘quv jarayonida bilvosita dialog ish rejimini tashkil etish, boshqacha qilib aytganda, faol pedagogik muhit yaratish ham zarur bo‘ladi.

Bu o‘rinda o‘quv adabiyotiga qo‘yiladigan ilmiylik, tizimlilik, o‘quv materialini tushunarli va ravon tilda bayon qilish kabi talablarni ta‘minlash, shuningdek, samarali pedagogik usullar sifatida e‘tirof etilgan muammoli o‘qitish, tinglovchilarning mustaqil ishi va jamoaviy tafakkur faoliyatini tashkil etish kabi jihatlarni ro‘yobga chiqarish alohida ahamiyatga ega.

Masofadan o‘qitishda asosiy e‘tiborni o‘quv metodik materiallarni tayyorlashga qaratish darkor. Chunki bu materiallarning sifati, masofadan o‘qitish sifatining eng asosiy omilidir. O‘quv metodik material qanchalik tushunarli va batafsil bo‘lsa, u tinglovchiga shunchalik foydali bo‘ladi.

Masofali ta‘limda yuqori faollikni elektron darslik va qo‘llanmalar ta‘minlashi kerak. Ular tinglovchilar uchun ta‘lim berish tizimi vazifasini bajarishi zarur. Har bir fanga mo‘ljallangan kurslar uchta (eng kamida): ta‘limiy, mashqli va nazorat qilish kabi asosiy qismlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Masofa orqali saboq beruvchi mutaxassislar eng tajribali va tashkilotchi professor-o‘qituvchilar orasidan tanlab olinishi lozim. Chunki masofadan o‘qitish boshqa ta‘lim turlaridan farqli bo‘lib, uning samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan o‘qituvchining bilimdonligi, tashkilotchilik va yetakchilik qobiliyatiga bog‘liqdir. O‘qituvchi bir paytning o‘zida ham mohir pedagog, ham dono maslahatchi va ham tajribali boshqaruvchi bo‘lishi kerak.

Masofaviy ta'lim uchun kerak bo'ladigan o'quv metodik majmualarning yaratilishi mashg'ulotlarning samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Shu sababli majmua quyidagi talablarga javob beradigan darajada bo'lishi lozim:

ta'lim maqsadlariga, Davlat ta'lim standartlariga mos kelishi;
tinglovchilarni ona tili va adabiyot fanlaridan bilimlarini chuqurlashtirishga qaratilishi, metodik ko'mak berishi;
tinglovchilarda ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishi;
o'zlashtiriladigan bilimlarning amaliyot bilan bog'lanishi;
ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi inobatga olinganligi;
fanning boshqa fanlar bilan uyg'unligi;
o'zlashtirilgan bilimlarning mustahkamlanishi;
fanga oid yetarli ma'lumotlarning mujassamlashganligi;
ta'lim olishning turli usullari qo'llanilishi;
tinglovchiga o'z-o'zini, o'qituvchiga ta'lim oluvchilar bilimini baholash va nazorat qilish imkoniyatlarining mavjudligi va hokazo.

Mazkur jarayonda sifatli o'quv adabiyoti yaratishga ehtiyoj katta. Yaratiladigan material qo'lyozmasini tajribali professor-o'qituvchilar bilan hamkorlikda muhokama qilish va bu borada jahon amaliyoti tajribasidan foydalanish zarur. O'quv metodik majmuani yaratish jarayonida, u qaysi yoshdagi tinglovchi uchun yozilayotganligi, uning dunyoqarashi, fiziologik xususiyatlari, idrok qilish qobiliyati, shuningdek mavzularga ajratilgan vaqt me'yorining muqobilligiga etibor qaratish zarur. Malaka oshirish tizimida androgik ta'lim qonuniyatlariga e'tibor qaratish kerak. Unda keltiriladigan misol yoki namunalar hayotiy bo'lishi, ta'lim oluvchi haqiqatdan ham real hayotda yoki faoliyatda bunday hodisa, voqea yoki jarayonlar haqida tasavvurga ega ekanligini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Malaka oshirish tizimida Davlat talablari belgilovchi ahamiyatga ega. Aynan ular qayta tayyorlash va malaka oshirishni tashkiliy-metodik jihatdan ta'minlaydi, sifatini baholash mexanizmini ishlab chiqadi, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalari faoliyatini boshqaradi hamda sohaga tegishli me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'ladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi zamonaviy pedagog javob berishi kerak bo'lgan talablar kompleksini belgilaydi. Quyidagilar

mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta'minlaydigan asosiy (fundamental) talablar hisoblanadi:

o'qitish (dars berish) mahorati;

















tarbiyalash mahorati;

o'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar;

ta'lim olayotganlarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati.

Davlat talablari o'z mohiyatiga ko'ra takomillashtirilib, to'ldirilib turadigan me'yorlardir. Shunga ko'ra yangi tahrirdagi umumiy o'rta ta'lim DTSiga, hududiy markaz mutaxassislarining Davlat talablariga bildirgan fikrlari hamda tegishli me'yoriy hujjatlarga asoslanib, amaldagi davlat talablari an'anaviy malaka oshirish shakliga mos holda 2012 va 2016-yillarda takomillashtirildi. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayoni uchun tayyorlangan Davlat talablari aslida pedagogika oliy o'quv yurtlarida tayyorlanadigan filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi) o'qituvchilari uchun tuzilgan davlat ta'lim standartlari va me'yoriy hujjatlar davr talablarini o'zida to'liq ifoda etgan bo'lishi lozim, chunki o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasini bularsiz tasavvur etish qiyin.

O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim standartlarining davlat tizimiga mansub pedagogika oliy o'quv yurtlarida 5120100 – «Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi)» yo'nalishi zaruriy mazmuni va bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar [15] umumiy va kasbiy talablar doirasida ishlab chiqilgan. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari, shuningdek, fan bloklari bo'yicha bilim va malakalarga qo'yiladigan talablarga metodik jihatdan yondashiladigan bo'lsa, oliy o'quv yurtini tugatgan yosh ona tili va adabiyot o'qituvchisi «*nimani o'qitish*»ni yaxshi biladi, ammo «*qanday*» o'qitish haqida bunday deb bo'lmaydi. Chunki yosh mutaxassislarni bu jihatdan tayyorlash talab darajasida emas. Buning sababi oliy ta'lim muassasalarini bitirib chiqayotgan yosh o'qituvchilarning na kasb sifatlari, na shaxslik sifatlari imtihon qilinmaydi, hisobga ham olinmaydi. Fan yuzasidan ma'lum miqdordagi bilimlarni egallash, diplomga ega bo'lishning o'zi o'qituvchilik qilish uchun yetarli deb qaraladi.

			
Mashqlar	Baholash	Topshiriq	Amaliy mashg'ulotlar
			
Muhokama	«on-line»da	Yordam	Esda saqlang!
			
Kutilayotgan natijalar	O'qish	Fikrlash	O'qish malakalari
			
Xulosa	Terminologiya	Vaqt	Maslahat

2.4-rasm. Masofaviy kursda o'qish davomida ishlatiladigan shartli belgilar

Kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishga nisbatan qo'yilayotgan Davlat talablari didaktik qonuniyatlarga asoslangan uzluksiz pedagogik tizim doirasida bajariladi. Bu tizim samarasi ona tili va adabiyot o'qituvchilarining o'z ustida ishlay olishi, ijtimoiy o'zgarishlarga moslasha bilishi va faoliyati mahsuldorligiga bog'liq. Zotan, har bir sohaning samaradorligi va muvaffaqiyatini mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi, malakasi, zimmasidagi vazifalarga ijodiy yondashuvi, o'z ustida qunt va izchillik bilan ishlashi ta'minlaydi. Bu ko'rsatkichlarsiz mutaxassis yutuqlarga erisha olmaydi. Aynan o'z ustida muntazam ishlovchi, ijodkor ona tili va adabiyot o'qituvchilari jamiyat yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmaning asosiy ijrochilari hisoblanadi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Malaka oshirish muassasalarida har bir ona tili va adabiyot o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga alohida e'tibor

qaratish talab etiladi. Chunki ona tili va adabiyot o'qituvchisining ichki olami, insoniyligi, mustaqil fikrlashi, ma'naviyati, ijodiy faoliyati samaradorlikni belgilovchi omildir.

2. Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayoni mazmuniga kasbiy mahoratni oshirishga xizmat qiladigan bilimlar, tushunchalar va axborotlar singdirilishi kerak.

3. Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi quyidagi talablar asosida amalga oshiriladi:

- malaka oshirishda ta'lim texnologiyalari tinglovchining kasbiy rivojlanishiga aloqador bo'lishi lozim;
- malaka oshirishda pedagogik ta'lim jarayoni ildamlovchi xarakter kasb etishi zarur.

4. Malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim jarayoni tinglovchilarning shaxsiy tajribalari, ularning kasbiy rivojlanish ehtiyojlari, o'z-o'zlarini mustaqil rivojlantirishlari va kasbiy mahoratining rivojlanganlik darajalarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

5. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'z mohiyatiga ko'ra an'anaviy ta'lim usullaridan farq qilib, ta'lim oluvchi shaxsining ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlarini o'quv faoliyatining subyekti sifatida his qilib, o'z ustida ishlashlari, o'z-o'zlarini rivojlantirishlari ko'zda tutiladi.

6. Ona tili va adabiyot o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning tinglovchilarga hurmat bilan yondashish, qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish, ishonch va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, hamkorlik, subyektivlik, tanlash va individual yondashuv kabi prinsiplarga asoslanishi ularni ta'lim muassasasi va jamiyat ijtimoiy hayotiga faol jalb etishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

7. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning muammoli, rivojlantiruvchi, modulli, tabaqalashtirilgan, rolli o'yinlar, interfaol, hamkorlik, individual, dasturiy, masofaviy, mustaqil va innovatsion hamda bahs-munozaralar, treninglar, taqdimot (yoki himoya), videotahlil ta'lim kabi turlaridan foydalanish o'qitish samaradorligini oshiradi.

8. Ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonida «SWOT», «T» chizmasi, «Tushunchalar tahlili», «Bumerang», «Blits so'rov», «FSMU», «Muloqot» kabi texnologiyalardan foydalanish adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlaydi.

9. Tashqi majburiy ta'sirdan ko'ra ichki ehtiyoj asosida malaka oshirish ko'proq samara keltiradi. Mashg'ulotlarning majburiy xarakterga ega bo'lmasligi, tinglovchilarga ixtiyoriy qatnashish imkoniyatining berilishi ularda erkin fikrlash, mustaqil harakat qilish, tashabbus ko'rsatish, ijodkorlik sifatlari shakllanishiga imkon beradi.

10. Malaka oshirish ma'ruza, davra suhbat, munozara, savol-javob, muhokama, maslahat, tushuntirish, rolli o'yinlar, nazorat hamda trening kabi ta'limining turli shakllari yordamida tashkil etilganida tinglovchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish samarali bo'ladi.

11. Masofadan malaka oshirish kursiga kelgan o'qituvchining kompyuter savodxonlik darajasini aniqlovchi aniq mezon va talablar ishlab chiqilsa, masofadan malaka oshirishning maqsadi to'la amalga oshishi mumkin bo'ladi.

III BOB. TINGLOVCHILAR KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA AMALIYOT NATIJALARI

3.1. Ona tili va adabiyot o‘qituvchilari malakasini oshirish kurslarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni va bosqichlari

Filolog o‘qituvchilarning kasb tayyorgarligini yaxshilash borasidagi ishlar holatini aniqlash hamda bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish yuzasidan ilgari surilayotgan ilmiy g‘oyalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish maqsadida Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari tajriba maydonlari sifatida tanlandi.

Tajriba-sinov ishlari 2008-2016-yillarda to‘rt bosqichda amalga oshirildi. Dastlabki o‘rganuvchi bosqich 2008-2009-yillarda yuqorida tilga olingan hududlarda maktab ona tili va adabiyot o‘qituvchilari malakasini oshirishning mavjud holati o‘rganib chiqildi va tahlil etildi. Malaka oshirish institutlaridagi mashg‘ulotlarni kuzatish, hujjatlarni o‘rganish, tinglovchilar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalar, suhbatlar aksariyat professor-o‘qituvchilar mashg‘ulotni monologik usulda o‘tkazayotganini ko‘rsatdi. Bu usul malaka oshirish ta’limi jarayonida tinglovchi intellektual faoliyati sustlashuviga sabab bo‘ladi. O‘quv jarayonida ularning mas’uliyatini oshirish, faol ishtiroklarini ta’minlash, shaxsiy ish tajribalariga suyanish, davra suhbatlari, bahs-munozaralar uyushtirish asosiy pedagogik ish turiga aylanmagan, mashg‘ulotlar hamon oldin shakllangan qoliplardan chiqmagan holda olib borilayotgani aniqlandi.

Malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalasini tadqiq etish mobaynida maktabda filologik ta’lim sifati va samarasini oshirish uchun malaka oshirishga qo‘yilgan davlat talablari hamda DTSga amal qilish lozimligiga amin bo‘lindi. Ko‘pincha malaka oshirish kurslari faoliyatida bir xil metod, shakl va vositalardan foydalaniladi. Bu holat tinglovchilarning ona tili va adabiyotni o‘qitish usullaridan ijodiy foydalanish jihatidan kasbiy tayyorgarliklarini rivojlantirishga

intilmasliklari, berilayotgan bilimlarni puxta o'zlashtirishga urinmasliklariga olib keladi. Shu bois tajriba jarayonida filolog o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, pedagogik texnologiyalar mohiyati va undan foydalanish yo'llaridan xabardorligi, o'quv jarayonida zamonaviy ta'lim usullarini qo'llay olish salohiyati, malaka oshirish jarayonida olgan bilimlari samaradorligini o'rganishga urinildi. Bunda ko'pchilik o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim usullari mohiyatidan qisman xabardor ekanligi ayonlashdi. Mazkur holat ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari o'rtasida nazariy va amaliy bilimlarni kengroq targ'ib etish zaruratini kun tartibiga olib chiqadi.

Bugungi kunda respublikaning mavjud umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning besh-yillik malaka oshirish davriyligi tahlilga tortildi. Malaka oshirish kurslari XTV va ta'limni boshqarish hududiy organlarining (ayrim hollarda, bevosita uzluksiz ta'limning tegishli turdagi ta'lim muassasalari) buyurtmalariga binoan-yillik rejalar asosida [9] tashkil etiladi. Malaka oshirish muassasalaridagi o'quv jarayonlari har bir kursga jalb etilgan xodimlar 25 tinglovchidan iborat o'quv guruhlariga bo'lingan holda [9] rejalashtiriladi. Tajriba-sinov maydoni sifatida tanlangan hududlar malaka oshirish jarayoni o'rganilganda, kurslarning ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy malakalarini oshirishga oid puxta asoslangan, aniq vazifalar belgilangan rejasi yo'qligi ko'rindi. Shu bois ushbu kurslarning namunaviy va ishchi rejalarini takomillashtirish, ularni mavjud talab va ehtiyojlarga moslab qayta tuzish masalasi o'ziga xos dolzarflik kasb etdi. Rejalarni ishlab chiqishda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozimligi ayonlashdi:

– kasbiy malakasini rivojlantirayotgan ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kurs mashg'ulotlari jarayonidagi mavqeyi, o'rni va ishtirokini tubdan o'zgartirish, ularni kurslarning shunchaki tinglovchisi emas, balki o'qitish jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishiga erishish;

– ona tili va adabiyot o'qituvchilari malaka oshirish kurslariga rejada ko'zda tutilganidan ko'proq kelayotganligi sababli, avvalo, har bir kursdagi tinglovchilar miqdorini me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishiga erishish, shuningdek, mashg'ulotlarni sifatli tashkil etishga e'tibor qaratish, pedagogik va metodik bilimlarni

o'zlashtirishda yuzaga kelayotgan qo'shimcha muammolarning malaka oshirish mazmuniga o'tkazadigan salbiy ta'sirining oldini olish.

Ona tili va adabiyot o'qituvchilari faoliyatini bevosita kuzatish, ular ishtirokidagi suhbat va savol-javoblar, ulardan saboq olayotgan o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish sifatini tahlil qilish, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi muhitni o'rganish ko'rsatdiki, darsliklarning tez-tez yangilanishi, darslik, dastur va o'quv-mavzu rejalarning o'zaro nomuvofiqligi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari borasidagi o'qituvchilar bilimi qoniqarli emasligi hamda joylarning zarur metodik adabiyotlar bilan vaqtda ta'minlanmasligi sababli ular muayyan qiyinchilikka duch kelishar ekan.

Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining ta'limga yangicha yondashuv mohiyatini to'la anglashlari va bu borada yaxshi natijani qo'lga kiritishlari uchun o'z vaqtda malaka oshirishlari muhim ahamiyatga ega. Biroq malaka oshirish jarayonini yuqori darajada tashkil etish uchun o'quv dasturlarini ilg'or pedagogik g'oyalar bilan boyitib, takomillashtirish, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'z faoliyatiga innovatsion yondasha oladigan pedagog, androgoglar hamda metodistlarni ma'ruzachi etib tanlash, ularni zamonaviy talablarga mos adabiyotlar bilan qurollantirish kabi vazifalar yechilishi kerak.

Alohida ta'kidlash joizki, malaka oshirish tizimida ta'limning filolog muallimlarni zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish ona tili va adabiyot o'qituvchilarida darsni ijodiy tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantiribgina qolmay, kasbiy faoliyatida yuqori samaraga erishishlarini ham kafolatlaydi. Shu sabab malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Malaka oshirish samaradorligi mashg'ulot olib boradigan pedagoglar tarkibi va ularning kasbiy malakalariga bog'liq. O'rganuvchi tajriba davomida kurslarning malakali va ilmiy darajaga ega pedagoglar bilan ta'minlanganligiga ham e'tibor qaratildi. Qarshi Davlat universiteti huzuridagi hududiy malaka oshirish markazida maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilariga ko'proq ilmiy darajaga

ega bo'lmagan pedagoglar ta'lim berishadi. «Til va adabiyot ta'limi» kafedrasida ikkita katta o'qituvchi va ikkita o'qituvchi faoliyat ko'rsatishi, kafedra mudirigina ilmiy darajaga ega ekanligi, kadrlar ko'p o'zgarishi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari o'tkazilgan qolgan hududlarda mashg'ulot o'tish uchun ilmiy darajaga ega pedagoglar jalb etilgan bo'lsalar-da, ularning soni kam. Xususan, Termiz Davlat universiteti huzuridagi hududiy malaka oshirish markazida tinglovchilarga dars berayotgan pedagoglarning barchasi katta o'qituvchi, bitta fan nomzodi soatbay asosda dars beradi. Nisbatan yaxshi deb olganimiz Chirchiq Davlat pedagogika instituti huzuridagi hududiy malaka oshirish markazida 11 o'qituvchining to'rttasi ilmiy darajali (3 nafar fan nomzodi, 1 nafar fan doktori, professor) bo'lib, ularning ikkitasi soatbay asosida dars o'tadi. Toshkent shahar XTXQTMOIda esa faqat kafedra mudiri pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega, bir nafar filologiya fanlari doktori soatbay asosida dars o'tadi.

Kuzatish jarayonida ularning mashg'ulotni asosan ma'ruza tarzida olib borishi, treninglardan juda kam hollarda foydalanishi ma'lum bo'ldi. Aksariyat ma'ruzalarda ona tili va adabiyot o'qituvchisining maktabda yo'lga qo'yajak kasbiy faoliyatiga oid ma'lumotlar emas, balki umumiy pedagogik bilim asoslari yoki ona tili va adabiyot fanlarining nazariy asoslari aks etadi. Malaka oshirish markazlarida dars berayotgan olimlar ko'proq nazariyotchi sifatida e'tirof etilishi aniqlandi.

Tajriba-sinov davrida malaka oshirish kurslarida olib boriladigan mashg'ulotlarning texnologik tuzilmasi ham o'rganildi. Ma'lum bo'lishicha, ma'ruza matnlari to'plamida o'quv-mavzu rejadagi mavzularning barchasi ham aks etmagan, mashg'ulotlar zamonaviy talab darajasida, muayyan loyiha asosida, metodik jihatdan tartibli va to'g'ri tashkil etilmagan ekan. Dars jarayonida tinglovchilar pedagogga o'zini qiziqtirgan savol beraverar, natijada, tabiiy ravishda savol-javoblar boshlanib ketib, o'quv-mavzu rejada belgilangan mavzular o'tilmay va reja to'la bajarilmay qolar ekan.

Afsuski, malaka oshirish kurslari o'quv-mavzu rejasida maktab ona tili va adabiyot darslari hamda malaka oshirish jarayonida yuzaga keluvchi bunday muammolar, ularni hal etish yo'llari, bunda ta'lim beruvchining o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratilmagan. Prof.

J.G'.Yo'ldoshev o'z monografiyasida o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida mavjud quyidagi kamchiliklarni keltiradi:

–malaka oshirish barcha o'qituvchilarning kundalik ehtiyojiga aylanmagan;

–malaka oshirish tizimi, mazmuni va o'qitish metodlari talab darajasida emas;

–zamonaviy (eng yangi) qo'llanma va kasb yo'nalishidagi adabiyotlar taqchil (ayniqsa, qishloq joylarda);

–o'quv-mavzu reja va dasturlar amaliyotchi o'qituvchi ishtirokisiz tuzilgan;

–o'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar, kompyuter texnikasi, Internet tarmog'idan foydalanilmaydi;

–malaka oshirish jarayoniga yuqori malakali olimlar, yetuk metodistlar, ijodkor va tashabbuskor o'qituvchilar yetarlicha jalb etilmagan [73].

Pedagogik kuzatish natijalariga ko'ra, ma'ruzachilar tinglovchi faolligini ta'minlovchi usul va vositalardan yetarli darajada foydalanilmaydi; mashg'ulotlar ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilmaydi; tinglovchilar individualligini hisobga oluvchi farqli yondashuvga amal qilinmaydi. Ba'zi tinglovchilarning «Mashg'ulotlar ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar yordamida tashkil etilsa, vaqt hamda mazmun nuqtai nazaridan kutilgan natijalarga erishilardi», – tarzidagi takliflari inobatga olinmaydi.

Tadqiqotchi R.T.Yuldashev [142], T.L.Hurvalieva [156] ishlarida ham malaka oshirish «majburlash xarakteri»da sodir bo'layotgani, bunda pedagogning kasbiy rivojlanish darajasi oshmasligi, buni bartaraf etish uchun malaka oshirish kurslari pedagoglarining kasbiy salohiyatlari (professionalizmi)ni tashxislash zarurligi ta'kidlangan.

Tajriba-sinov mobaynida bevosita ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kutubxonadan foydalanish darajalari ham o'rganildi. Ma'lum bo'lishicha, ularning ko'p qismi ona tili va adabiyot darslarini tashkil etish asoslari to'g'risidagi manbalar bilan tanishmagan, mavjud metodik adabiyotlardan bexabar ekan. Viloyat kutubxonalarida esa bunday manbalar, metodik adabiyotlar deyarli yo'q darajada bo'lib, mavjudlaridan ham to'g'ri va to'laqonli foydalanilmaydi. O'qituvchilar kutubxonaga asosan badiiy kitob o'qish hamda «ma'naviy hordiq» chiqarish uchun kirishlari aniqlandi.

Maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonining mavjud holatini o'rganish quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

- malaka oshirish kurslari (MOK)ning faoliyati tashkiliy va metodik jihatdan talablar darajasida emas;
- MOKda-yillik va istiqbol rejalarni muayyan buyurtma asosida tuzishga yetarli darajada ahamiyat berilmayapti;
- MOK tinglovchilarining tarkibi mashg'ulotlar jarayonida bevosita aniqlansa-da, ta'lim farqli yondashuv asosida tashkil etilmayapti;
- maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilariga MOKda samarali ta'lim berish, takomillashtirish va kursda erishilishi mumkin bo'lgan natijalarni kafolatlashning samarali yo'li malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqishdir.

Mazkur xulosalar asosida ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy malakalarini oshirish jarayonida tinglovchi imkoniyatini inobatga olish; ta'lim ishtirokchilarini faollikka undash; tinglovchilar malakasini zamon talabi darajasida oshirish uchun ularning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish; har bir mashg'ulot oldiga aniq va natijasi kafolatlangan maqsad qo'yish, har qanday sharoitda natijaga erishish uchun muammoli vaziyatlardan chiqish usul va vositalarini izlab topish; ona tili va adabiyot o'qituvchilarida innovatsion pedagogik texnologiya yordamida kasbiy faoliyatga qiziqishni shakllantiradigan mashg'ulotlarni tashkil etish kafolatlanishi zarurligi ayonlashdi.

Kurs davomida tinglovchilar kutubxonada mavjud adabiyotlar bilan ishlab, har bir ma'ruza uchun konspekt tayyorladilar, zarur ma'lumotlarni maxsus ish daftariga qayd etib bordilar. To'plangan materiallar asosida ijodiy malaka ishi yozdilar. Bularning monitoringi olib borilib, topshiriqlar ixtiyoriy yoki majburiy bajarilgani o'rganildi. Natijada deyarli barcha tinglovchilar majburiyat yuzasidangina zarur manbalar bilan ishlab, muhim ma'lumotlarni yozishlari (konspektlashtirishlari) ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari tinglovchilarining kutubxonada ishlash ko'rsatkichlari juda past chiqdi.

Qashqadaryo viloyati malaka oshirish markazida tashkil etilgan kurs mashg'ulotlarini kuzatish asosida quyidagi holatlar aniqlandi: kurs o'quv-mavzu rejaga muvofiq tashkil etildi; rejada har bir mavzu uchun ajratilgan soatlarning yetarli emasligi ayon bo'ldi; kursdagi mashg'ulotlarning 70 foizi ma'ruza shaklida tashkil etildi; ayrim vaziyatlardagina ta'limiy mashqlardan foydalanildi; kurs tinglovchilarining ish tajribasi turlicha bo'lganligi, shuningdek ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilari bilan ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilari bir guruhga tushganligi tufayli o'quv materiallarini o'zlashtirishda ayrim qiyinchiliklarga duch keldilar, ularda o'quv-mavzu rejadan chetga chiqish holatlari kuzatildi.

Surxondaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida tashkil etilgan kurslar mazmunini o'rganishda esa quyidagi kamchiliklar ko'zga tashlandi:

- tinglovchilarning 75% oliy o'quv yurtining kunduzgi, 25%i sirtqi hamda qayta tayyorlov bo'limini tugatgan ona tili va adabiyot o'qituvchilaridan iborat bo'ldi (ularning alohida o'qitilishi maqsadga muvofiq bo'ladi);

- ba'zi pedagoglar dars jarayonida o'quv-mavzu rejaga amal qilmay, ko'proq tinglovchilarni qiziqtirgan mavzularga to'xtaldilar, natijada rejada ko'rsatilgan mavzular o'rganilmadi, kafolatlangan natijaga erishilmadi;

- mashg'ulotlarda tinglovchilar faolligini ta'minlovchi interfaol metod va ta'sirchan vositalardan yetarlicha foydalanilmadi;

- pedagoglar mashg'ulot jarayonida tinglovchilar tarkibini inobatga olishmadi.

Tajriba mobaynida biz malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarliklari muayyan darajada takomillashishiga erishish uchun asosli, puxta mexanizm ishlab chiqish lozimligiga yana bir bor amin bo'ldik. Umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiy ta'limidagi ko'zga tashlanuvchi muammolar mavjudligi, zarur metodik yordamning o'z vaqtida yetib bormasligi, ehtiyojlar to'la qondirilmaganligi, maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirish kurslarining samaradorligini oshirishning yagona va maqbul yo'li – tizimda ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarliklarini rivojlantirish

texnologiyalarini takomillashtirish, shu asosda darslarni tashkil etish lozimligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda 2006-yil 16-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 25-, 2014-yil 15-avgustdagi «Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 234-qarorlari, XTVning tegishli qaror va buyruqlari ijrosini ta'minlash maqsadida olib borilgan ishlar mazmuni amaliyotga tatbiq etilib, sinovdan o'tkazilayotgan metodik vosita va majmualar mazkur hujjatlarga muvofiq takomillashtirildi va shularga tayanib quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirishga qo'yiladigan Davlat talablari domiy ravishda takomillashtirilib borilishi kerakligi ko'zda tutilib, 2012, 2014, 2016-yillarda mazkur talablarning qayta takomillashtirilgan varianti ishlab chiqildi, tajriba-sinovdan o'tkazilib, amaliyotga joriy etildi;

- 2012, 2014, 2016-yillarda hududiy XTXQTMOI mutaxassisleri bildirgan fikrlarga asosan «Maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirish» kurslari uchun tuzilgan o'quv-mavzu reja va dasturga o'zgartirishlar kiritildi;

- ona tili va adabiyot o'qituvchilarining malaka oshirish jarayonida olgan bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy mahoratlarini oshirishga imkon beruvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;

- tajriba-sinov ishlarining samaradorligini tahlil etish yuzasidan tavsiya etilgan texnologiyalar boyitildi.

O'rganish natijalari:

- maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirishga qo'yiladigan Davlat talablarini doimiy takomillashtirib borish ehtiyoji borligi;

- malaka oshirish kursi o'quv-mavzu rejalarining mazmunan pedagogik yo'nalishda ekanligi;

- metodik bilimlarni berish imkoniyatiga ega bo'lgan adabiyotlar bugungi kun ehtiyojlarini to'liq qondirish darajasida emasligi;

- o‘quv jarayonida tinglovchilarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlarning yetarli emasligi;
- tinglovchilarda mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalarining yetarlicha shakllanmaganligi;
- ayrim tinglovchilarning faol emasligi;
- MOKda dars beruvchi malakali mutaxassislarning yetarli emasligi;
- malaka oshirish kurslarini tashkil etishda talabning taklifdan yuqoriligi kabilar ekanligini tasdiqladi.

Tajriba-sinov ishlari rejasini ishlab chiqishda yuqoridagi holatlar inobatga olingani amaliy faoliyat maqsadini yanada oydinlashtirdi va pedagogik vazifalarning aniq belgilanishini ta‘minladi. Tajriba-sinov davomida amalga oshirish rejalashtirilgan pedagogik vazifalar tubandagilardan iborat bo‘ldi:

- MOKlarda tahsil olayotgan ona tili va adabiyot o‘qituvchilari o‘rtasida anketa so‘rovnomalari o‘tkazish orqali kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning mavjud holatini aniqlash;

- hududiy XTXQTMOIning tuman ona tili va adabiyot fani metodika uyushmalari bilan aloqa o‘rnatib, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tushunchalar, ularning mohiyati, ijtimoiy ahamiyati, amalga oshirish yo‘llari va omillari to‘g‘risida nazariy tushunchalar berish;

- hududiy XTXQTMOIda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishni ta‘minlaydigan pedagogik omillarni belgilash;

- ona tili va adabiyot o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi salbiy omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish;

- tinglovchilarning kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish mohiyati va ahamiyatini anglashlariga erishish;

- ona tili va adabiyot o‘qituvchilari faoliyatini takomillashtirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish.

Mazkur pedagogik vazifalar yechilishi malaka oshirish jarayonida maktab ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy bilim, ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ish tajribalarini boyitish imkonini bir necha baravar orttiradi. Shu maqsadda ishlab chiqilgan

texnologiyalar tarkibidan malaka oshirish kursi uchun o‘quv-mavzu reja, dastur, ayrim mavzularni o‘qitish uchun dars loyihalari o‘rin oldi.

Oldimizga qo‘yilgan maqsadga yetish jarayonida maktab ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining malaka oshirish kursidan keyingi ish faoliyatlari (maqsadli kuzatish asosida) tuman xalq ta’limi bo‘limlari bilan hamkorlikda o‘rganildi. Maqsadli kuzatish natijalari malaka oshirish kursining samaradorligini aniqlovchi mezonlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qildi:

- Maktabda sog‘lom ijodiy muhit yaratishda ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining roli va mavqeyi ortishi.

- Ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining maktabda ta’lim olayotgan qobiliyatli va iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ular qobiliyat va iqtidorlarini yanada rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqishi.

- Ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining maktab o‘quvchilari bilan individual ish olib borishi.

- Ularning metodik birlashmalar ishini takomillashtirishdagi hissasi ortishi.

- «Ustoz-shogird» maktabi faoliyatini yo‘lga qo‘yishi;

- Uzluksiz malaka oshirishni yo‘lga qo‘yishda faol qatnashishi.

- O‘qituvchi ma’naviy-ma’rifiy saviyasini rivojlantirib borishi.

- Umumiy pedagogik, psixologik va metodik bilimlarni puxta o‘zlashtirish, mazkur sohaga oid yutuqlardan boxabar bo‘lish, fanning nazariy va metodik asoslarini puxta o‘zlashtirish, ular bo‘yicha amaliy faoliyatni tashkil etish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lish.

- Ijodiy qobiliyatga ega bo‘lish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy ta’lim vositalaridan samarali, o‘rinli foydalana olish.

- Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchi shaxsiy sifat va qobiliyatini tarbiyalash, ma’naviyatini oshirish, mustaqil fikrlashga, to‘g‘ri xulosa chiqarishga, bilganlarini amaliyotda qo‘llashga qodir komil inson qilib shakllantirish usul va vositalarini puxta o‘zlashtirish.

Maktab ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining faoliyati ushbu mezonlar asosida tekshirildi, ular yuritayotgan maxsus va umumiy hujjatlar bilan tanishildi, suhbat hamda so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnomalar javoblarida maktab ona tili va adabiyot o‘qituvchilari

malakasini uzluksiz oshirish tizimini tashkil etishga doir taklif va tavsiyalar berildi.

Monografiya uchun materiallar to'plash mobaynida maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilarining individual rejalar asosida mustaqil malaka oshirishlarining amaldagi holati o'rganildi. Bunga ko'ra, ona tili va adabiyot o'qituvchilarining mustaqil malaka oshirish imkoniga quyidagi subyektlar va ular ko'rsatadigan metodik yordam tufayli ega bo'lishar ekan:

– Umumiy o'rta ta'lim maktablarining metodik birlashmalari – ona tili va adabiyot o'qituvchilarini yangi pedagogik, metodik bilim, yutuq, texnologiya va ilg'or ish tajribalari bilan tanishtirish maqsadida davra suhbatlari, anjuman, trening, ijodiy uchrashuvlar o'tkaziladi, ilmiy izlanish olib borayotgan ona tili va adabiyot hamda boshqa turdosh fan o'qituvchilari hisoboti tinglanadi.

– Tuman xalq ta'limi bo'limlari hamda hududiy malaka oshirish markazlari ko'rsatayotgan tashkiliy-metodik yordam tavsiya ishlab chiqish, tavsiyanoma, ko'rsatma va yo'riqnomalar tayyorlash, ona tili va adabiyot o'qituvchilarini ta'limni samarali tashkil etishga oid yangi metodik adabiyotlardan xabardor qilish, ularni zarur manbalar, me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish maqsadida davra suhbatlari, anjuman, trening, ijodiy uchrashuv o'tkazish, belgilangan reja asosida adabiyot o'qituvchisining ijodiy safarlarini uyushtirish va boshqalardan iborat bo'ladi.

– Hududiy malaka oshirish markazi ko'rsatadigan tashkiliy-metodik yordam ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirish orqali ularni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish, yuqori samarali deb topilgan ish tajribalarini ommalashtirish, zarur o'quv manbalari bilan qurollantirish, shuningdek, davra suhbatlari, seminarlar, treninglar, ijodiy uchrashuvlar, konferensiyalar, tanlovlarni tashkil etish va boshqalardan iborat.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyat Shahrisabz tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli o'rta ta'lim maktablari ona tili va adabiyot o'qituvchilarining malaka oshirish kursidan keyingi ko'rsatkich tahlilga tortildi. Tumandan 37 nafar ona tili va adabiyot o'qituvchisi Qashqadaryo viloyat XTXQTMOIga malaka oshirish kursida o'qish uchun yuborilgan. Ularning malaka oshirishdan keyingi faoliyati quyidagi mezonlar asosida tahlil etildi:

- pedagogning dars o‘tish uslubida yuz bergan o‘zgarishlar (47%);
- ijtimoiy faoliyatida yuz bergan o‘zgarishlar (6%);
- tuman miqyosidagi faolligi (4%);
- ijodkorligi va izlanishlarida ro‘y bergan o‘zgarishlar (11%);
- pedagog o‘tgan darslar samaradorligidagi o‘zgarishlar (19%);
- jamoa a‘zolarining pedagogga munosabatidagi o‘zgarishlar (4%);
- malaka oshirishdan keyingi faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichi (9%).

Izlanishimizning o‘rganuvchi davrida yuqoridagi subyektlar faoliyati, ish hujjatlarining me‘yoriy talablarga mos holda yuritilishi, ularning ona tili va adabiyot o‘qituvchilariga ko‘rsatayotgan tashkiliy-metodik yordam darajasi va sifati tahlil etildi. MOKda kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov mashg‘ulotlari olib borildi.

Malaka ishlari tinglovchi nazariy-amaliy bilimni yanada boyitgani bois ular ish mavzusini o‘z faoliyatida duch keladigan muammolar bo‘yicha tanlashi yoki o‘quv-mavzu rejadagi mavzulardan ikkita dars ishlanmasini malaka ishiga ilova tariqasida taqdim etishi mumkin. Mazkur ishlanmalar malaka ishi sifatida himoya qilinadi hamda o‘qituvchilarning barchasida tanqidiy fikrlash birdek shakllanmagani bois soha mutaxassisleri tomonidan berilgan taqrizlar asosida amaliyotga tatbiq etilishi tavsiya qilinadi. Masalan, 6-sinfda-yil davomida 68 soat adabiyot darsi o‘tilishini inobatga olib, 25 nafar tinglovchi 50ta mavzuda ishlanma tayyorlaydi va ona tili va adabiyot o‘qituvchilari bu ishlanmalardan nusxa olib o‘zaro metodik tajriba almashadilar.

Demak, MO tizimida ona tili va adabiyot o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasini amaliy faoliyatga tatbiq etish tadqiqot muammosining yechimini topishga yordam berdi. Bosqichma-bosqich olib borilgan tajriba-sinov ishlari, ularda qo‘lga kiritilgan muhim yakuniy natijalarning matematik-statistik tahlili navbatdagi bo‘limda yoritiladi.

3.2. Tajriba-sinov ishlari natijalari va ularning tahlili

Umumiy o'rta ta'limning to'laqonli amalga oshirilishida maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilarining xizmati qanchalik muhim bo'lsa, mazkur xizmatning sifatli va samarali kechishida mutaxassisning malaka oshirish kurslarida o'zlashtirgan yangi bilim va tajribalari ham shunchalik ahamiyatli hisoblanadi.

Tajriba davomida, avvalo, ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirishga qo'yilgan ijtimoiy talablar bo'yicha tavsiya etilgan tizim asosida MOKlari faoliyatining samaradorligi tahlil qilindi. Mazkur tahlillar 2008-2016-yillar davomida malaka oshirish institutlari islohotlari natijalariga nisbatan keltirilgan bo'lib, bunda nazorat va tajriba guruhlari sifatida tanlangan guruh tinglovchilari bir vaqtda emas, balki bir necha oy farq qiladigan muddatlarda o'qitilgan, shuning uchun ularning tajriba boshida va tajriba yakunidagi tahlili qiyosiy keltirilgan. Shuningdek, xalq ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan ona tili va adabiyot o'qituvchilarining masofadan malaka oshirish kurslari ilk marotaba tashkil etilib, an'anaviy malaka oshirish kurslari bilan mutanosibligiga e'tibor qaratildi. Albatta, mazkur tajriba yakunidagi guruh tinglovchilarini tashkil etdi.

Tajriba-sinov ishlari davrida 2008-2011-yillarda malaka oshirgan kurslar nazorat (tajriba boshi) hamda 2012-2016-yillarda malaka oshirganlar tajriba (tajriba yakuni) guruhlari sifatida belgilab olindi. Mazkur guruhlarda ta'lim samaradorligini yagona mezon asosida baholashni ta'minlash maqsadida malaka oshirish kursi o'quv rejasiga kiruvchi o'quv modullari bo'yicha ularga ajratilgan dars soatlariga mos nisbatlarda shakllantirilgan 100ta savoldan iborat testdan foydalanildi (Ayrim o'quv modullarining (3.6. Tanlov mavzulari va 4.1. Dolzarb mavzular) o'zgaruvchanligi test savollari tarkibini shakllantirishda e'tiborga olinib, ushbu o'quv modullari bo'yicha savollar testlarga kiritilmadi). Test savollari tuzilgan o'quv modullari va modullar bo'yicha testlarning miqdori quyidagicha (3.1-jadvalga qarang):

O'quv fanlari, fan modullari va bloklari bo'yicha testlarning miqdori

T/r	O'quv fanlari, fan modullari va bloklarining nomlari	Umumiy o'quv yuklama hajmi		O'quv bloki va fanlari bo'yicha test savollari
		Soat	%	
1	Ijtimoiy fanlar	26	18,1	18
1.1	Iqtisodiyot masalalari	6		4
1.2	Huquq masalalari	6		4
1.3	Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari	14		10
2	Umumkasbiy fanlar	28	19,4	20
2.1	Pedagogikaning dolzarb masalalari	8		6
2.2	Psixologiyaning dolzarb masalalari	12		8
2.3	Axborot texnologiyalari	8		6
3	Mutaxassislik fanlari	82	56,9	62
3.1	Fanning nazariyasi va o'qitish metodikasi	38		36
3.2	Fanni o'qitishda pedagogik texnologiyalar	18		10
3.3	Fanni o'qitishda axborot texnologiyalari	12		8
3.4	Xorijiy til asoslari	8		8
3.5	Tanlov mavzulari	6		
4	Institut ixtiyoridagi soatlar	8	5,6	
4.1	Dolzarb mavzular	8		
	Hammasi	144	100,0	100

O'tkazilgan test sinovida tinglovchi tomonidan berilgan to'g'ri javoblar soni asosiy ko'rsatkich hisoblandi. Tajriba-sinov ishlariga jami 2040 nafar tinglovchi jalb etilgan bo'lib, ularning 1020 nafari tajriba boshi (nazorat) va 1020 nafari tajriba yakuni (tajriba) guruhlari sifatida tanlandi.

Didaktikaga oid adabiyotlarni va o'qitishga doir me'yoriy hujjatlarning tahlili ko'rsatadiki, odatda o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish va baholashda kasbiy tayyorgarlikni uchta daraja (yuqori, o'rta, past) da baholash tavsiya etilgan. Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tajriba sinov ishlari tinglovchilarning bilim

saviyasida barqaror ijobiy dinamikani ta'minlaganini ularning kurs boshi va kurs yakunida o'tkaziladigan test sinovlarining natijalarini tahlil qilish orqali kuzatiladi.

Tajriba davomida malaka oshirish kurslarida o'tkaziladigan kirish va chiqish test sinovlari bo'yicha tinglovchilar bilim darajalari tekshirilib, quyidagi mezonlarga muvofiq baholandi:

- 1) 86-100 ball – yuqori daraja;
- 2) 71-85 ball – o'rtacha daraja;
- 3) 56-70 ball – past daraja.

Malaka oshirish institutlariga o'z kasb mahoratlarini takomillashtirish niyatida tajriba-sinov jarayonining aprel va oktyabr oylarida o'qishga jalb etilgan ona tili va adabiyot o'qituvchilaridan iborat kurs tinglovchilaridan kirish va chiqish test sinovlari olindi, shu orqali ularning bilim saviyalari tahlil etildi. Tajriba-sinov ishlarining samaradorligi kirish va chiqish testlari natijalarining qiyosiy tahlili asosida baholanishini nazarda tutgan holda quyidagi jadval shakllantirildi (3.2-jadvalga qarang).

Kirish-chiqish testlari natijalari kurs samaradorligini baholash imkonini berdi. Bu ko'rsatkichlar tahliliga ko'ra tajriba boshida ona tili va adabiyot o'qituvchilarining boshqa kurs, xususan, rus tili, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari, geografiya kurslari tinglovchilariga nisbatan yaxshiroq javob berishgan, tarix, matematika, boshlang'ich sinf (oliy ma'lumotli) o'qituvchilari kursi bilan teng natijani qo'lga kiritishgan. Ammo mutaxassislik fanlari yo'nalishidagi savollarga javoblar saviyasi yuqori emasligi ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, metodik bilimlarini boyitish, uzluksiz malaka oshirish va uni nazorat qilish to'g'ri tashkil etilmaganligidan kelib chiqqanini ko'rsatdi. Tajriba boshidagi tahlil natijalari kurslarga kech kelgan tinglovchilar bilan qo'shimcha ish olib borilmagani (bunga vaqt imkon bermadi) sababli chiqish testlari bo'yicha ular past ko'rsatkich qayd etishganini ko'rsatdi.

**Malaka oshirish kurslari respondent-tinglovchilarining kirish
va chiqish testlari bo'yicha javoblarining tahlili**
(umumiy va foiz ko'rsatkichlari bo'yicha)

Baho ko'rsatkichlari	Test Turi	Tinglovchilar soni 2040 nafar			
		Tajriba boshida – 1020 nafar		Tajriba yakunida – 1020 nafar	
		Nafar hisobida	Foiz hisobida	Nafar hisobida	Foiz hisobida
Yuqori	Kirish Chiqish	296	29	-	-
				500	49
O'rta	Kirish Chiqish	418	41		
				430	42
Past	Kirish Chiqish	306	30		
				90	9

Tahlilda malaka oshirish o'quv-mavzu reja, dasturlari va ulardagi mavzularning tinglovchi ehtiyojini qondira olishi, tinglovchining o'zlashtirgan nazariy bilimni amaliyotda qo'llashi, kursning samaradorligi tekshirildi. Bu uch mezon asosida kurs samaradorligi «yuqori», «o'rta», «past» darajalar bilan baholandi:

Yuqori daraja – o'quv-mavzu reja, dastur va ulardagi mavzular tinglovchi ehtiyojini qondiradi, o'zlashtirilgan nazariy bilimlar amaliyotda 85-100 foiz qo'llandi, kurs samaradorligi yuqori;

O'rta daraja – o'quv-mavzu reja, dastur va ulardagi mavzular tinglovchi ehtiyojini qisman qondiradi, o'zlashtirilgan nazariy bilimlar amaliyotda 70-84 foiz qo'llandi, kurs samaradorligi o'rtacha;

Past daraja – tinglovchilar ehtiyoji qondirilmadi, o'zlashtirilgan nazariy bilimlar amaliyotda 55-70% qo'llandi, kurs samaradorligi past.

Quyidagi jadvalda respondent-tinglovchilarning MOK tahsili jarayonida o'quv-mavzu reja, dasturlari va ulardagi mavzularning tinglovchi ehtiyojini qondira olishi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida ona tili va adabiyot darslarini tashkil etish bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga bo'lgan munosabatlari yoritilgan (3.3-jadvalga qarang).

Respondent-tinglovchilarning malaka oshirish kurslari samaradorligini belgilashga bo‘lgan munosabatlari (viloyatlar bo‘yicha)

Mezonlar	Tinglovchi-respondentlar soni – 1020 nafar					
	Viloyatlar (nafar tinglovchi)					
	Qashqadaryo (205)	Surxondaryo (165)	Samarqand (215)	Toshkent v. (217)	Toshkent sh. (218)	Jami tinglovchi
Yuqori	170	148	186	178	177	859 (84,2%)
O‘rta	18	13	17	29	38	115 (11,3%)
Past	17	4	12	10	3	46 (4,5%)
Jami	205	165	215	217	218	1020

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kurs mazmuni tinglovchilarning kursdan kutgan natijalari bilan mos kelmoqda. O‘rganuvchi tadqiqot davrida tinglovchilarning aksariyati MOKdagi o‘quv materiallari ona tili va adabiyot o‘qituvchilari kasbiy tajribalarini rivojlantirishga xizmat qilmasligi, pedagogika va metodika fanlari bo‘yicha o‘qitiladigan tayanch bilimlardan iboratligini qayd etishdi.

Tajriba sinov uchun tavsiya etilgan tizim ona tili va adabiyot o‘qituvchilari ehtiyojiga mos nazariy va amaliy bilimlar, pedagogika va metodika sohalarida so‘nggi-yillarda erishilgan yutuqlar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar mohiyatini yoritganligi respondent-tinglovchilarda e'tiroz keltirib chiqarmadi.

Tadqiqot davomida kurslarni tashkil etishga oid masalalar izchil hal etildi. Shu maqsadda malaka oshirish jarayoniga qadar hududiy malaka oshirish markazlari, viloyat hamda tuman xalq ta'limi bo'limlari bilan o'zaro hamkorlik o'rnatilib, malaka oshirishi rejalashtirilgan va malaka oshirgan tinglovchilar soni tahlil etildi. «Malaka oshirish kurslariga yuboriladigan ona tili va adabiyot o‘qituvchilari haqidagi ma’lumot» bilan tanishish rejadagi tinglovchilar soni amaldagidan 15-20% kam belgilangani ko‘rsatadi. Bu salbiy holatni inobatga olgan holda tadqiqot jarayonida Abdulla Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, VXTXQTMOIlari va tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari bilan mustahkam aloqa bog'landi. Har

oyda viloyatlarning ona tili va adabiyot o'qituvchilarini malaka oshirishga yuborish ehtiyojlari o'rganib borildi. Ona tili va adabiyot o'qituvchilarini malaka oshirish kurslariga jalb etishda talab va taklifning bir-biriga muvofiq kelishi, buyurtmali, manzilli malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish takliflari berildi.

Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining masofadan malaka oshirish kurslari natijalari tavsiya etilgan metodik materiallar asosida 2013-yilda tashkil etilgan malaka oshirish kurslari tinglovchilarining **faol ishtirok etgan** (tizimdagi faoliyatiga ko'ra ma'ruza matnlari bilan tanishgan, tegishli topshiriqlarni bajargan, tarmoq orqali mashg'ulotlar va konsultatsiyalarda ishtirok etgan, oraliq nazoratlarda yetarli ball to'plaganlar), **yaxshi ishtirok etmagan** (tizimdagi faoliyatiga ko'ra tegishli topshiriqlarni to'liq bajarmagan, tarmoq orqali mashg'ulotlar va konsultatsiyalarda samarali ishtirok etmagan, oraliq nazoratlarda yetarli ball to'plamagan yoki to'liq bajarmagan), **ishtirok etmagan** (tizimdagi faoliyatiga ko'ra tegishli topshiriqlarni bajarmagan, tarmoq orqali mashg'ulotlar va konsultatsiyalarda ishtirok etmagan, oraliq nazoratlarda yetarli ball to'plamagan)ligi bo'yicha ekspert xulosalari asosida tahlil qilindi. Mazkur xulosalar A.Avloniy nomidagi Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti tarkibidagi MO'RMning MO'HMMda o'tkazilgan masofadan malaka oshirish kurslari faoliyati bo'yicha ekspert xulosalariga tayanildi.

2013-yilning mart-may oylarida masofadan malaka oshirgan 269 nafar tinglovchiga kurs yakunida tegishli ekspert xulosasi tayyorlandi. Ekspert xulosalariga ko'ra mart-may oyidagi kurslardagi jami 269 nafar tinglovchilardan faol tinglovchilar 100 nafar, o'rtacha faol tinglovchilar 154 nafar, faol emas tinglovchilar 15 nafarni tashkil etdi (3.4-jadvalga qarang), ya'ni 15 nafar tinglovchilar yakuniy attestatsiyaga tavsiya etilmadi.

**Mart-may oylarida masofadan malaka oshirgan
tinglovchilarning o‘quv faoliyati bo‘yicha ekspert xulosalari
natijalari to‘g‘risida ma’lumot**

№	Hudud nomi	Tinglovchi soni	Faol	O‘rtacha	Faol emas	Samara
1.	Toshkent sh.	24	9	11	4	83,3%
2.	Toshkent vil.	24	22	2	-	100%
3.	Qashqadaryo vil.	125	22	101	2	98%
4.	Surxondaryo vil.	48	15	28	5	90%
5.	Samarqand vil.	48	32	12	4	92%
Jami		269	100	154	15	93%

Masofadan malaka oshirish kurslari tinglovchilariga ham an’anaviy malaka oshirish kurslariga mos ravishda 144 soatlik o‘quv rejadagi soatlar quyidagicha taqsimlandi:

- ijtimoiy fanlardan berilgan soatlar 26+8 soat, umumkasbiy fanlardan berilgan soatlar 28 soat, mutaxassislik fanlaridan berilgan soatlar 82 soat;

- ma’ruza matnlari bilan tanishish va topshiriqlarni bajarish – 92 soat, tarmoq konsultatsiyalari uchun 7 soat, oraliq nazorat topshiriqlarini bajarish uchun 9 soat, muloqot sessiyalari uchun 36 soat.

2013-yilning sentyabr-dekabr oylarida tashkil etilgan MT-5 – HXTXQTMOIlari professor-o‘qituvchilaridan iborat 33 nafar tinglovchilari bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlarida 100% samaradorlikka erishildi.

Nazorat guruhi (2008-2011-yillar) dagi kurslar tinglovchilarining tajriba boshidagi natijalari tajriba guruhi (2012-2016-yillar) tinglovchilarining tajriba yakunidagi natijalari bilan solishtirildi. Tajriba guruhi MOIlar faoliyatiga joriy etilgan yagona o‘quv reja va dastur, o‘quv metodik majmua bilan ta’minlanganligi, guruhlar tarkibining bir xilligi (ona tili va adabiyot o‘qituvchilari) nazorat guruhidan tajriba guruhida natijalar sezilarli darajada o‘sganini ko‘rsatdi.

Maktab ona tili va adabiyot o‘qituvchilari kasbiy faoliyatlarini tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishlariga zamonaviy

trening yordam beradi. Tajriba-sinov ishlari asosiy urg'uni shu jihatga bergani bois ona tili va adabiyot o'qituvchilari faoliyatlarida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi va ularning mavjud bilimlarini amalda faol qo'llashlariga erishildi. Ona tili va adabiyot o'qituvchilariga yordam sifatida ayrim mavzular bo'yicha dars texnologik xaritasi yoki loyihasini tuzish vazifasi berilgan mashg'ulotlarni yakka holda, kichik va katta guruhlar, shuningdek, ommaviy tarzda olib borilishi tavsiya etildi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda monitoring, ya'ni tinglovchilarning kursda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llay olish darajasini o'rganishga ham e'tibor qaratildi. Zero, tinglovchi mashg'ulotlarda yangi pedagogik, metodik bilimlarni o'zlashtirmas, maktab ta'limida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish malakasiga ega bo'lmas ekan, MOKlarda beriladigan bilimlarni amaliyotga samarali tatbiq etib bo'lmaydi.

MOKlarda kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilovchi mezonlar bo'yicha 80 va undan yuqori ball to'play olgan tinglovchilar faoliyati o'rganilganda, ularning metodbirlashmalarda maktab pedagoglari o'rtasida MOK tashkil etilishi, yutuq va kamchiliklari xususida munozara yoki davra suhbatlarini doim ham rejadagidek bajarganlari ma'lum bo'ldi. Tumanda reytingi baland, namunali sanaladigan maktablarda malaka oshirishdan keyingi tajriba almashish ishlarini yuqoridan talab etilgan me'yoriy hujjatlarni to'ldirish, ba'zan ona tili va adabiyot o'qituvchilarining o'z ustida ishlash va yangilikka intilishi natijasi tarzida baholash mumkin.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi kutilgan darajada yuqori emasligi aniqlandi.

2. «Fanning nazariyasi va o'qitish metodikasi» kursiga tegishli mavzularni o'qitishda faol ta'lim texnologiyalari vositasida ona tili va adabiyot o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikning samarali rivojlanganlik darajasini belgilovchi mezonlar tajriba-sinov ishlariga qadar va undan keyingi holatlar bo'yicha tinglovchilarning kasbiy mahoratini oshganligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning dinamik xarakterga egaligini ko'rsatdi.

3. Statistik tahlil natijalari tinglovchilarda faol ta'lim texnologiyalari vositasida kasbiy mahoratni rivojlantirish samarali bo'lishini tasdiqladi.

4. Maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirish samaradorligiga erishishda o'quv-mavzu rejasi va dastur, tinglovchilar uchun dars ishlanmalari, ijodiy malaka ishlari bo'yicha metodik tavsiyalar katta o'rin tutishi sinov ishlari natijasida o'z isbotini topdi.

5. Tajriba guruhlaridagi tinglovchilarning zamonaviy texnologiyalar yordamida ona tili va adabiyot darslarini to'g'ri va samarali tashkil etishga oid nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalari darajasi sezilarli o'sdi. Bu holat yakuniy bosqich tajriba-sinov ishlari natijalarini Styudent mezoni asosida qilingan statistik tahlilda isbotlandi.

UMUMIY XULOSALAR

Amalga oshirilgan ilmiy tahlillar, taqdim etilgan metodik ishlanmalar va tavsiyalarni umumlashtirgan hamda ularning samaradorlik darajasini baholagan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari o'qituvchilar malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan Davlat talablari, o'qitish mazmuni, shakl, metod, vosita va texnologiyalarini takomillashtirish, shuningdek mustaqil ta'lim olish → malaka oshirish kurslarida yangi pedagogik, metodik bilimlarni o'zlashtirish → malaka oshirishdan keyingi davrdan iborat ko'p bosqichli murakkab jarayon bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va ichki bog'lanishni yo'lga qo'yish zarurati mavjudligini ko'rsatdi.

2. Andragogik ta'limda tinglovchilarga hurmat bilan yondashish, ularning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish, ishonch va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, hamkorlik, individual yondashuv kabi tamoyillarga tayanish umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirish samaradorligini ta'minlaydi.

3. Ta'lim jarayonida «SWOT», «T» chizmasi, «Tushunchalar tahlili», «Bumerang», «Blits so'rov», «FSMU», «Muloqot» singari lokal-modulli texnologiyalari loyihalashtirildi va amaliyotga tatbiq etildi.

4. Muammoli, dasturiy, modulli ta'lim va o'yin texnologiyalari, ma'ruza, o'quv-munozara, rolli o'yin va refleksiya metodlaridan ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonida foydalanish ular kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning samarasini ta'minlashi tasdiqlandi.

5. Masofadan o'qitish texnologiyalarini qo'llab, ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini takomillashtirishda masofadan malaka oshirish kurslari tinglovchilariga kerakli ma'lumotlar berishga qaratilgan o'quv-metodik majmua yaratilishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari tizimli, mantiqiy ketma-ketlikda qo'llanishi, pedtexnologiyalar kiritilishi ta'lim samaradorligini ta'minladi.

6. Malaka oshirish jarayonida ona tili va adabiyot o'qituvchilarining o'quv va metodik qo'llanmalar, qo'shimcha materiallar, ijodiy ishlar, metodik tavsiyalardan foydalanishi o'quv

materiallarini tizimlashtirishda, ta'lim yo'nalishini o'quvchilarning qiziqishlari bilan bog'liqlikda interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llab tashkil etishida ahamiyatli ekanligi asoslandi.

7. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilar bilimni baholash o'qituvchining o'zlashtirish darajasini aniqlash bilan birga, o'qish jarayonini rag'batlantirishning muhim vositasi ekani, pedagogda o'rganishga moyillik uyg'otish bilan uning kasbiy sifatlari takomillashuviga ijobiy ta'sir etishi aniqlandi.

8. Ona tili va adabiyot o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda a) uning o'z ustida ishlashi va ijodkorligi; b) taqdim etilayotgan ta'lim texnologiyalari tinglovchi shaxsiyatiga uyg'unlashtirilishi; v) malaka oshirish ta'limi mazmunida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, intellektual, huquqiy talablari aks etishi; g) malaka oshirish jarayoni ildamlovchi xarakter kasb etishi;

d) malaka oshirish tizimida pedagogik jarayonning harakatchanligi ta'minlanishi muhim o'rin tutadi.

9. Statistika tahlil natijalari taklif etilayotgan texnologiyalar tizimi xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish jarayoni uzluksizligi va uzviyligini, o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlovchi vosita ekanini isbotladi.

10. Malaka oshirish kurslari faoliyati samaradorligini doimiy ravishda monitoring qilib borish maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilari tomonidan maxsus metodik bilimlar va ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarini o'zlashtirishlari uchun zarur ekanini ko'rsatdi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagilar *tavsiya* qilinadi:

1. Ijtimoiy raqobat tobora o'sib borayotgan sharoitda malakali o'qituvchilarni tayyorlash, ularning malakasini oshirishda pedagog shaxsining mustaqil ravishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini takomillashtirish sifatlarini shakllantirish.

2. Xalq ta'limi muassasalarida faoliyat olib borayotgan ona tili va adabiyot o'qituvchilarida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

3. «Ona tili va adabiyot fanini o'qitish nazariyasi va metodikasi» kursi o'quv-uslubiy majmualari mazmuniga ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga oid

mavzular, ijodiy topshiriqlar, mustaqil ish mavzularining kiritilishiga alohida e'tibor qaratish.

4. «Ona tili va adabiyot fanini o'qitish nazariyasi va metodikasi» kursini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy shakl, metod, vositalarini ona tili va adabiyot o'qituvchilaridagi kasbiy tayyorgarlikning rivojlanish jarayoniga tizimli tatbiq etish.

5. Umumiy o'rta ta'lim hamda malaka oshirish muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida malaka oshirishga qadar tinglovchilarning mustaqil ta'lim olishlarini ta'minlashga mo'ljallangan ijodiy ishlar texnologiyalarini ishlab chiqish, takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etish.

6. Ona tili va adabiyot o'qituvchilari faoliyatini izchil o'rganib borish va ularning samaradorligini tahlil etish maqsadida tashkil etiluvchi monitoringning doimiylikini ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish.

7. Maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonlarining muayyan maqsad va natijaga erishish darajasini tahlil qilishni yo'lga qo'yish maqsadida «Maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari»ni doimiy takomillashtirish.

8. Malaka oshirishdan keyingi faoliyatida ona tili va adabiyot o'qituvchilarining mustaqil ta'lim olish tizimini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi //O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1992-yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: O‘zbekiston, 2015. – 36 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» //Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq. 1997.-31-61-b.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni // Xalq so‘zi. – 1995-yil 29-dekabr.
5. 2004-2009-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida // Ma’rifat. Toshkent, 2004. –№41.–B. 1.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
7. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida // Talim taraqqiyoti. – Toshkent, 2006. – № 2.
8. Umumiy o‘rta talimni tashkil etish to‘g‘risida // Talim taraqqiyoti. – Toshkent, 1998. – № 1.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-avgustdagi «Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 234-qarori (1-ilova: Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish to‘g‘risida nizom). – Toshkent. //Ta’lim taraqqiyoti. №4.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentyabrdagi «Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3289-qarori.

Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2017-yil 27 sentyabr.

11. Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablari // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2012-yil 25-iyuldagi 227-buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zStandart Davlat agentligida 2013-yil 1-fevralda O`zDST 2767: 2013 qayd raqami bilan ro'yxatga olingan.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi 5-qarori.
13. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. // Ta'lim taraqqiyoti. – Toshkent, 1999. – № 1.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-modda.
15. O'zbekiston uzluksiz ta'limining Davlat ta'lim standartlari. Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi) bakalavriat ta'lim yo'nalishining Davlat ta'lim standarti. T.: 2014. B.48.
16. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston. 2017. – 102 b.
17. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 40 b.
18. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent: Sharq, 1999. – 184 b.
19. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9 – T.: O'zbekiston, 2001. – 440 b.
20. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida T.6 – T.: O'zbekiston, 1998. – 429 b.
21. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar-taraqqiyot omili. –

- Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – 24 b.
22. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 173 b.
 23. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5 – T.: O‘zbekiston, 1997. – 384 b.
 24. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 440 b.
 25. Abdukarimov X. Kasb tarbiyasi va uning ijtimoiy pedagogik mohiyati. // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2006. – № 4 – B. 18-20.
 26. Abdukarimov X. Kasbiy pedagogik faoliyat. – Toshkent: O‘qituvchi NMIU, 2010. – 160 b.
 27. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
 28. Abduquddusov O. Malaka oshirish tizimida pedagogik innovatsiya // Xalq ta’limi. – Toshkent, 1999. – № 6. – B. 49-52.
 29. Азизходжаева Н.Н. Инновационные и образовательные технологии в подготовке педагогических кадров // Халқ таълими. – Тошкент, 2001. – № 4. – С.123-126.
 30. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi mutaxassislarni tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent: TGPU, 2000. – 52 b.
 31. Акмалов А.А. Педагогические основы совершенствования учебного процесса в институтах повышения квалификации кадров: Автореф. дис. . канд. пед. наук. – Т.: 1994. – 20 с.
 32. Akobirov S.F., Aliqulov T.A., Ibrohimov S.I., Ikromova N.I., Mamatov N.M., Ma'rufov Z.M., Mirtojiyev M.M., Mixaylov G.N., Rustamov A.R., Xo‘jaxonov A.T., Hojiev A.P. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / Z.M.Ma'rufov tahriri ostida. T.1 – M.: Rustili, 1981. – 584 b.
 33. Akobirov S.F., Aliqulov T.A., Zufarov S.Z., Ibrohimov S.I., Ikromova N.I., Mamatov N.M., Ma'rufov Z.M., Mirtojiyev M.M., Mixaylov G.N., Nu'monova Sh., Xo‘jaxonov A.T., Habibullaev N. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / Z.M.Ma'rufov tahriri ostida. T.2 – M.: Rustili, 1981. – 392 b.
 34. Al Buxoriy Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. – 560 b.

35. Aliyev A. Pedagogik madaniyat: metod va mahorat qirralari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2007. – № 5 – B. 23-27.
36. Aminov A.X. Umumiy o'rta ta'lim pedagog xodimlarni malakasini oshirish tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari: Ped. fan. nom. dis. – Samarqand: VXTXQTMOI, 2004. – 156 b.
37. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari: Psix. fan. nom. dis. avtoreferati. – T.: O'zPFITI. 2002. – 22 b.
38. Aripdjanova A.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish: Ped. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoreferati. – T.: TDPU. 2017. – 50 b.
39. Artiqboyeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika o'qituvchilarining kasbiy-metodik ko'nikmalarini takomillashtirish: Ped. fan. nomz. . dis. – Toshkent: TDPU, 2004. – 141 b.
40. Asqarov A.D. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish: Ped. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoreferati. – T.: O'zPFITI. 2017. – 51 b.
41. Ahliddinov R.Sh. Umumiy o'rta ta'limni takomillashtirishning tashkiliy pedagogik asoslari: Ped. fan. nomz. . dis. – Toshkent: O'zPITI, 1998. – 145 b.
42. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dok. . dis. –Toshkent: TDPU, 1997. – 305 b.
43. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1977. – 31-b.
44. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzaev T, To'xliiev N, Umarov E, Xudoyberganova D., Hojiev A. O'zbek tilining izohli lug'ati / A.Madvaliev tahriri ostida. T.2 – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 382 b.
45. Begmatov E., Madvaliev A., Mahkamov N., Mirzaev T, To'xliiev N, Umarov E, Xudoyberganova D., Hojiev A. O'zbek tilining izohli lug'ati / A.Madvaliev tahriri ostida. T.3 – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 382 b.

46. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технолигии. – Москва: Педагогика, 1989. – 168 с.
47. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin topshiriqlardan foydalanish: Ped. fanlari nomz. ... dis. avtoref. – T., 1997.
48. Boymurodova G.T. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy-shaxsiy tayyorgarligining texnologik tizimi: Ped. fan. nomz. ... dis. – Toshkent: TDPU, 2009. – 155 b.
49. Вербитский А.А., Платонов Т.А. Формирование познавательной и профессиональной мотивации. – М.: Педагогика, 1986. – 124 с.
50. Gulboyev A.T. Pedagogik tashxis vositasida o'qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish. Ped. fan. nomz. ... dis. – Toshkent: TDPU, 2010. – 155 b.
51. Гулямов А.К. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в протессе преподавания родного (узбекского) языка: Автореф. дис. д-ра пед. наук. – Т., 1991.
52. Davletshin M. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.– 30 b.
53. Djurayev R.X., Tolipov O'.Q., Safarova R.G'., To'raqulov X.O., Inoyatova M.E., Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug'ati / R.X.Djuraev tahriri ostida. – T.: Fan, 2008., – 196 b.
54. Dolimov S. Ma'rifat fidoyisi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
55. Yodgorov H. Pedagog kadrlarni saviyasini yuksaltirish, uzluksiz malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2002. – № 4. – B. 82-87.
56. Yoqubov O. Ulug'bek xazinasini. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1994. – 296 b.
57. Jabborov A.M. Pedagogik texnologiyaning etnik asoslari. – Toshkent: Zarfalam, 2006. – 45 b.
58. Jabborov A.M. O'zbek maktabi o'qituvchisining psixologik va etnik xususiyatlari: Psix. fan. dok. . dis. – T.: O'zMU, 1999. – 317 b.
59. Jumaniozova M.T. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari: Ped. fan. nomz. ... dis – T.: O'zPFITI, 2007. – 176 b.
60. Jo'rayeva S. Shaxsning kasbiy shakllanishiga bag'ishlangan

- psixologik g'oyalar va pedagogik faoliyatning psixologik diagnostikasi // Maktab va hayot. – Toshkent, 2006. – № 2. – B. 20-24.
61. Jo'rayev Yo. Adabiyot darslarida emotsional madaniyatni tarbiyalash. // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2009. – № 4. B. 3-9.
 62. Jo'rayev R., Safarova R., Ibragimov X., Musayev U. Pedagogika fani konsepsiyasi // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2004. – № 5. – B. 18-19.
 63. Zaynutdinov R.Z. Psixologiya lichnosti uchitelya uzbekskoy natsionalnoy shkolы i yeyo formirovanie v sisteme nepreryvnogo obrazovaniya: Dis. . d-ra psixol. nauk. – Sankt-Peterburg:1992. – 314 s.
 64. Zaripov K. Pedagogicheskaya diagnostika v sisteme nepreryvnogo povыsheniya kvalifikatsii uchiteley: Avtoref. dis. ... dokt. ped. nauk. – Buxoro: BuxDU, 1989. – 45 s.
 65. Zaripov K. O'qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarlarining roli. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 112 b.
 66. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – 272 b.
 67. Zunnunov A., Xayrullayev M., Hotamov N., Shodiyev D. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar – T.: Fan, 1996. – 310 b.
 68. Ibragimova M. Shermatov X. Ta'lim jarayonida faol usullarni qo'llash // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2005. - №5. – B. 16-19.
 69. Ibraymov A.Ye. Umumta'lim maktablari fizika o'qituvchilari masofaviy malaka oshirishlarining ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoreferati. – T.: TDPU.2017.–51b.
 70. Islomova N. O'qituvchilik kasbining afzallik tomonlari // Maktab va hayot. – Toshkent, 2006. – № 3. – B. 9-11.
 71. Yo'ldoshev J.G'. Zamonaviy dars. – Toshkent: XTXQTMOMI, 2006.–5b.
 72. Yo'ldoshev J.G'. Malaka oshirishni isloh qilishning tashkiliy-pedagogik asoslari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2001. – № 4. – B.11-19.

73. Yoʻldoshev J.Gʻ. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari (yoxud oʻqituvchi boʻlish osonmi?). – Toshkent: Oʻqituvchi, 1998. –208 b.
74. Yoʻldoshev J.Gʻ. Malaka oshirish – taʼlim-tarbiya omili. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1993. – 136 b.
75. Yoʻldoshev J.Gʻ. Taʼlimimiz istiqloli yoʻlida. – Toshkent: Sharq, 1996. – 224 b.
76. Yoʻldoshev J.Gʻ. Uzluksiz taʼlim: Malaka oshirish muammolari va yechimlari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1991. – 48-b.
77. Yoʻldoshev J.Gʻ., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: Oʻqituvchi, 2004. – 104 b.
78. Yoʻldoshev J.Gʻ., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 652 b.
79. Yoʻldoshev R., Azimov I. Malaka oshirishda oʻqitishning faol usullari // Xalq taʼlimi. – Toshkent, 2001. – № 4. – B. 20-22.
80. Yoʻldoshev Q., Qodirov V., Yoʻldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf. Oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma T.: Sharq, 2006. – 214 B
81. Yoʻldoshev Q., Qodirov V. Adabiy saboqlar. 7-sinf. Oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma. – T.: Sharq, 2005. – 192 b.
82. Yoʻldoshev Q. Qodirov V., Yoʻldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua. T.: Yangiyoʻl poligraf servis, 2011. – 301b.
83. Yoʻldoshev Q. Yangicha pedagogik tafakkur va umumtaʼlim maktablarida adabiyot oʻqitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. . dis. –Toshkent: OʻzPFITI, 1997. – 302 b.
84. Keldiyorov R. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari (Oʻqituvchi kasbiy-maʼnaviy fazilatlarini asosida): Ped. fan. nomz. ... dis. – Toshkent: TDPU, 2001. – 136 b.
85. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. – Москва: Знание, 1989. – 84 с.
86. Кузмина Н.В. Способности, одарённости талант учителя. – Л.: 1985. – 32 с.
87. Кузмина Н.В. Формирование педагогических диагностических умений в процессе профессиональной подготовки будущего

- учителя. Автореф. . канд. пед. наук. – Нижний Новгород: 1994. – 16 с.
88. Лушников И.Д. Педагогические основы профессионально – личностного развития учителя на послевузовском этапе: Автореф. дис. . канд. пед. наук. – М.: МГУ. 1993. – 24 с.
 89. Mavlonova R., To‘rayeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 2001. – 512 b.
 90. Mardonov Sh.Q. Malaka oshirishda shaxs omili // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent, 2004. – № 5. – В.87-90.
 91. Mardonov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta’limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: O‘zPFITI, 2006. – 257 b.
 92. Mardonov Sh.Q. Yangi ta’limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – Toshkent: Fan, 2006. – 228 b.
 93. Маркова А.Н. Психология труда учителя. – Москва: Просвещение, 1993. – 190 с.
 94. Matchonov S. Umumta’lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish: Ped. fan. dok. . dis. –Toshkent: O‘zFA, 1998. – 306 b.
 95. Mahmudova G. Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2005. – № 4. – В 17-20.
 96. Meliboyev A.R. Malaka oshirish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarga ekologik bilim berishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari: Ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent: O‘zPFITI, 2008. – 170 b.
 97. Mirqosimova M.M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari: Ped. fan. dok. . dis. – Toshkent: TDPU, 1995. – 253 b.
 98. Митина Л.М., Кузменкова О.В. Психологические особенности внутриличностных противоречий учителя // Вопросы психологии. – Москва, 1998. – № 3. – С.31-29.
 99. Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал. (психологические проблемы). – Москва: Дело, 1994. – 215 с.
 100. Монахов Н.В. Эволюция дистанционного образования. //Информационные технологии. – 2003. №2. С. 90.

101. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllanishining nazariy-metodik asoslari: Ped.fan.dok. dis. – Toshkent: O'MKHTTKMO va UQTI, 2006. – 349 b.
102. Муслимов Н. Подходы к решению проблемы создания портала Дистанционного обучения. //Касб-хунар таълими. -2003. №2. Б.27-29.
103. Muslimov N.A. O'qituvchi kasbiy mahoratida pedagogik ko'nikmalarning o'rni // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2006. – № 3. – B 50-52.
104. Muslimov N.A. O'qituvchini kasbiy shakllantirishda tizim va muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat muammolari // Maktab va hayot. – Toshkent, 2004. – № 5. – B. 3-5.
105. Nishanov M.N. O'qituvchilar malakasini oshirish ishlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – 96 b.
106. Nuridinov B.S. Kasb ta'limi o'qituvchilari malakasini oshirishda faol o'qitish metodlaridan foydalanishning ilmiy pedagogik asoslari: Ped.fan.nom. ... dis. – Toshkent: O'MKHTTKMO va UQTI, 2002.– 146 b.
107. Olim S. Ahmedov S. Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma Toshkent: O'qituvchi, 2006. – 384 b.
108. Olim S. Ahmedov S. Qo'chqorov R. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2010. – 178 b.
109. Omilxonova M. Maktabda ona tili sintaksisini o'rganish. – T.: O'qituvchi, 1991.
110. Po'latov I.P. Yangi asr o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar. // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2006. – № 4. – B.40-43.
111. Rajabova I. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishda interfaol usullardan foydalanish (Kasb-hunar kollejlari misolida): Ped.fan.nom. ... dis. – Toshkent: O'zDJTU, 2010. – 146 b.
112. Rajabova S.F. Kasb-hunar kolleji o'qituvchisining kasbiy mahoratini oshirishning tashkiliy-pedagogik asoslari (Malaka oshirish jarayonida): Ped. fan. nom. . dis. – Toshkent: O'MKHTTKMO va UQTI, 2004. –191 b.

113. Sayidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. – Toshkent: RTM, 2000. – 46 b.
114. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
115. Sayfurov D.M. Kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida masofadan o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T.: O‘MKHTTKMO va UQTI, 2005. –156 b.
116. Saidov M. O‘rta maktablarning 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2000.
117. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., O‘zMU qoshidagi OPI. – 88 bet.
118. Sanoqulov X., Jumaev M. Kasbiy tayyorgarlikda fanlararo aloqadorlik // Xalq ta’limi tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yangi avlodini tayyorlash muammolari: Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDPU, 1996. – B. 218-220.
119. Sariboneva M. Umumta’lim maktablarida alisher navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o‘rgatish («Xamsa» asari asosida): Ped.fan.nom. ... dis. – Toshkent: O‘zDJTU, 2010. – 146 b.
120. Сафарова Р.Г. Теория и практика обучения родному языку в школах Узбекистана в условиях национального возрождения: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Т., 1998.
121. Suyunov H.M. Adabiyot darslarida o‘quvchilarni savol-topshiriqlar ustida ishlashga o‘rgatish usullari: Ped. fan. nomz. . dis. – Toshkent: TDPU. 2005. – 151 b.
122. Tojiyeva F.M. O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish mazmunini shakllantirishning pedagogik asoslari (Tasviriy san’at o‘qituvchilari misolida): Ped. fan.nomz. . dis. – T.: O‘zPFITI, 2006.
123. Tolipova J. Biologiya o‘qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini orttirish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. – T.: TDPU, 2006. – B.19.
124. Tolipova J. Malaka oshirishda hamkorlik texnologiyasi // Xalq

- ta'limi. – Toshkent, 2003. – № 6. – B.99-103.
125. Tolipova J. Pedagogik texnologiyalar – do'stona muhit yaratish omili. – Toshkent: Yunisef, RTM, XTV, 2005. – 19-54-b.
126. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006. – 257 b.
127. Tolipov O'.Q. Tajriba-sinovlarni o'tkazishda yangi pedagogik texnologiyalar // Xalq ta'limi. – Toshkent, 1999. – № 2-3. – B. 63-67.
128. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent.: O'qituvchi, 1991. – 380 b.
129. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 182 b.
130. Ummatqulov T.M. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni o'quvchilar salomatligini muhofaza qilishga tayyorlashning pedagogik asoslari. Ped. fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2003. – 19 b.
131. Fayzullayeva N. O'qituvchi kasbiy mahoratida pedagogik ko'nikmalarning o'rni // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2006. – № 3. – B.50-52.
132. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Meros, 1993.– 187 b.
133. Xalimmetova R. Pedagog kadrlar malakasini oshirish, qayta tayyorlash tizimi hamda ilg'or pedagogik tajribalar // Xalq ta'limi. – Toshkent: 2003. - №6. – B. 95-99.
134. Xalimmetova R. Pedagog kasbining asosiy omillari, fazilatlari va kadrlar tanlash modeli // Uzluksiz ta'lim. –Toshkent: 2002. – № 4. – B. 22-31.
135. Xalimmetova R. Pedagoglar malakasini oshirishning maqsadi va uning asosiy shakl hamda usullari // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent: 2003. – № 3. –B. 69-71.
136. Шарифбаева Х.Я. Педагогические условия совершенствования подготовки преподавателей профессиональных колледжей (на основе сравнительных исследований): Автореф.дис....канд. пед. наук.–Т.: 2005.–19 с.
137. Shayusupova A.A. Kasb-hunar kollej o'qituvchilari malakasini

- oshirish o'quv-metodik majmuasini yaratishning ilmiy-metodik asoslari (qishloq xo'jaligi sohasi yo'nalishlari misolida): Ped. fan. nom. ... dis. avtoref. – T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2005. – 23 b.
138. Shoymardonov T.T. Pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi: Ped. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoreferati. – T.: TDPU. 2017. – 52 b.
139. Egamberdiyeva F.O. Adabiy ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish metodikasi. Ped. fan. nom. ... dis. avtoref. – T.: TDPU, 2005. – 23 b.
140. Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish: Ped.fan.dok. . dis. – Toshkent: O'zPFITI, 2016. – 349 b.
141. Yuldasheva N.A Adabiyot darslarida vatanparvarlik tarbiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2011. – 250 b.
142. Yuldashev R.T. O'qituvchilar kasb-mahorati darajasini pedagogik tashxis qilish – pedagogik xodimlar malakasini oshirishni takomillashtirish omili: Ped. fan.nom. ... dis. avtoref. – T.: TDPU, 2001. – 24-b.
143. Yunusov T. Yosh o'qituvchilar bilan ishlashni takomillashtirish yo'llari. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 80 b.
144. Yusupova Sh.J. Ona tili ta'limi samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish. Ped. fan. nom. . dis. Toshkent: O'zFA, 1998. – 120 b.
145. Yusupov E., Ismoilov F. Inson barkamolligi . – T.: O'zbekiston, 1989. – 157 b.
146. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Fan, 1972. – 964 b.
147. Yaminova S. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda ssenariyli o'qitish usulidan foydalanish. Ped. fan. nom. . diss. – Toshkent: O'zFA, 1997.
148. O'zbek pedagogikasi tarixi. / A.Zunnunov tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1997. – 271 b.
149. Qosimova N.A. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqini so'z ma'nodoshlari bilan boyitish: Ped. fan. nom. ... diss. – Buxoro: BuxDU, 2004. – 154 b.

150. G'aybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika. T.: O'zMU, 2005. – 176 bet.
151. G'aniyev T. Ona tilidan mashq bajarish jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish: Ped. fan. nomz. ... dis. – T., 1991.
152. G'oziyev E. O'qituvchining etnopsixologik xususiyatlari. // Xalq ta'limi. – Toshkent, 1999. - №1. – B. 85-86.
153. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. – T.: O'qituvchi, 1995.
154. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2001.
155. Haydarova O.Q. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash: Ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent: TDPU, 2004. – 154 b.
156. Hurvaliyeva T.L. Maktab amaliyotchi psixologlari malakasini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida oshirish: Ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent: O'zPFITI, 2008. – 176 b.
157. Husanboyeva Q.P. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy metodik asoslari. Ped. fan. dok. . dis. – Toshkent: O'zPFITI, 2006. – 258 b.
158. Farber Y/ The third circle: on education and distance learningg' // Sociological perspectivesg' Beverly Hills/ 1998. V.41. №4. B. 797-814.
159. Carnevale D. Distance education can bolster the bottom line a professor argues. // The chronicle of higher education. N.Y. 1999. October 22. V.XLVI.№9. B.60.
160. Laird E. Distanse – learning instructors. // The chronicle of higher education. 1999. V.XLV.№38. may 28. B.6.
161. Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 34-son, 433-modda
162. <http://www.uzlidep.uz/uzc/news/uzbekiston-respublikasi-prezidentligiga-nomzod-shavkat-miromonovich-mirziyoevning-dasturi>
163. <http://timssandpirls.bc.edu/timss2015/encyclopedia/>
164. <http://smsiti.uz/oz/menu/masofadan-oqitish>

ILOVALAR

1-ilova

«Malaka oshirish kurslarida ta'limning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish» mavzusidagi mashg'ulot ishlanmasining loyihasi

Ta'limiy maqsad: tinglovchilarda ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim usullarini tanlash va ularni amalda qo'llash malakasini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: tinglovchilar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stona munosabat, ijodkorona muhit yuzaga keltirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: ularda ezgu ma'naviy sifatlar va kasbiy mahorat qaror toptirish, pedagogik tafakkurni boyitish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Jihozlar: flipchart qog'ozi, marker, skotch, qaychi, yelim, kartochkalar.

Mashg'ulotning borishi:

I. *Kirish.* Tinglovchilar bilan salomlashiladi, ta'lim beruvchi o'zini tanishtiradi. Ayni damda tinglovchilar qanday holatda ekanligi kuzatiladi.

II. *Mavzu e'lon qilinadi.* Mavzuni muhokama qilishga imkon bermay, ishtirokchilar 5 yoki 7 kishilik guruhlarga ajratiladi.

III. *Guruhlarga topshiriqlar beriladi:*

1. Guruhingizni nomlang. Nima uchun shunday nomladingiz?

Izoh: birinchidan, tinglovchilarning ijodkorlik darajasi namoyon bo'ladi, ikkinchidan, pedagogning guruh nomi bilan murojaat qilgani ma'qul.

2. Guruh ishi va taqdimot uchun vaqt belgilanadi.

3. Guruhlar 15 daqiqa ichida flipchart qog'ozlardagi savollarga marker bilan javob yozishadi va bu qog'ozlar har 3 yoki 4 daqiqada guruhlararo soat strelkasi yo'nalishida almashtiriladi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ona tili va adabiyot darslarida eng samarador bo'lgan ta'lim usullarini sanang (fanlar bo'yicha alohida).

2. Qaysi usulni til yoki adabiy ta'limning qaysi bosqichida qo'llagan ma'qul?

3. Faol ta'lim usullarining afzalliklari.

4. Faol ta'lim usullarining kamchiliklari.

(Savollar yechilishi lozim bo'lgan muammoga qarab o'zgarishi mumkin).

IV. *Vaqt tugagach boshqaruvchi jarayonni to'xtatishni so'raydi.* Bungacha har bir guruhning oldiga o'zlari birinchi bo'lib javob yozgan qog'oz aylanib keladi. Guruh a'zolari qolgan guruhlar bildirgan fikrlarni tahlil qilib, ularga munosabatini aks ettiradilar. Guruh yetakchisi chiqib o'z guruhdoshlari va qolgan guruhlar yozgan javoblarni o'qib, izohlaydi. Avval guruh a'zolari, so'ngra qolgan guruhlardan «to'ldiruvchi bormi?» deb so'raladi.

V. *Guruhlar ishi muhokama qilinadi.* Munozarali vaziyat yuzaga kelsa, tayinlangan ekspert guruhi yoki boshqaruvchi to'g'ri javobni tanlab, uni ilmiy asoslaydi, noto'g'ri javob bergan ishtirokchi g'oyalarini keskin rad etmay, fikr bildiradi.

VI. *Ta'limiy muhokama o'tkaziladi* (Muhokamada ta'lim oluvchi hamda ta'lim beruvchining yarim doira shaklida o'tirishi maqsadga muvofiq).

Muhokama uchun quyidagi savollarni taklif qilish mumkin:

- 1) Bu usul sizga tanishmi?
- 2) Siz jarayonda qanday holatga tushdingiz?
- 3) Zamonaviy ta'lim usullaridan to'liq xabardormisiz?
- 4) Bunda kimning yordamiga ko'proq suyandingiz?
- 5) Sizningcha, ona tili va adabiyot darslarida qanday yo'l bilan samaradorlikka erishish mumkin? (darslik, ko'rgazma, O'TV va boshqalar)
- 6) Bu usulni o'quvchilardan oldin o'zingizda sinab ko'rishingiz kerakmi?
- 7) Ayni usulni ona tili yoki adabiyot darslaridagi qaysi mavzularni o'rganishda qo'llash mumkin?
- 8) Bu usul o'quvchilarda qaysi fazilatlarni takomillashtirishi mumkin?
- 9) Bunday mashg'ulotlar kasbiy mahoratingizni oshiradimi?

VII. *Mashg'ulotni yakunlash.* Umumiy xulosalar bayon qilinadi.

IX sinfda Odil Yoqubovning «Ulug‘bek xazinasini o‘rganish»

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida yetakchi o‘rin tutgan O.Yoqubov hayoti va ijod namunasi, aniqrog‘i, avtobiografik xarakterdagi «Muzqaymoq» hikoyasi bilan o‘quvchilar VI sinfda tanishgan. IX sinfda esa yozuvchiga katta shuhrat keltirgan «Ulug‘bek xazinasini» romanini o‘rganish uchun dasturda 4 soat vaqt ajratilgan. Bu o‘z navbatida ona tili va adabiyot o‘qituvchisiga ham, o‘quvchiga ham o‘zlashtirish jarayonida mas’uliyat yuklaydi. Chunki 4 soat ichida adibning «Ulug‘bek xazinasini» romani bilan to‘liq tanishib chiqish imkoni juda kam. Shu sababdan VIII sinf bitiruvchilariga ta’ilda o‘qiladigan adabiyotlar ro‘yxatini berish zarurdir. Albatta, bularning ichida Odil Yoqubovning «Ulug‘bek xazinasini» romani ham bo‘ladi. Buning natijasini yangi o‘quv yili boshidayoq so‘rash lozim bo‘ladi. Mabodo, asarlarni o‘qishga ulgurmaganlar bo‘lsa, o‘qib chiqishlari zarurligi, bu yilgi o‘quv rejada bu asarlar ham borligi, agar hozirdanoq o‘qib ulgurishmasa, aynan o‘sha darslarda qiynalib qolishlari uqtirib boriladi. Vaqti-vaqti bilan o‘quvchilarga bular eslatib turiladi.

«Ulubek xazinasini» romanini o‘tish vaqti kelganda, **birinchi soatni** O.Yoqubov hayoti va ijodi bo‘yicha o‘quvchilardan ma’lumot olish, quyi sinflarda o‘qilgan «Muzqaymoq» hikoyasidan xulosalar chiqarishga undash o‘quvchilar xotirasidagi mavjud bilimlarni yana bir karra yangilaydi. Buning uchun, albatta, Oybekning «Qutlug‘ qon» romani va roman haqida nazariy ma’lumotlar o‘zlashtirilgandan keyin «Muzqaymoq» hikoyasini bir qayta o‘qish va Odil Yoqubov biografiyasi bilan tanishishni topshirish kerak. Hikoyada adib o‘z hayotiga taalluqli lavhalarini ham aks ettirgan, ammo vaqt o‘tishi bilan o‘quvchilar hikoyani to‘liq yodda saqlab, u haqidagi fikrlarni aytib bera olmasligi mumkin. Ma’lumotlarni yanada boyitish uchun darslikning 259-260 betida berilgan adib hayot va ijod yo‘liga taalluqli matnni, «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2005-yil 14-sonidagi, «Til va adabiyot ta’limi» jurnalining 2004 yil 2-son 56-betidagi materiallarni ham uyda o‘qib kelishga berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Dars qiziqarli, yanada samarali o‘tishi, yangi mavzuga olib kirish uchun o‘quvchilarni tayyorlash maqsadida «Refleksiya» («Qayta aks

ettirish») mashqi amalga oshiriladi. O‘quvchilar qo‘liga turli rangdagi metaplan kartalar (turli rangdagi qog‘ozlardan qirqilgan oddiy shakllar) berib, ularga marker yordamida Yoqubov hayoti va ijodiga taalluqli bo‘lgan 3ta ma‘lumotni 2 daqiqa ichida yozishlari so‘raladi. Aynan takrorlanmay berilgan ma‘lumot egasini rag‘batlantirish aytiladi. Metaplan karta orqasiga xohlaganlar ismlarini yozib qo‘yishlari mumkinligi ta’kidlanadi. Bunda o‘z-o‘zidan adib haqidagi ma‘lumotlar to‘planadi. Buni «O.Yoqubov xazinasini» deb atab undan turli shakllar hosil qilib, o‘quvchilar ko‘z o‘ngida flipchart qog‘oziga, mabodo bunday qog‘ozlar bo‘lmasa, xattaxtaning bir tomoniga – o‘quvchilarga ko‘rinib turadigan joyga yopishtirish mumkin. Shakllarni o‘qituvchi o‘zi ijodkorlik bilan istagan ko‘rinishda namoyon qilishi mumkin.

Ma‘lumotlar ovoz chiqarib o‘qiladi, aynan takrorlanmagan yangi ma‘lumotlar bergan o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

Darsning qolgan qismida «Ulug‘bek xazinasini» romani va o‘quvchilar VIII sinfda tanishishga muayassar bo‘lgan Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug‘bek» fojiasini qiyosiy tahlil qilinadi. «Ulug‘bek xazinasini» romani va «Mirzo Ulug‘bek» fojiasini asarlari o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi. «Mirzo Ulug‘bek» asari o‘rganilganiga uncha bo‘lmagan bo‘lsa-da, o‘quvchi muhim jihatlarni e’tibordan chetda qoldirib ketishi mumkinligini hisobga olib 9-sinf darsligi bilan birga 8-sinf darsligi ham o‘quvchi yonida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

– O‘quvchilar o‘zaro fikrlashib quyidagi o‘rinlarda asardagi ayrim umumiy jihatlar aks ettirilganini ko‘rsatib o‘tishadi:

– Ulug‘bek hayotining so‘nggi yillari aks etishi;

– «Ulug‘bek xazinasini» romanida shohni taxtdan yiroqlatishga urinishlardan uning qatl etilishi, shahzoda Abdulatifning behalovat kunlari va Ulug‘bek shogidlarining sadoqati;

– «Mirzo Ulug‘bek» fojiasida Ulug‘bekning otasi Shohruh Mirzoning ta’ziasiga kelgan va mamlakat bilan tanishib yurgan elchilarni qabul qilishidan Abdullatif topshirig‘i bilan Said Obid o‘g‘li Abbosning Samarqandni tashlab uzoq safarga ketayotgan olim va hukmdor Ulug‘bekni xanjar urib halok qilishi;

– Zamonaviy ruhning kuchliligi – davr taloto‘plari oldida olim va hukmdor Ulug‘bekning ham o‘jiz qolishi, «dini islomga muqovamat qilib . olam sirlarini ochmoqqa jazm etgani»²;

– Ikkala asarda ham tarixiy faktlarning tilga olinishi;

– Ikkala asarda ham tarixiy shaxslar: Ulug‘bek, Gavharshodbegim, Abdullatif, Ali Qushchi va boshqalarning ishtiroki.

Asarlardagi farqli jihatlar esa quyidagi ma'lumotlarda aks etadi:

Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug‘bek» fojiasida:

– Asar markazida shoh va olim Ulug‘bek taqdiri turadi;

– Ulug‘bek qahramonliklari – jangda yengilmas, hatto o‘limi oldida ham bahodirona kurashi bo‘rttirib ifodalangan;

– Ulug‘bekning xilma-xil holatda ko‘rsatilishi: goh g‘olib, goh mag‘lub, goh tinch, goh notinch, goh tuyg‘ular asiri, goh xalq orasida hazil-mutoyiba qilib yurgan oddiy insoniy qiyofada gavdalandiriladi.

Odil Yoqubovning «Ulug‘bek xazinasi» romanida esa:

– Asar markazida Ulug‘bekning ma'naviy xazinasi: u yaratgan ilm-fanning, u yiqqan kitoblar taqdiri masalasining birinchi o‘rinda turishi;

– Ma'naviy-axloqiy muammolarning asosiy o‘ringa qo‘yilishi – mavlono Muhiddinning qizi taqdiriga befarq bo‘lmaganligida, ota-o‘g‘il munosabatlarida, o‘g‘li padarkush degan nomni olmasin degan maqsadda Ulug‘bekning taxtdan voz kechishida va boshq.

– Tarixiy shaxslar: Amir Temur, Gavharshodbegim, Ulug‘bek Mirzo, Ali Qushchi va boshqalarning badiiy talqini;

– Faktlarning keltirilishi – Amir Temur haqidagi xotiralar, tarixiy joy nomlarining aks ettirilganligi;

– Metodik, g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishining o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi.

Uyga topshiriq sifatida darslikning 260-281 betlarida keltirilgan romandan parchalarni diqqat bilan qayta o‘qib chiqish topshiriladi.

Darsning **2-soat**ida romandan parchalarni ifodali, asarda bayon etilgan voqeya va ruhiy talqinlarni to‘la his etgan holda unda ifoda etilgan mehr, muhabbat, sadoqat, g‘azab, nafrat, xudbinlik kabi bir-biriga qarama-qarshi tuyg‘ularni badiiy o‘qish, eng avvalo, o‘qituvchi, maboda sinfda shunday o‘zgalar tuyg‘usini o‘zinikidek qilib

² Ёқубов О. Улуғбек хазинаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994. – 158-б.

boshqalarga yuqtira oladigan iqtidorli o'quvchi bo'lsa, uning zimmasiga yuklatiladi (Buning uchun o'qituvchi ham, o'quvchi ham bir kun oldin matnni o'qishga tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi shart). Badiiy matnni darsda to'liq o'qib chiqish jarayonida o'qituvchi ifodalab beradigan goh quvnoq, goh yig'loq, goh faryod ohangidagi tuyg'ular o'z-o'zidan bola qalbiga ko'chadi va ko'nglining eng chuqur joylaridan asar qahramonlari uchun ham o'rin ajratiladi. Bu esa adabiyot o'qitishning bosh maqsadi – sog'lom e'tiqodli, komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdek ishni amalga oshirishimizda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Dars yakunida o'quvchilardan asarni tinglash jarayonida o'zlarini qanday his qilganliklari, qanday o'y-fikrlarni xayoldan o'tkazganliklari so'raladi. Asardan keltirilgan parchalar so'ngida berilgan savollarga ulgurgancha javob topishga harakat qilinadi.

3-soatda o'quvchiga Ulug'bekning Abdullatif bilan yuzma-yuz kelishga intilishi, Ali Qushchi va Qalandar Qarnoqiyning sirli ishlari, salkam 40 yillik toj egasi bo'lgani holda nafaqat baxtli bo'lmagani, balki rohat ham ko'rmagan Ulug'bek armonlari, Abdullatif ruhiyatidagi tiyiqsiz o'zgarishlar, Ulug'bekning ma'naviy qudrati tahlil qilinadi, munosabat bildiriladi, insoniy tuyg'ularning omonatligi to'g'risida to'xtalib o'tiladi. Bunday tahlil jarayonida o'quvchilarni guruhga bo'lib, har bir guruhga quyidagi savol va parchalarni berish mumkin:

1-guruh:

Bakovul chiqib, Mirzo Ulug'bek joylashibroq o'tirmagan ham ediki, saroybon kirib, ikkinchi chopar keltirgan nomani tutdi. Bu noma suyuqli navkari Bobo Husayndan bo'lib, birinchisidan ham vahimali edi.

Parchada ifodalangan «vahimali noma»da nima aks etgan? Bu holatda siz qanday yo'l tutar edingiz, yozuvchi o'rnida bo'lsangiz voqyealar rivojini qanday davom ettirgan bo'lardingiz?

2-guruh:

.U bir daqiqagina ikkilandi, ko'nglidagi g'alayon bir soniyagina olishdi, so'ng arg'umog'ining boshini orqaga burdi. U Mirzo Abdullatifga bosh egishga, yaxshilik bo'lsa-da, yomonlik bo'lsa-da, o'z zurriyotidan ko'rishga ahd qildi.

Mirzo Ulug‘bek taqdirini hal qilgan bu harakatdan keyin asardagi voqyealar tasvirini qisqagina xronologik jadvalda aks ettirishga harakat qiling va asoslab bering.

3-guruh:

Mirzo Ulug‘bek allaqanday yengil tortib, taxt yonidagi oq kursiga borib o‘tirdi. Shahzodaning ganch niqobni eslatgan yuzi, qaltiroq qo‘llari, ayniqsa, bejo javdiragan ko‘zlari uning dilida mehrga o‘xshash bir tuyg‘u uyg‘otgan, faqat qandaydir g‘urur, temuriylarga xos bir iftixor gap boshlashga qo‘ymas edi .

Bu tasvirlarni sharhlang va zamonlar osha ota-o‘g‘il munosabatlariga nazar tashlang, misollar bilan izohlang.

4-guruh: Yorab! Hozir kitobni ochganda daf‘atan ko‘zi tushgan ilk misralar . tushida ko‘rgan qonli kalladan ham dahshatli edi. Shahzoda yuragini changallaganicha ko‘zini yumdi, lekin zarhal harflar bilan bitilgan sirli misralar xuddi boyagi qonli kalladay ko‘z oldidan ketmay, lovillab turardi. «...zarhal harflar bilan bitilgan sirli misralar»da ifodalangan fikrni ayting. Abdullatif ruhiyatidagi tiyiqsiz o‘zgarishlarga tayanib, inson tuyg‘ularining omonatligi xususida to‘xtaling.

Guruhlar o‘z ishini taqdimot qilish barobarida avval guruh a'zolaridan, so‘ngra boshqa guruh ichida to‘ldiruvchilar bo‘lsa aytilgan fikrlar asosli tarzda to‘ldiriladi. Zarur o‘rinlarda berilgan o‘qituvchining fikri o‘quvchilarda o‘z fikriga nisbatan yanada ishonch tuyg‘usini uyg‘otadi. Guruhlar uchun topshiriq qilib berilgan parchalarni dalillash asosida o‘z fikrini himoya qilish, ularni bayon etish jarayonida esa ijodiy, erkin fikrlash shakllanadi.

Dars yakunida topshiriq sifatida asar qahramonlarining ruhiy holatlari aks etgan parchalarni topib kelish berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Odil Yoqubovning «Ulug‘bek xazinasi» romani, undagi obrazlar tahlili natijasida o‘z-o‘zidan keyingi mavzu uchun ham zamin yaratiladi. **4-soat**da o‘tilishi mo‘ljallangan «Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili» haqidagi nazariy ma'lumot darsning 5-7 daqiqasini oladi, xolos. Avvalgi darslarda o‘zlashtirilgan bilimlar ham ta'lim oluvchida bu mavzuni o‘zlashtirish uchun unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Shularni hisobga olgan holda, darsning qolgan qismini asardagi

qahramonlarning ruhiy holati aks ettirilgan parchalar tahliliga qaratish lozim.

Asarda berilgan parchadagi qahramonlarning his-tuyg'ularini tahlil qila olish, ularning xarakteridagi qarama-qarshi tug'yonlarga xolisona baho berishni IX sinf o'quvchisi, albatta, to'g'ri yo'ldan adashmay anglashi va ularga o'z fikrlarini to'laqonli bera olishi uchun o'qituvchi o'z o'rnida fikrlarni asoslab borishi zarur.

Mashg'ulotning yakunlovchi qismida darslik-majmuada berilgan savol-topshiriqlarni berish orqali o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini aniqlab baholash mumkin.

3-ilova

8-sinf o'quv dasturida berilgan U. Nosir qalamiga mansub «Nil va Rim» she'ri»ni o'rganish metodikasi

Dars usuli: interfaol

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilar Usmon Nosir hayoti va ijodi, lirikasi haqida ma'lumot oladilar. «Nil va Rim» asari bilan tanishadilar.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilar ozodlik, erkinlik, insonparvarlik, adolatlilikni, mustaqillik ulug' ne'mat ekanligini asarda tasvirlangan voqyealar orqali his qiladilar, hayotiy ko'nikmalar orqali rivojlantiradilar.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilar o'tmish, bugungi kun va kelajak haqidagi o'z tasavvurlarini, hayotiy bilim va ko'nikmalarini boyitadilar, yangi so'zlar bilan tanishish orqali o'quvchilarda topqirlik, hozirjavoblik xislatlari oshadi.

Dars uchun zarur bo'lgan manbalar, vositalar: Flipchart doskasi va qog'ozi, elektron resurslar, marker, kley, skotch va hokazo.

Usmon Nosir portreti, darslik va ijodkor qalamiga mansub kitoblar, tarqatma materiallar, kompyuter va internet xabarlarini.

Ushbu darsda o'rganiladigan yangi tushunchalar va atamalar:

Ro, Azirisa, Tifon – qadimgi misrliklar tushunchasidagi xudolar nomi.

Fir'avn – qadimgi Misr davlatini boshqargan hukmdor.

Minis, Ramzes, Kleopatra - quldorlik davri Misr hukmdorlari.

Avval bahor osmonidek . – erta bahor osmonidek.

Ochun – dunyo, olam.

Homer – qadimgi yunon shoiri, ko‘zi tug‘ma ojiz bo‘lgan.

Sezar – Rim imperiyasini boshqargan hukmdor.

Spartak – Rim quldorlik tuzumiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonning rahbari, o‘zi ham qul bo‘lgan.

Sud – ma'no, mohiyat.

Aflotun (Platon) – qadimgi yunon faylasufi.

Vergiliy – qadimgi yunon lirik shoiri.

Dars bosqichlari:

1. Tashkiliy qism – 8 daqiqa

2. Darsning asosiy qismi – 11 daqiqa

3. Kichik guruhlarda ishlash – 10 daqiqa

4. Taqdimot uchun – 10 daqiqa

5. Baholash, xulosa va uyga vazifa – 6 daqiqa

I Tashkiliy daqiqa.

a) salomlashish, o‘quvchilarni darsga jalb qilish;

b) «Usmon Nosir hayoti va ijodi» mavzusini takrorlash, savol-javob orqali mustahkamlash;

v) uyga yodlash uchun berilgan «Yurak» she'rini yoddan, ifodali so‘rash;

g) o‘tilgan mavzu bilan yangi mavzuni bog‘lash:

- Shoir Turob To‘la: «Usmon she'riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo‘ronday! U shunday to‘polon va to‘lqin bilan kirib keldiki, uncha-muncha she'riy uslub va ijodni to‘s-to‘s qilib yubordi. Uni o‘zimizda «O‘zbekning Lermontovi», Moskva gazetalarida «Sharqda Pushkin paydo bo‘ldi», - deb yozishganini ta'kidlagan bo‘lsa, adabiyotshunos olim O‘tkir Rashid esa, u ijod maydoniga yosh va kichkina jussasi bilan keldi-yu, katta yuk ko‘tardi deb o‘z esdaliklarida e'tirof etgan edi. Bugungi darsimizda ana shunday katta, zalvorli yuk – tarixiy voqyeliklar badiiy tasvir etilgan «Nil va Rim» she'ri bilan tanishamiz.

II Yangi mavzu bayoni.

«6x6x6» metodi yordamida bilimlar o‘zlashtiriladi. Sinf o‘quvchilari 6 nafardan bo‘lib, «Spartak», «Kleopatra», «Aflotun», «Sezar», «Vergiliy», «Azirisa» guruhlariga bo‘linishadi. Darslikda berilgan 6 qism har bir guruhga beriladi va guruhlariga matnni o‘rganib chiqish vazifasi topshiriladi. Matn avvaldan yozib qo‘yilgan lug‘at yordamida guruhlar tomonidan o‘rganilgandan so‘ng, har bir

guruhning bir nafar a'zosidan qaytadan guruhlar shakllantiriladi. Ular o'zlashtirilgan ma'lumotlarni bir-birlariga hikoya qilib berish orqali mavzuni o'zlashtiradilar.

«Tafakkur cho'qqisi» metodi yordamida o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi.

O'quvchilarga mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlashni talab qiluvchi quyidagi savollar beriladi:

1. Usmon Nosir bu she'rga nima uchun «Nil va Rim» deb sarlavha qo'ygan?

2. Shoir «G'azabini yutib olgan qullar dasti» deya nimalarni nazarda tutgan?

3. «O'lim yaxshi, odam agar shunday xor bo'lsa!

Bir parcha non nima o'zi! Shunga zor bo'lsa!» - misrasida ko'proq qanday qadr to'g'risida gap ketyapti?

4. O'zbekiston xalq shoiri A. Oripovning «Olomonga» she'ri bilan «Nil va Rim»da yo'lbars changalida parchalangan gladiatorning o'limiga chapak chalayotgan «xalq» tasviri o'rtasida bog'liqlik bormi?

5. Asarda takror keltirilgan «Mana menman u isyonning o'lmas avlodi .» degan satrlarni yozgan shoir, sizningcha, o'zini kutayotgan erksizlik, surgun azoblaridan xabardor edimi?

6. «O'sha jonman, o'sha qonman va o'sha jonman!!!» misrasida insoniyatning erk va ozodlik uchun olib borgan kurashi jamlangan bo'lishi mumkinmi? Mulohaza qiling.

III Baholash, xulosa va uyga vazifa.

Darsda faol ishtirok etgan barcha o'quvchilar rag'batlantiriladi, baholanadi. O'qituvchi mavzuni xulosalab, umumiy fikrlarga aniqlik kiritadi.

Uyga vazifa: She'r mazmunini konspekt qilish, lug'atni o'zlashtirish va asardan o'ziga yoqqan bir parchani yodlash.

Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilar Rim xalqi tarixi, quldorlik davri bilan bog'liq o'tmish lavhalari, ifodalarni ma'rifiy-didaktik nuqtai nazardan tahlil qilishga harakat qiladilar, shu bilan birga o'zbek xalqining milliy o'ziga xos jihatlariga ham nazar tashlaydilar. Ularning tafakkurida o'zligini unutmazlik, otabobolarimizning muqaddas qadriyatlarini, mustaqillikni asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatlarini qaror topadi.

Добро пожаловать. Войти!

Халқ таълими тизими ходимларининг малақасини масофавий ошириш курслари

В начало | Курсы | Халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва улар... | Она тили ва адабиёти о'қитувчилари курси

Навигация

- В начало
- Блоги сайта
- Новости сайта
- Курсы
 - A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta ...
 - Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ular...
 - Она тили ва адабиёти о'қитувчилари курси**
 - Ijtimoiy fanlar bloki
 - Umumkasbiy fanlar bloki
 - Mutaxassislik fanlari

Ўзбекистон ўқитувчилари учун масофадан малака ошириш тизими

1 марказий ва 14 ҳудудий малака ошириш институтлари
70 таълим ресурс марказлари

XTMFMTE tuman(shahar) bo'limi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va pedagogik-psixologik diagnostikasini metodik ta'minlash kichik guruhi kasb-hunarga yo'naltiruvchilari va psixologlari kursi



Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy institutlarida tashkil etiladigan masofaviy malaka oshirish kurslari



- Ona tili va adabiyoti o'qituvchilari kursi
- Matematika fani o'qituvchilari kursi
- Kimyo fani o'qituvchilari kursi
- Informatika fani o'qituvchilari kursi
- Fizika fani o'qituvchilari kursi
- Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchilari kursi
- Biologiya fani o'qituvchilari kursi
- Geografiya fani o'qituvchilari kursi

Yangidan ishlab chiqilayotgan kurslar

- Russkii yazyk i literatura
- Qaraqalpaq tili ham adabiyat
- Mehnat ta'limi o'qituvchilari kursi

ва партиянинг Олий мажлиси Қонунчилик палатасидаги фракцияси томонидан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини ишончли химоя қилишнинг ҳуқуқий асосларига баёнланган семинар ўтказилди.
Сайт-источник...





Mos so'zlarni toping - Windows Internet Explorer

http://avloniymtk.uz/mod/quiz/attempt.php?attempt=173986

Ибранное | Рекомендуемые узлы | Коллекция веб-фрагм...

Mos so'zlarni toping

Uyga ▶ MTK_OAD_MFB_FNM_1.0_01 ▶ 15 May - 21 May ▶ Mos so'zlarni toping ▶ Ko'rib chiqish

Munira Shodmonova nom bilan kiringiz (chiqish) O'zbekcha (uz)

QUIZ NAVIGATION

1

Finish attempt...

Start a new preview

Question 1

Not yet answered

Marked out of 5.00

Flag question

Edit question

Matnlardagi 10ta izohtalab va 1ta arxaik so'zni toping

9-sinf adabiyot darsligida Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonidagi o'ninchi maqolat avvalidagi o'nta izohtalab so'zni aniqlang: «Rostliq ta'rifidakim, vujud uyi bu tuz sutun bila barpoy. Va ul uy shabistoni harimida bu sham'i anvar majlis oroy bo'lar. Va egnilik nafiydakim, agar egri kishi zulfdek siymbarlar yuzida yer tutarkan, boshi kesgulik. Va agar ajdohodek ganj ustida halqa urarkim, o'turgulik».

«Suhayl va Guldursun» dostonidagi «Qo'zitti jang bilan olamda to'fon, Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon» masnaviysidan arxaik so'zni toping.

Select one or more:

- tuz
- «Qo'zitti» arxaik so'z bo'lib to'fon ko'tardi, jang qildi so'zlarining sinonimi
- shabiston
- sutun
- halqa
- anvar
- ganj
- zulfdek
- barpoy

Готово

Интернет | Защищенный режим: выкл.

14:04 16.08.2017

Mos so'zlarni toping - Windows Internet Explorer

http://avloniymtk.uz/mod/quiz/review.php?attempt=173986

Ибранное | Рекомендуемые узлы | Коллекция веб-фрагм...

Mos so'zlarni toping

Uyga ▶ MTK_OAD_MFB_FNM_1.0_01 ▶ 15 May - 21 May ▶ Mos so'zlarni toping ▶ Ko'rib chiqish

Munira Shodmonova nom bilan kiringiz (chiqish) O'zbekcha (uz)

QUIZ NAVIGATION

1

Finish review

Start a new preview

Test boshlandi	Wednesday, 16 August 2017, 1:55 PM
State	Finished
Yakunlangan	Wednesday, 16 August 2017, 1:57 PM
Vaqt o'tdi	2 min 8 soniya
Baho	2.50 out of a maximum of 5.00 (50%)

Question 1

Partially correct

Mark 2.50 out of 5.00

Flag question

Edit question

Matnlardagi 10ta izohtalab va 1ta arxaik so'zni toping

9-sinf adabiyot darsligida Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonidagi o'ninchi maqolat avvalidagi o'nta izohtalab so'zni aniqlang: «Rostliq ta'rifidakim, vujud uyi bu tuz sutun bila barpoy. Va ul uy shabistoni harimida bu sham'i anvar majlis oroy bo'lar. Va egnilik nafiydakim, agar egri kishi zulfdek siymbarlar yuzida yer tutarkan, boshi kesgulik. Va agar ajdohodek ganj ustida halqa urarkim, o'turgulik».

«Suhayl va Guldursun» dostonidagi «Qo'zitti jang bilan olamda to'fon, Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon» masnaviysidan arxaik so'zni toping.



Select one or more:



- tuz ✓
Javob to'g'ri
- «Qo'zitti» arxaik so'z bo'lib to'fon ko'tardi, jang qildi so'zlarining sinonimi ✗
Afsus, afsus!!!
- shabiston ✗
Afsuski, adashdingiz
- sutun

Готово

Интернет | Защищенный режим: выкл.

14:06 16.08.2017





MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITUVCHILARI KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Kasbiy tayyorgarlik va uni rivojlantirish tushunchalari talqini.....	6
1.2. Ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ilmiy-pedagogik muammo sifatida.....	12
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	30
II BOB. MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITUVCHILARI KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI	
2.1. Ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni.....	32
2.2. Filolog o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni va samarali texnologiyalar.....	42
2.3. Ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining masofadan malakasini oshirish kursini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.....	72
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	78
III BOB. TINGLOVCHILAR KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA AMALIYOT NATIJALARI	
3.1. Ona tili va adabiyot o‘qituvchilari malakasini oshirish kurslarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni va bosqichlari.....	81

3.2. Tajriba-sinov ishlari natijalari va ularning tahlili.....	93
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	100
UMUMIY XULOSALAR.....	102
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	105
ILOVALAR.....	118

Shodmonova Munira Burxonovna

**ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITUVCHILARINING
KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

Monografiya

“Nodirabegim” nashriyoti

Nashriyot litsenziyasi AI № 313. 24.11.2017 y.

Bosishga ruxsat etildi: 7.06.2021.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 8,5. Adadi 100 nusxa.

100129, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

Navoiy kochasi, 30-uy.

OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.